

BAYRON SINTRA SOHILIDA



Hikayalar toplamı

80. (494.1) - 32

A-63

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

BAYRON SINTRA SOHILIDA

Hikoyalar



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

820.(494.1)-32

A-63

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

BAYRON SINTRA SOHILIDA

Hikoyalar



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UOK 821(497.1)-32

KBK 84-445

A 63

Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev

Mashhur shoir Jorj Bayron haqida eshitgansiz. Iste'dodli adib notanish mamlakatda go'zal bir qizni uchratib, unga g'oyibona oshiq bo'lib qoladi. Xo'sh, shoir oromini o'g'irlagan, qalb harorati ufurib turgan she'rlar yozishga undagan bu go'zal bilan tanisha oladimi?..

Shuningdek, ushbu to'plamdan jahonga mashhur adib-larning bir qator hikoyalari ham o'r'in olgan.

PRINTAKM
ISBN 978-9943-8577-4-2

Inv. 1023/1 - 274

© Abduhamid Pardayev va b. (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingylliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nighoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimmi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Biz bugun, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasisini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarurdir.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N. Tolstoy, A. Dyuma, N.V. Gogol, O.de Balzak, A.P. Chekhov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandr, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrinining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimmi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'nnaviyati va axloqiy mezonlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasi namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagи juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar, degan umiddamiz.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, joy-najon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

Anton CHEKHOV

SAVDOGAR

Andrey Andreyevich Sidorovga onasidan to'rt ming so'mlik meros qoldi. O'ylab-o'ylab bu pulga kitob do'koni ochishga qaror qildi. Bunaqa do'kon judayam zarur edi. Shahar odamlari jaholat va xurofot botqog'iga botgandi; chollar faqat hammomga borishar, amaldorlar qartavozlikdan boshqani bilishmas, ochko'zlik bilan aroqxo'rlik qilishardi. Xonimlar g'iypat bilan band; yoshlar g'oyasiz, biror maqsadsiz yashar; qizlar ertadan kechgacha erga tegish haqida xayol surib, grechixa yormasi yeyishdan bo'lak ishlari yo'qdek edi. Erkaklar xotinlari huzuridan bo'shamas, ko'cha bo'ylab esa cho'chqalar izg'ib yurardi.

„O'yla, yanada chuqurroq o'yla! – xayol surardi Andrey Andreyevich. – Fikr qil!“

Nihoyat, do'kon uchun yordamchi yolladi. Keyin Moskvaga borib, u yerdan juda ko'p eski va yangi mualliflar kitoblarini, ko'plab darsliklarni olib keldi hamda bu ezgulikning barini joy-joyiga terib qo'ydi. Birinchi uch haftada xaridorlar umuman kelishmadi. Andrey Andreyevich peshtaxta orqasida o'tirib, Mixaylovskiyni o'qir va sog'lom fikrlashga intilardi. Qachonki uni, masalan, „Hozir baliq bo'tqasi yeb olsam chakki bo'lmaside“, degandek xohish-istiklar bexosdan qitiqlab qolsa,

darhol: „Eh, qayerga keluvdim-a!“ – deya yuksak g'oyalarni tutib qolishga urinardi.

Har kuni ertalab do'konga ro'mol o'rab ol-gan, paypoqsiz oyog'iga charm kalish kiygan qiz sovqotgancha hovliqib yugurib kiradi va deydi:

– Ikki tiyinga uksus bersangiz!

Andrey Andreyevich unga nafrat bilan javob qaytaradi:

– Adashib kiribsiz, xonim!

Uning oldiga og'aynilaridan birortasi kelib qol-gan paytda yuzini ma'nodor va sirli qilib ko'rsatishga urinadi. Eng oxirgi tokchadan Pisarevning uchinchi tomini topib olib, changini puflab toza-laydi va bu bilan go'yoki do'konida yana nimaldir bor-u, faqat ko'rsatishdan cho'chiyotgan-dek qiyofaga kirib deydi:

– Ha, otagainam... Bu o'zi bittagina, faqat senga aytdim, hech kimga emas... Ha... Qisqasi, azizim, aytib qo'yay, yaqin orada qo'ldan qo'y may o'qib chiqsang, dunyoning sir-asrоридан boxabar bo'la-san... tushunyapsanmi, ha-a, shunaqa...

– Qara-ya, og'ayni, xuddi oldingga uchib kirib-chiqib yurishmagandek!

Uch haftadan keyin birinchi xaridor keldi. Oqishga moyil, suzgichlar bilan kelgan semiz bu janob qizil gardishli furajka kiygan, butun ko'ri-nishi pomeshchik ekanini aytib turardi. U „Ona tili“ning ikkinchi qismini so'radi.

– Sizda toshqalam ham yo'qmikin-a? – so'radi u yana.

– Menda bo'lmaydi-da...

– Esiz... Bo'lsaydi-ya... Arzimagan narsa uchun bozorga borgim kelmaydi, axir...

„Chindan ham, toshqalam olmay bekor qilibman, – o'yladi Andrey Andreyevich xaridor ketgach. – Bu yerda, viloyatda bирyoqlama ixtisoslashib bo'lmaydi, ommani ma'rifatli qilishga aloqador hamma narsalarni sotaverish kerak, qanday bo'lmasin, bunga imkon topish lozim“.

U Moskvaga yozib yubordi va bir oy o'tmasdan aynan uning do'koni oynasida perolar, qalamlar, ruchkalar, o'quvchilar daftarlari, toshtaxta va maktab uchun kerakli boshqa ashylar ham ko'rinish qoldi. Endi do'konga onda-sonda o'g'il bolalar, qizchalar kela boshladи. Savdo biroz yurishib, hatto bir kunda bir so'm-u qirq tiyin pul tushirgan paytlari ham bo'ldi.

Bir kuni charm kalish kiygan qiz shoshgancha uchib kirib keldi. Andrey Andreyevich unga nafrat bilan boqib, adashib kirganini aytish uchun og'iz juftlagan edi, ammo u qichqirgudek dedi:

– Bir tiyinga qog'oz va yetti tiyinga marka bera qol!

Shundan so'ng Andrey Andreyevich pochtaga xos gerbli markalar, mavridi kelganda veksel (pul qarz olganlik haqidagi tilxat) ham olib kelib qo'ydi. Sakkiz oy o'tganda (do'kon ochilgan kundan hisoblaganda) uning oldiga perolar xarid qilish uchun bir xonim keldi.

- – Sizda mabodo gimnaziyachilar sumkasi yo'q mi? – so'radi u.
- Afsus, xonim, bunaqasi yo'q edi-ya!
- Eh, esizgina-ya! U holda menga ko'rsatingchi, qanaqa qo'g'irchoqlaringiz bor, faqat arzonroq bo'lsin.

– Xonim, qo'g'irchoq ham yo'q edi-da!.. – dedi qayg'uga botib sotuvchi.

U uzoq o'ylab o'tirmay Moskvaga yozib yubordi, tez orada uning do'konida sumkalar, qo'g'irchoqlar, barabanlar, qilichlar, garmonlar, koptoklar va turli xil o'yinchoqlar ko'riniq qoldi.

– Bularning bari arzimas narsalar! – dedi u o'z og'aynilariga. – Mana ko'rasiz, men hali o'quv qo'llanmalar, aqlni charxlaydigan o'yinlar tashkil qilaman! Menda, tushunyapsizmi, fanning nozik qirralarini tarqatishga asoslangan ta'lim-tarbiya bo'limi bo'ladi...

U Moskvaga badantarbiya uchun toshlar, kraket, triktrak, bolalar bilyardi, bolalar uchun bog' anjomlari va o'ntalik juda aqli, bilimni oshiradigan ikkita o'yin yozib yubordi. Undan keyinroq esa mahalliy aholi uning do'konini yondan o'tib ketayotib, yuqori darajada mamnuniyat bilan ikkita velosipedni ko'rib qolishdi: biri katta, keyingisi kichikroq. Savdo ham yuksalib ketdi. Ayniqsa, Rojdestvo bayrami arafasida savdo juda zo'r bo'ldi, chunki Andrey Andreyevich derazaga archa bezatuvchi narsalar sotilishi haqidagi e'ltonni yopishtirib qo'ygandi.

– Men bularga tozalik anjomlarini ham keltiraman, tushunyapsizmi, – dedi u og'aynilariga, qo'llarini ishqalagancha. – Faqat Moskvaga borib kelishimga imkon bersangiz bo'lgani! Bundan keyin menda har qanaqasiga ilmiy takomillashgan suzgichlar ham bo'ladi, qisqasi, esingiz og'ib qoladi. Fanni, otaginiam, e'tiborsiz qoldirmoq mumkin emas. Yo'-o'q!

Savdodan ko'p pul tushganda u Moskvaga ketdi va u yerdan naqd pul va kreditga bir yarim minglik har xil tovarlar sotib oldi. Bular ichida suzgichlar ham, yozuv stollari uchun oliy sifatli chiroqlar ham, gitaralar, bolalar gigiyenik ishtonlari, so'rg'ichlar, charm hamyonlar, hayvonot dunyosiga xos jamlanmalargacha bor edi. Ayni damda u besh yuz so'mga ko'zni oladigan hayratomuz idish-tovoqlar sotib oldi va bundan quvonib ketdi, negaki chiroqli narsalar nozik didni rivojlantiradi, fe'l-atvorni muloyimlashtiradi.

Moskvadan uyga qaytgach, u yangi tovarlarni ochiq javon va peshtaxtalarga sarajomlashga tushdi. Eng yuqoridagi peshtaxtani tozalayotganda nimadir bo'ldi-yu, javon bir necha bor tebranib ketdi va Mixaylovskiyning o'n tomlik kitoblari bir-biriga urilib ag'darildi. Bittasi uning boshiga urildi, qolganlari birin-ketin pastga, chiroqlar ustiga tushib ketdi, ikkita chiroq sindi.

– Har holda... qanday qilib ular qalin-qalin kitoblar yozishganikin-a! – ming'irladi Andrey Andreyevich qashingancha.

U kitoblarning barini yig'ishtirdi va arqon bilan mahkam bog'lab, peshtaxta ostiga bekitdi. Shundan ikki kun o'tib unga xabar berishdiki, baqqol qo'shnisi qarindoshini qiynagani uchun mahbuslar rotasiga hukm qilinibdi, shuning uchun uning baqqollik do'konni ijaraga berilar-kan. Andrey Andreyevich juda xursand bo'ldi va do'konni o'zi olib qolishini bildirdi. Do'konni sotib olgach, tezda devor teshilib, eshik ochildi va ikkala do'kon qo'shilib bitta bo'ldi, tovar bilan liq to'ldi; do'konning ikkinchi qismiga kirib yurgan xaridorlar odat bo'lib qolganidan choy, shakar,

kerosin kabilarni so'rashardi, shunda sotuvchi ko'p o'ylab o'tirmay baqqollik mollarini ham olib kelaverdi.

Hozirgi vaqtida ushbu qahramonimiz – shaharda eng ko'zga ko'ringan savdogarlardan. U idishlar, tamaki, qatron,sovun, teshikkulcha, gazlama, attorlik va bo'yochchilik mollari, miltiqlar, charmlar va hatto go'sht, xullas, yangi ish boshlagan paytida yetti uxlab tushiga kirmagan narsalarni ham qilt etmay sotadigan bo'lib ketgan.

Aytishlaricha, u bozor ichkarisidan ijaraga yerto'la olib, alohida „nomer“li oilaviy hammom ochish niyatida ekan. Kitoblar esa, ya'ni qachonlardir uning peshtaxtalarida yotgan kitoblar, shu jumladan, Pisaryovning uchinchi tomi ham alaqachon har pudi uchun bir so'm-u besh tiyinga sotilib ketgan.

Tug'ilgan kun va nikoh to'ylarida burungi oshna-og'aynilar, qaysiki, endilikda Andrey Andreyevich mazax qilib ulug'laydigan „amerikaliklar“ ba'zan unga taraqqiyot haqida, adabiyot yoki oliy ta'lmidtan gap ochishadi.

– Andrey Andreyevich, „Yevropa axborotnomasi“ning oxirgi sonini o'qidingizmi? – so'rashadi undan.

– Yo'g'-a, o'qimadi-im, – javob beradi u, qalin zanjirchani o'ynagancha ko'z qisib qo'yarkan. – Buning bizga aloqasi yo'q. Biz bundan ko'ra ancha ma'qulroq ish bilan shug'ullanamiz.

*Rus tilidan
Shahzoda HAKIMOVA tarjimasi*

TO'Y

„Emanlik“ degan so‘zni eshitishim bilan a’zoyi badanim jimirlab, yuragimga pichoq sanchilgandek bo’ladi. Menga shunday laqab qo’yishlariga, aslida, o’zim sababchi ekanim, bu yerda hech kimning aybi yo’qligi, hammasiga o’zim aybdorligim esimga tushib, yurak-bag’rim ezilib ketadi.

Bu ko’rgiliklar bir qiz tufayli ro'y bergandi. Ismi Xatte bo’lib, ularning qo’rg’oni qishlog’imizning ro’parasidagi tepalik ustida qad rostlagan, otasini „Sulaymon Qo’ng’ir“ deb atashardi. Qo’raside tortib molxona-yu o’tlog’igacha o’sha tepalikda edi. U paytlarda likavitsaliklar o’zlariga tegishli tepalikdagi qo’rg’onda alohida-alohida yashashardi. Faqat juma va hayit kunlari qishloq markaziga tushib kelishar, masjidda juma, hayit namozini o’qib, yana qo’rg’onlariga qaytib, tash-qariga chiqishmasdi. Uylanadimi, bola tug’iladimi, ma’raka-yu to’y-to’rkin o’sha yerda, qo’rg’on ichida o’tardi.

Bolalarning qanday dunyoga kelishini bilma-dim-u, biroq xotin olishga kelganda qiyinchilik ko’p bolardi. Biron-bir qizni yoqtirib qolgudek bo’lsang, butun boshli tog’ atrofini gir aylanib yurishga to’g’ri kelardi. Tog’ning tegrasini Shahriston desa ham bo’lardi. Ustiga-ustak, har

„Hasanjon tayoqqa bog'langan ro'molimni ko'r-gan kuni jarlikda miltiq va xanjar bilan kutsin“, deb tayinlabdi Xatte.

Kampir boshqa hech narsa demadi.

Kech kirishi bilan hamma narsa oydinlashdi. Baklar hududidan ko'chirma qilingan nog'orachi-lar dang'ir-dung'ur qilib Likavitsa tomon yo'nga tushdilar. Ularni Deli Mahmud chaqirtirgan ekan. Sozandalar ertasi kuni Sulaymon Qo'ng'irniki-da karnay-surnay chalishar emish. Demak, Deli Mahmud, o'g'li Ibrohimni Sulaymonning qizi Xat-tega uylantirmoqchi.

Bu xabarni eshitib tomog'imga suyak tiqilgan-dek bo'ldi. Na nafas olaman, na chiqara olaman. Agar Deli Mahmuddan boshqa odam bo'lgani-da ham mayli edi. Bir chorasin topardim. Uyini ag'dar-to'ntar qilishim, qo'rasigami, uyigami o't qo'yishim mumkin edi. Lekin Deli Mahmud bilan hazillashib bo'lmasdi. Bir to'da kallakesarlarni boshlab borib Batak ovulini xonavayron qilgan g'irt qaroqchi u.

Modomiki Sulaymonning o'zi Xatteni unga bermoqchi ekan, Xudodan boshqasi qizni uning qo'lidan tortib ololmaydi.

Faqat bir narsa, Xattening „Jarlikda kutsin“, degan so'zagina zimiston yuragimda umid uch-qunini so'ndirmay turardi. Ertasiga qorong'i tu-shishi bilan qo'shotar miltig'imni yelkamga osib, Sulaymonlar tepaligining ro'parasidagi burgut qoyaning ustiga chiqishim bilan nog'oralarning tak-taka-tum, tak-taka-tumi eshitildi. Likovitsa qishlog'idan chiqqan kuyovnavkarlar turnaqator bo'lib, Sulaymon Qo'ng'irning qo'rg'oni tomon te-

palikka ko'tarila boshladı. Bunday qarasam, ılıgari Xatte o'tirib dam oladigan xarsangtoshga latta bog'langan tayoq suyab qo'yilibdi. Demak, Xudoning rahmi kelgani shu bo'lsa kerak, dedim ichimda.

Xatte kuyovnavkarlar yetib kelmasidan oldin qochsa kerak, deb o'ylagandim. Ammo unday qilsa, Deli Mahmudning odamlari uni quvlab, tutib olishlari mumkinligini sezgan bo'lsa kerak, sabr qilib qorong'i tushishini, mehmonlar obdan yebichib dumalab qolishlarini kutgan ko'rindi.

Rostdan ham xuddi shunday bo'lib chiqdi. To'ychilar kelishgan. Ular yeb-ichib, soz chalib, yarim kechagacha qo'shiq aytishgan. Ana shundan keyin Xatte oyisiga qarab, Siz charchab xoldan toydingiz, buzoqlarga o'zim xashak berib kela qolay, deb bir quchoq somonni olib tashqariga chiqqan-u, ortga qaytmagan. Oradan xiyla vaqt o'tib, qizdan xabar olish uchun uksasi Resimni uning ortidan jo'natishgan. U bo'lsa uyga quruq qopni ko'tarib kirgan. Shu zahoti ona bechora hushdan ketgan. Sulaymon yirtqich hayvondek bo'kirgan, to'ychilar ayyuhannos solishgan. Pichoq, xanjar, to'pponchani belbog'ga qistirib, miltiqni qo'lga olib, kim otliq, kim yayov qizni qidirishga tushishgan.

Men bo'lsam shuncha vaqt ichida jarlikka tushib, damimni chiqarmay kutib turdim. Uch yuz qadamlar naridan oyoq tovushini sezdim. U yetib kelishi bilan:

— Meni xohlagan joyingga olib qoch, — dedi.

Men kallavaram uni olib tog' tomongami, biron bir g'orgami yashirinib, to to's-to'polonlar

bosilguncha, kutib o'tirish o'rniga qizni yetaklab to'ppa-to'g'ri o'z qishlog'im, Kurshovoga kelib o'tiribman.

Qishloqqa yaqinlashganimizda tong ota boshladi. Shundagina Xatteni yaqiniroqdan ko'rdim: tishlari sadafdek oppoq, lablari maymunjon qoni bilan yuvilgandek qip-qizil, yuzlari olmadek tarang, unga yaqinroq borishga ham jur'at etolmadim. O'shanda „Hali ulugurarman“, deb o'ylagandim. Ammo bizning sanoqli vaqtimiz qolganini qayoqdan ham bilibman.

Tong yorishganda uyimizga yetib keldik. Qo'niqo'shnilar, qarindosh-urug'lar bir zumda atrofimizni o'rab olishdi. Shunday go'zal qiz qishloqqa kelin bo'lib tushayotganidan hammaning og'zi qulog'ida edi. Otam bo'lsa:

– Domlaga yuguringlar, tezroq kelib ularni nikohlab qo'ysin, shoshilish kerak, bo'lmasa, anavi azamatlar kelib qolishlari mumkin, – dedi.

Sulaymonlar tepaligidagi azamatlar atrofga zir yugurib, hamma yoqning to's-to'polonini chiqarib, Xatteni qidirgan. Yerga kirganmi, osmonga chiqqanmi, toza garang bo'lishgan. Shundan so'ng uni baqirib chaqirishga tushishgan. Bir vaqt Sulaymonning:

– Hoy, krushovkaliklar! Eshityapsizmi! Mabodo bizning bir qizimiz siz tomonda emasmi? – degan ovoz eshitildi.

– Qanaqasiga biz tomonda bo'lmasin?! – dedi otam baqirib. – Faqat endi u sizniki emas, bizniki! U endi bizning qizimiz bo'ladi, ana shunaqa!

„Bizniki“ degan so'zni eshitishlari bilan ularning dami ichiga tushib, qotib qolishdi. So'ng

birdan „dod-voy“ ko‘tarildi. Go‘yo bir gala bo‘ri o‘kirgandek bo‘ldi. Oradan ko‘p o‘tmay Deli Mahmudning odamlari bizning qishloq tomon ot qo‘ydi.

Yonimda turgan o‘ch-to‘rt kishi:

– Yer bilan yakson qilib tashlashmasidan tezroq juftakni rostlash kerakka o‘xshaydi, Hasanjon! – dedi.

– Yoningga tusholmayman, bor-yo‘g‘i ikkita o‘qim qolgan, bu bezorilarning xurjun to‘la o‘q-dorisni bor, – dedi otam ham.

Ular tobora yaqinlashib qolganidan, toshga tekkan ot taqalarining tovushi yaqqol eshitilib qoldi. Miltiqlarning gumburlashi tog‘dan aks sado berardi.

Deli Mahmudning „Hamma yoqqa o‘t qo‘ying“, degan hayqirig‘i eshitildi.

Bir vaqt atrofimga qarasam, o‘zimdan boshqa hech kim qolmagan. Sekin ortga tisarilib, hujrанинг eshigini ochdim-u, ichkariga kira solib narsidan boloxonaga, undan tomga chiqib oldim. Ammo Xatte ko‘rinmadı. Pastda, hovlida qolib ketibdi. Hovlida esa Deli Mahmudning odamlari. Pastga tushishga yuragim dov bermadi...

– Bu yerda nimani yo‘qotib qo‘yding, iflos?! – qiziga o‘shqirdi Sulaymon.

– Yo‘qotganimni topdim, ota! – hovlida turgan otasiga derazaning ichkarisidan javob qildi qiz.

– Hoziroq bu yoqqa chiq, – o‘shqirdi ota, – bo‘lmasa kallangni sapchadek uzib tashlayman.

– Yo‘q, ota. Tirigimcha bu yerdan chiqmayman, – javob qaytardi Xatte.

– Kim bilan qochding? – so‘radi Deli Mahmud.

– Men bilan, Mahmud og‘a! – javob qildi unga bo‘g‘iq ovozli kimsa va Xattening yoniga kelib turdi.

– U kim edi, deb so‘radingmi?

– Kim bo‘lardi? Otamning ukasi, amakim Salim.

U shu vaqtgacha uylanmagan, birorta qizga sovchi ham qo‘ymagan.

Sababi, uning o‘ng qo‘li mayibligidan na yer chopishga va na o‘roq o‘rishga yarardi. O‘zi bizning uyda yashab, dasturxonimizdan ovqat yer, bolalarga kamoncha, turli o‘yinchoqlar yasab berar, yoz oylarida jo‘xorizorni bo‘rsiqlardan qo‘riqlardi.

Yuzini sepkil bosgan, so‘yloq tishlari kurakka o‘xshardi. Uning qo‘lidan bunchalik mardlik va jasorat kelishini xayolimga ham keltirmagandim. Demak, kelar ekan!

– Qizni men opqochib keldim Mahmud og‘a! – dedi Salim va sog‘lom chap qo‘liga barabanli nagan oldi.

– Deli Mahmud, – deb qichqirdi u yana. – Qo‘limda bitta nagan. Bitta o‘qi bor. Agar oralaringga Xatte uchun jonini tikishga tayyor biror mard bo‘lsa, o‘rtaga chiqsin. Otishamiz. Kim tirik qolsa, Xatte o‘shaniki.

Deli Mahmudning odamlari shovqin ko‘tardi. Ammo Deli Mahmud so‘zni qisqa qildi:

– Kim birinchi bo‘lib otadi? – so‘radi u.

– Birinchi bo‘lib siz tomon ota qolsin, – dedi amakim.

– Ibrohim, – dedi Deli Mahmud o‘g‘li tomon o‘girilib, – anavi sho‘rtumshuqni tezroq bir yoqlik qil-da, bu yerdan ketaylik.

Hamma ortga tisarilib, hovlining o'rtasida Ibrohimning yakka o'zi qoldi. U miltig'ining u yoqbu yog'ini qarab, nishonni aniqladi. Uzoq mo'ljaladi. So'ngra miltig'ini tushirib yana mo'ljalga oldi. Salim bo'lsa panjaraga suyangancha uning ko'ziga tik qarab kular ekan:

– Yaxshiroq nishonga ol, Ibrohim Deli Muhammad, agar meni tirik qoldirsang, onang bergen oq sutini quadiraman! – derdi.

Atrofda jimjitlik hukm surganidan, uning sekin aytgan so'zlarini hamma eshitdi.

Ibrohimning miltig'i gumburlab ketdi. Hovlini tutun qopladi...

Ko'p o'tmay havo yorishdi. Salim esa panjara ga suyangan ko'yi hamon qaqqayib turardi.

Shu payt Deli Mahmudning bolasi qochib qolsa bo'ladimi. Demak, qo'rqib ketgan. Deli Mahmud bo'zarib qichqira boshladi.

– To'xta! Qayt orqangga! Senga aytyapman, qayt!

Ibrohim esa otining egariga mahkam yopishib olgancha yeldek uchib borar, chakmoni ortidan varrakday o'ynoqlardi.

Deli Mahmud o'g'lining ortidan o'q uzdi. Ammo o'g'il to'xtamadi.

Shundan so'ng Deli Mahmud Salim tomonga o'girildi:

– Salim og'a, mening xotinchalish bolam bu qizga munosib emas. Baxtingni bersin.

Ular otlarining boshini ortga burib, jo'nab qoldilar.

Pana-pastqamda pisib yotgan odamlarimiz asta-sekin hovliga to'planishdi. Men ham boloxona

tomidan tushib, Xattening yoniga bordim. Ammo Salim bilan Xatte bir-biridan ko'z uzmay tikilib turishardi.

— Hasanjon, — dedi Xatte menga ko'zi tushib, — men shu yerda, Salim bilan qolaman.

Men Salimning yoqasiga yopishdim. Ammo otam bizni ajratib qo'ydi.

— Qiz Salim bilan qolishi adolatga to'g'ri keladi. Agar amaking bo'limganda, bu yerda kelin u yoqda tursin, hech birimizdan nom-nishon qolmasdi.

Otamning gapini boshqalar ham quvvatladi...

Shunday qilib, Xatte Salimga xotin bo'ldi.

Keyin nima bo'ldi, deysanmi?... Nima desam ekan? Yaxshisi, indamaganim ma'qul. O'shanda o'zimni qayerga qo'yishni bilmay, o'rmonning ichidagi emanzorda bir necha oy odamlarning ko'zidan yashirinib yurdim. O'shandan beri men ga „Emanlik“ deb laqab qo'yib olishgan.

Bir kuni ketib ketmadim, qolib qolmadim. Uyga qaytib keldim, hech kim hech narsa so'ramadi. Men ham hech kimga indamadim.

Pichoq qayray boshladim... Ularni bir yoqlik qilishga qaror qildim. Biznikilar tong otishi bilan dalaga chiqib ketishdi. Xatte suv olgani hovliga tushdi. Salim ostonada o'tirib uni qo'riqlardi. Men charxlangan pichoqni mahkam qisib, ortidan unga yaqinlashdim. Boshyalang qulog'iga gul qistirib olgandi. Za'fargulmi, popukgulmi, ko'zim xiralashgan shekilli, unchalik farqiga bormadim. Shu payt qulog'ining orqasidagi xuddi otamnikiga o'xhash jo'xori donasidek so'galiga ko'zim tushib qoldi. Go'yo, Salimmas, o'z otamga tig' urayotgandek bo'ldim... qo'limdag'i pichoq qanday yerga

tushib ketganini sezmay qoldim. Salim o'girilib menga qaradi. So'ngra yerda yotgan pichoqni olib belbog'imga qistirdi-da:

– Burgutni o'limtik bilan emas, yangi go'sht bilan boqib, qo'lga o'rgatiladi. Bu yerdidan uzoq-roqqa ket! – dedi.

O'sha ketganimcha qaytib u yerkarda bormadim. Ammo hech qayerda uzoq turolmadim. Ketish oson ekan, ammo qaytishga kelganda... Butun boshli bir hayotga qaytish mushkul ish.

Jo'ra MAHMUD tarjimasi

JUDOLIK

Yoz paytida shuwoq hidi anqib, boshing aylanadigan damlar bo'ladi. Eh, ayniqsa, kechalari... Tepangda oymomo asta suzadi. Yuraging hapriqib ketadi. Ko'ngilni mast etguvchi islar taralmish bunaqangi oydin tunlarda beixtiyor shirin, totli xayollarga tolasan. E, yo'q, bu hatto xayol ham emas – ichingga g'ulg'ula solib, zor-intizor etguvchi allatovur boshqacha narsa. Tomorqa etagigami, qariqizlar ichigami berkinib olasan-da, yuraging tushuniksiz, sirli sevinchdan orziqib ketadi. Afsus, bunday sokin tunlar hayotimizda kam bo'ladi.

Shunday kechalardan biri butun umrga miyamga mixlanib qolgan.

O'shanda o'n ikkida edim. Tomorqamizda tiz zamni quchib, ko'zimdan yosh chiqquday bo'lib oyga termilib o'tirardim. Nogoh, shu yaqin-o'rtada kimdir yig'layotgani qulog'imga chalindi. Alanglab qaragandim, qo'shnimiz Nechay cholga ko'zim tushdi.

Ushoqday bo'lib qolgan ramaqi chol oq surp ko'ylagida allanimalarni aytib-aytib yig'lagancha tentirardi.

Uch kun oldin Nechay cholning muloyim, yuvosh kampiri o'tib qolgan edi. Chol-kampir yolg'iz o'zları turishar, bolalari ota uyini tark etgandi.

Birovni ozorlantirmagan Nechay kampir bu dunyodan jimgina ko'z yumdi. Qo'ni-qo'shnilar o'lib qolganini ham ertalab bilishdi. „Ko'rmaysan-mi endi... bechora Nechay kampir uzilibdi-ku“, – deyishdi odamlar. Qabr kavlab, kampirni tuproqqa berishdi, tamom-vassalom. Men hozir boyaqishning saxt-sumbati qanaqaligini ham eslolmayman. Hovlisida „tu-tu-tu“lab tovuqlarini chaqirib yurardi. Qishloqda birovning dilini og'ritmagan, hech kimning g'iybatini ham qilmasdi. Kechagina oramizda edi, bugun esa yo'q.

...O'sha oydin, sururbaxsh kechada yolg'iz odamga qanchalik qiyin bo'lishini anglab yetdim. Hatto tevarak-javonib so'lim, ona yer nechog'lik iliq, yurakka vahm tushmasa-da, yakka-yolg'iz odamga oson tutmaslik lozimligini tushundim.

Bir burchakka biqinib oldim.

Cholning tizzasidan pastga tushib turgan ko'y-lagi oy nurida ko'zni olgudek oqarib ko'rinaridi. U bitta-bitta odimlab, ko'zyoshlarini halpillama yengiga artardi. U mendan sal nariga kelib o'tirdi.

– Hechqisi yo'q... hozir sal o'zimga kelvolay... bir dardlashamiz, – dedi sekin o'ziga chol, ammo baribir ko'zyoshlarini tiyolmasdi. – Uch kundan beri o'zimni qo'yarga joy topolmayapman. Biror nima qilib o'zimni chalg'itay desam, hech ishga qo'llim bormaydi.

Asta-sekin u yupandi.

– Yuragim ezilib ketyapti, Paraskovya: jilla qursa rozi-rizolik so'ramading-a?! Dilingni siyoh qilgan joyim bormidi? Aytib-aytib ketmaysanmi – sal bo'lsayam yengil tortardim. Endi esa armonda goldim... Eh-h... – Chol bir on jimib qoldi. – Mana,

seni yuvib-tarab, kafanga o'rab, joyingga qo'ydik. Sergey yoshulli tobut yasadi. Yig'lab-siqtab oldik. To'g'ri, odam uncha ko'p bo'lindi. Asal, mayiz solib, bo'tqa qaynatdik. Seni Davidovnaning yoniga, bir chetga qo'ydik. Juda bop-da, quruq yer. O'zimgayam o'sha yerdan mo'ljallab qo'ydim. Yolg'iz boshimga ne qilishgayam hayronman. Kulbayi vayronamizni mixlab, Petkanikiga jo'navor-sammikin?.. Ammo yurak betlamaydi: o'zi-ku yaxshi, xotinini... o'zing bilasan-ku, g'ing demasayam, bir tishlam nonni zahar qilib beradi. Peshonam qursin!.. Nima qil deysan?

Jimlik cho'kdi.

Ishtonimni ho'llab qo'yay dedim. Xayolimda hozir Nechay kampir og'ir-bosiq tovushda gapirib yuboradigandek tuyulib ketdi.

– Boshimni qay devorga urishni bilmay garangman, – deya hasratlanishda davom etdi Nechay chol. – Bundan ko'ra bo'ynimga sirtmoq solganim ming marta yaxshi edi. Kecha tunda birpasga ko'zim ilinibdi, bir payt qarasam, katakdan chiqib kelayotganmishtsan, qo'lingda bir g'alvir tuxum. Bunday qarasam, tuxum emas, endi yorib chiqqan jo'jachalar ekan.. Sen bo'lsang ularni bitta-bitta og'zingga solarmishtsan. Yeb turib, kamiga maqtab ham qo'yarmishtsan... Yo Rabbim! Uyg'onib ketdim, tushim ekan... Seni o'zimcha uyg'otmoqchi bo'libman, yo'qliging esimdan chiqib ketibdi. Paraskovyajon... Ruhing chirqillab yuribdimi?! – Nechay chol tag'in ko'zyosh qilishga tushdi. Ho'ngrab yuborsa bo'ladiimi! Etim jimirlab ketdi. Biram o'kradi-yey, odamni ezbordi: – E-e-e... uv-uv... Meni yolg'iz tashlab ketave-

rasanmi? Bu choli tushmagur endi qayga bosh uradi, deb o'ylamadingmi? Bir og'iz aytganing-dayam mayliydi, shahardan do'xtir yetaklab keldim... Ana, odamlar davolanyapti-ku. E yo'q, be yo'q, oyoqni uzatvording. Buni men ham eplay olaman... – Nechay chol burnini tortib-tortib ko'z-yoshlarini artdi, chuqur xo'rsindi. – U yoqlarda bir o'zing qiyalmayapsanmi? Ko'ngling tusasa bu yoqqa chiqavergin, xo'pmi? Tushlarimga kirasan. Mayli, tez-tez kirib tur, faqat odamni qo'rqiitvor-magin. Bir qarasang, jo'jalarni... yana kim bilsin, deysan... – Nechay bobo pichirlab gapirganidan gapining yarmini eshitmay qoldim. – Gunoh ish qilib qo'ymasammi, deb qo'rqaman-da... Nima qipti? Qazib olishgan holatlar ham bo'larkan-ku. O'sha Krayushkinoda bir kampirni qazib oliship-ti... ingrab yotgan ekan-da. Qabrini ochib oliship-ti... Shu ikki kundan beri quloq solaman, jimjitga o'xshaydi. Yo'qsa qazib olmoqchi edim... Aytish-laricha, odamni qattiq uyqu bosarkan, keyin uni hamma o'lib qolgan deb o'ylarkan, u esa o'lma-gan, shunchaki qattiq uyquga ketgan bo'larkan...

Bu gaplardan yuragim tovonimga tushdi. Emaklab tomorqadan chiqdim-da, bobomning oldiga chopib bordim va hammasini oqizmay-tomiz-may aytib berdim. Bobom egniga kiyimini tashla-di. Ikkovlashib tomorqaga o'tdik.

– O'zi bilan o'zi gaplashyaptimi yo o'zicha kam-piri bilanmi? – so'radi bobom.

– Kampiri bilan. Endi qandoq qilaman, deb maslahat solyapti...

– Tentirashiga o'laymi, qari tak. Go'rini ochish-dan ham toymaydi. Yo kayfi bormikin?

– Yo'q, ichvolsa ashula aytib, Xudoni eslab qoladi, – dedim. Cholning bu odatini bilardim.

Nechay chol qadam tovushlarimizni eshitib, jim qoldi.

– Kim bor? – qat'iy ohangda so'radi bobom.

Nechay chol anchagacha indamay turaverdi.

– Kim bor deyapman?

– Senga nima kerak?

– Senmisan, Nechay?

– Ha, nimaydi...

Biz unga yaqinlashdik. Nechay chol tatarchasiga chordana qurib o'tirardi, bizga yovqarash qildi – noroziligi qovog'idan bilinib turibdi.

– Yana kim bor edi?

– Qayerda?

– Shu yerda-da... Kim bilandir gaplashding, o'zim eshitdim.

– Ishing bo'lmasin.

– Hozir kattakon kaltakni olaman-da, uyinggacha tirqiratib haydar solaman, ortingga qaramay ura qochasan. Oqsoqol bo'sang, aqlingni yeb qo'ydingmi nima balo... Uyat emasmi?

– Men u bilan gaplashhib o'tiribman, birovga xalal bermayapman.

– Kim bilan gaplashyapsan? U yo'q, kim bilan gaplashasan?! O'ldi-ketdi. Yerning tagida endi.

– U men bilan gurunglashyapti, men eshitib o'tiribman, – o'rlandi Nechay chol. – Birovga og'ir-yengili tushayotgani yo'q. O'zing-ku kelvolib quloq tashlab qo'ygan...

– Qani ketdik, – bobom Nechay cholni yerdan dast ko'tarib oldi. – Biznikiga kiramiz, menda

bir shisha qo'lbolasidan bor, maydalaymiz, zora yengil tortsang.

Nechay chol qarshilik qilmadi.

- Chidolmayapman, jo'ra, holim qolmadi.

Nechay chol oldinga tushvolib, qoqilib-qoqilib ketar, nuqul yengi bilan ko'zyoshlarini artardi.

Bu oshning tagiga bosvorsa bo'ladigan oriqqina, g'am adoyi tamom qilgan chol bechoraning ortidan qarab turib, ko'zimga yosh kelaverdi, lekin bobom gardanimga tushirib qolishidan hayiqib unsiz yig'lardim. Boyaqish Nechay boboga yuragim achishib ketdi.

- Bu bevafo dunyoga kimga oson bo'pti deysan? - deb bobom unga taskin berardi. - Ko'z ochib ko'rganingni yerga qo'yish osonmidi senga? Judolikdan dili kuyganlarning hammasi marmumlarning yoniga qo'yilaversa nima bo'ladi? Unaqada men necha marta go'rga kirishim kerak edi? Bardam bo'l. Na iloj, chidaysan-da endi.

- Rahmim kelyapti-da unga.

- Bo'lmasam-chi, rahming keladi-da... Hech kim sendan yozg'irayotgani yo'q. Lekin bu dunyoda o'lim deganlariga chora yo'q. Sabr qilasan endi, qo'lingdan kelgani shu. Bir kun kelib o'zing ham omonatingni topshirasan. Chida.

- Aqlim yetib turibdiku-ya... ammo manavi yerim yonib ketyapti, qaniydi alamim bosilsa. Ichib ham ko'rdim, foydasi bo'lmayapti.

- O'tib ketadi. Petka nega kelmadi? Anavilari-ku olisda, lekin bunisi-chi?

- Xizmat safariga ketibdi. O'h, bunchayam og'ir bo'lmasa, yoshulli!.. Yetti uxbab tushimga kirmagandi-ya...

— Dunyoning ishlari shunaqa ekan: odam hayotligida bilinmaskan, o'lganidan keyin esa ohvoh qilishga tushamiz. Ammo-lekin g'am-alamdan aqlni yo'qotish ham... turgan-bitgani ahmoqlik.

Ushbu daqiqalarda men uchun haligi sokin, oydin tun o'z fusunkorligini yo'qotgan, miyamni band etgan sohir xayollar ham allaqayoqqa gum bo'lgan, boyagi tushuniksiz sevinchdan nomnishon qolmagandi, axir, bir munis ayol rixlatga ketdi.

Yuzlari qoshiqday mana shu cholning qayg'usi nafosatli olamni panalab qo'ygandi. Faqat miyanga achchiq shuvoqning gurkiragan isi o'rnashib qolgan.

Bobom Nechay cholni biznikida olib qoldi.

Ikkovlon polga ko'rpa to'shab, ustlariga po'stin tashlab olishdi.

— Senga bir voqeani aytib bersam, — shivirlashga o'tdi bobom. — Mana sen urushga bormagan-san — u yoqlarda ne savdolar bo'lganini bilmaysan... U yoqlarda, jo'ra... bundan beshbattarlari bo'lgan, men senga aytsam. Xullas, gap bunday: men sanitar bo'lib xizmat qilardim, yaradorlarni front ortiga tashirdik. Shu desang, bir kuni yo'ldamiz, studebekkerimiz liq to'lgan. Hammasi ingraydi, sekinroq haydashimizni so'raydi... O'zim qatori haydovchimiz Mikolay Igrinev imkon qadar ravon haydashga intiladi, imillab ham bo'lmaydi: chekinyapmiz axir. Muyulishga yetganimizda, oldimizdan bir yengil mashina chiqib qoldi. Ofitseri to'xta degandek qo'l silkiydi. Bizga esa azroilning o'zi yo'ldan chiqsayam to'xtamaslik qat'iy buyurilgan. To'g'ri-da: u yoqda yana qancha yaradorlar

yo'lizimizga intiq kutib yotibdi. Hujum qilayotgan bo'lsak ham mayli edi, chekinyapmiz axir. G'ir etib o'tib ketdik. Yengil mashina bizni quvib o'tib, yo'lga ko'ndalang turvoldi. Ofitserning qo'lida nagan. Ilojsiz to'xtadik. Keyin ma'lum bo'lishicha, ularning bir ofitseri og'ir yaralangan ekan, boshqa tomonga ketishlari kerak ekan. Haligi qo'lida nagan ushlagan ofitser bilan bir amallab yaradorni kuzovga olib o'tdik. Mikolay kabinada o'tiribdi: uniyam yonida bir kapitan bor, ahvoli chatoq. Mikolay bo'lsa uni bir qo'li bilan ushlab olgan, bir qo'lida rul. Qisqasi, amal-taqal qilib joylashdik. Haligi og'ir yaralangani inqillaydi sho'rlik. Boshko'zi qonga belangan, qotib ham qolibdi. Yetkazib borolmasak kerak, deb o'yladim o'shanda. Yoshgina yigitcha, leytenant ekan, soqol-murtini endi qirtishlay boshlagan bo'lsa kerak o'ziyam. Boshini tizzamga oldim – harna yengil bo'lsin, degandim, lekin qayoqda!.. Gospitalga yetib keldig-u, yaradirlarni tushira boshladik... – Bobom o'h-o'hlab, jim bo'lib qoldi. Popiris tutatdi. – Mikolay ham qarab turmadid... Yordamlashdi... Unga leytenantni uzatdim... „Tamom, joni uzildi“, dedim. Mikolay esa leytenantning yuziga shundoq tikildi-yu... O'h-ho'... – Yana jimlik. Uzoq jim qolishdi.

– Nima, o'g'li ekanmi? – sekin so'radi Nechay chol.

– O'g'li ekan.

– Ey Xudoyim!

– Ihm... – Bobom burnini qoqib-qoqib tashladi.

– Keyin nima bo'ldi?

– Nima bo'lardi, ko'mdik... Komandirimiz Mikolayga uyiga borib kelishi uchun bir haftaga

javob berdi. Ketdi. Ammo-lekin xotiniga o'g'lini ko'mganini aytmabdi. Hujjatlari bilan ordenini yashirib qo'yibdi, bir hafta uyida turib, keyin qaytib keldi.

– Nega aytmabdi?

– Aytib bo'larkanmi?.. O'lganini bilmasa, bedarak ketdi deb eshitsa, jilla qursa ilinji bo'ladi, bundoq deb aytishga esa... til bormaydi. Necha marta og'iz juftlabdi-yu, miq etmabdi.

– Yo Rabbim, yo Rabbim, – yana chuqur xo'r-sinib oldi Nechay chol. – O'zi tirik qoldimi axir?

– Mikolami? Qaydam, keyinchalik bizni har tarafga tarqatavorishdi... Xullas, mana shunaqa gaplar. O'z jigargo'shasini-ya! Aytishga oson. Yoshgina yigit-a... ketdi.

Chollar og'izlariga tolqon solvolishdi.

Derazadan ichkariga oyning mo'l-ko'l, lekin sovuq tantanali yog'dusi quyilib turibdi. Charaqlaydi-yal... Quvonchmi, qayg'umi, farqi yo'q – oy nur sochaveradi!

Rus tilidan
Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi

BAYRON SINTRA SOHILIDA

Bayron Sintrada hamrohlari bilan kelisholmay qoldi. Ular qaysi yo'l bilan ortga qaytish masalasi-da tortishib qolishdi. Bunday kezlarda xizmatkor-lari aksiga olganday hamisha g'animlariga moyil-lik ko'rsatishi Bayronni yana ham darg'azab qildi.

Xiyobon darvozasidan o'tishlari bilan u yo'lni boshqa tomonga soldi. Yakshanba. Qayerdandir musiqa eshitiladi. Jahldan tushish uchun mas-xara bo'lishini tamomila unutgancha cho'loqla-nib likanglagancha zinalar bo'ylab yugura ketdi. Uning nigohi qarshisida tobora yangi nishabliklar, yo'lakchalar va beqiyos manzara paydo bo'lardi: dengiz qurshovidagi yashil adirlar ko'm-ko'k os-mon ostida yashnab yotardi. Zinalardan chiqib borarkan, sira ham zo'riqmadni. O'zini yuqoriga ko'tarilayotgandek emas, balki parvoz qilayot-gan lochindek his qildi. Birorta ham tirik jon yo'q. Hatto qushlar ham. U emin-erkin tin olar-kan, yolg'izlik allalaydigan osuda makon ham bor-ekan-ku, degan fikr ko'nglidan kechdi.

Olisdag'i bog'-u roq'lar, ulardan ham narida yastangan dengiz yaqqol ko'zga tashlanadigan qal'a devoriga tutash yo'l bo'ylab tentirab yur-ganda ilkis bir qizga duch keldi. Qiz mo'jazgina tashlandiq va ship-shiydam tosh qorovulkxona,

qal'a devori yonida turardi. U go'yo noma'lum topshiriq bilan qayerdandir yuborilganday, qo'q-qisdan ro'parasida paydo bo'ldi. Qizning oppoq ko'y lagi shamolda mayin hilpirardi. Chuchvaraday burni-yu quyoshda qoraygan chehrasidan samimiyat yog'ilardi. Tiyrap ko'zlarida shijoat va shod-u xurramlik jo'sh urardi. Qiz notanish kim-saga tortinchoqlik bilan asta salom berganday bo'ldi, holbuki ovozi va nigohida salomlashishdan ko'ra ko'proq mazmun mujassam edi, lekin buni Bayron anglay olmadi. U qizning salomiga alik olib to'xtadi. Qiz hamon joyidan jilmasdi.

Qiz niholday ohista sollanarkan, quruqshagan lablarini yalarkan, nim tabassum bilan Bayronga tikildi. Portugal qiz-juvonlarining bejirim lablari yurakka g'alayon soladi! Aqiqday tovlanadi. Yetilib, tasodifan yorilgan mevaga o'xshaydi. Kavkaz qizlarining lablarini biroz eslatgani bilan, aslida, lablarining chekkalari yaproqlar bandiday ko'zga yaqqol tashlanmaydi. Bayron mavhum niyatli kimsa kabi juda kulgili va qat'iyatsiz ko'rinyotgan bo'ssam kerak, deb o'yladi.

U odmi va xotirjam qiyofa kasb etishga urindi. Azaldan axtarib yurgan sirli manzarani nihoyat mana shu yashil yuksaklikda topganday bo'ldi.

Tog' havosi va ro'parasidagi qizning tarovati unga cheksiz ilhom baxsh etdi. Cho'ponlardan qolgan gulxan kuli tagidagi cho'g'dan o'rmonga o't ketganday, Bayronning qalbida ham allaqanday sirli ishtiyooq alanga oldi. Hatto visol onlari ham baxsh eta olmaydigan, faqat sirli tushlarda gina nasib etadigan g'aroyib zavq-u shavqdan qalbi ilk

daf'a junbishga keldi. Yuragi qinidan chiqquday gupullab ura boshladi.

Lekin tezda ehtirosini jilovladi, ro'parasida-gi parivashga mahliyo bo'lib tikila boshladi, az-baroyi andisha va jur'atsizlik iskanjasida qoldi, ayni paytda koinot gultoji bo'lgan bashar farzandiga qalbida cheksiz hurmat-ehtirom mavjlandi.

Xayolidan shunday fikrlar kecharkan, goh bir joyda haykalday qotib qolar, goh esa qizning atrofida parvona bolardi; o'z navbatida qiz ham undan nigohini uzmas, go'yo har bir harakatini yutoqib kuzatardi. Bayron nimadir deb pichirlardi. U gapiryapman, qizga xushomad qilyapman, deb o'ylardi. Ular bir-biriga shu asno tikilar, parvona bolardi; odatda, biroz kichikroq va yirikroq ikki jonivor bir-biri bilan payvasta bo'lisdan oldin goh yaqinlashib, goh yiroqlashib, bir-birlarini shu asno kuzatadilar, hadiksirab hidlaydilar. Bayron qizga har qancha mahliyo bo'lmasin, aql-u hushini yo'qotmadi. Ayni paytda ko'zlarining beg'ubor oqi-yu munchoqday qorachig'iga sinchiklab razm soldi. Orada ma'lum masofa borligiga qaramay, sambitday qomati va shaloladay sochlaring ifori, hatto oftobda unniqjan oq ko'ylagining atri mast qilganday bo'ldi. U qayta-qayta shaydo bo'ladigan bo'z yigitga o'xshardi, qolaversa, qalbidagi qaynoq kechinma shunchalar jo'shqin ediki, goh qanot baxsh etsa, goh daf'atan mahv etardi. Nihoyat, endilikda chinakam hayrat va loqaydlik nima ekanini teran anglab yetgandi.

Yo'laklar singib ketgan qoramtilr butalar orasidan Bayron daf'atan odamlarning ovozlarini eshitdi. U shirin uyqudan uyg'onganday cho'chib

tushdi va ajablangan qiz bilan xayrlashishni ham unutib, baland-u past zinalar bo'ylab yana ildam-lab ketdi.

U yolg'izoyoq so'qmoqlar-u nishabliklar bo'ylab yana uzoq sayr qildi. Bu yo'laklar-u nishabliklar bo'ylab yana o'zi ancha oldin chiqib ketgan qasr-ga qaytib keldi. Hamrohlari uni tosh o'rindiqlarda ko'zлari to'rt bo'lib kutib o'tirardi.

Lissabonga Bayronning taklifiga zid ravishda avval kelingan yo'l bilan qaytishdi. Bayron og'ziga tolqon solib olganday lom-mim demasdi. U qo'zichoqday yuvosh tortib qolgan, qolaversa, nainki hamrohlariga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lar, balki har bir ashyoni avaylab qo'lgalaridi.

Keyingi kunlar uning hayotida eng osuda va go'zal tushday kechdi. Dengizga tikilib o'zi bilan o'zi gaplashayotganining guvohi bo'lgan lissabonlik yalangoyoq baliqchilar uni telbag'a ham chiqarishdi, lekin baliqchilar yanglishgandi. Bayron yolg'iz emasdi, ayni paytda arvoхlar bilan gaplashgani ham yo'q. U Sintrada yashaydigan, ko'z-qulog'i, qarindosh-urug'lari, ism-sharifi-yu boshpanasi ham bor siymo bilan sirlashgandi. Lekin muhim bu emas. Bayron bu siymoni biron-bir meva yoki qimmatli tosh nomi bilan atamoqchi ham bo'ldi, lekin g'aroyib qiyofasiga rahna soladi va ranjitadi, degan o'yda bu fikrdan voz kechdi. Nihoyat, uni xayolan Jajji xilqat deb atay boshladи. Biroq uning ismini ovoz chiqarib aytishga ham botinmasdi. Faqat xayolan takrorlab, lablarini qimtigancha entikardi, xolos. Uni shu asno

qalbida avaylar, ismini takrorlagani sayin sharob ichganday mast bo'lardi.

Bayron ko'p o'tmasdan Lissabonni, Portugaliyani tark etdi. Boshqa o'lkalarni kezarkan, odamlar bilan suhbatlashish, ayollar bilan hazil-huzul qilish asnosida qalbidagi sirni oshkor qilmas, aksincha, avaylab saqlardi, so'zlar, ashyolar va qiyofalar zamirida ko'z qorachig'iday avaylar, pinhona eslab huzur qilardi.

Bayron gaplardagi ayrim so'zlarni u bilan chog'ishtirar, bunday so'zlarni boshqalardan eshitgan pallalarda ham qalbi beixtiyor zavq-u shavq bilan to'lardi. Uning imzosida Sintra tepaligidagi qizni eslatadigan, arang ko'zga tashlanadigan nuqtaday chiziqcha paydo bo'ldi. Limon, tuz, yog' va gulxayriga ko'zi tushganda uni eslardi. Yigirma chog'li odamlar davrasida ovqatlanayotgan kezlarda ham bir chimdim tuzga nazar tashlab, yam-yashil Sintra bilan Jajji xilqatni ko'z oldida gavdalantira olardi. Lekin qiz-juvonlarning qiyofalari, gap-so'zları va xatti-harakatlariga har qancha sinchiklab nazar solgani bilan Jajji xilqatning tirnoqcha ham nishonasini topa olmasdi.

Xotirasida barhayot Jajji xilqat uning dardiga davo bo'lardi, shu bois u bilan bog'liq xotiralarni barcha uchrashuvlar, ayollar va hayotdan ham ajo bilardi. Dengiz sohillarida yolg'iz qolgan kezlarda esa hatto tasavvur ham qilib bo'lmaydigan chinakam mojiza sodir bo'lardi: Sintradagi lojvard sohil beqiyos olamga aylanardi, cho'loqlanib yugurishi – sarbaland parvoz tusini olardi, o'sha uchrashuvda qalbida jo'sh urgan ehtirosli ke-

chinmalar esa oshufta ruhning bokira tuyg'ularga do'nardi.

G'aroyib sarxushlik Bayronni bir yilcha bezovta qildi. Keyin tong arafasidagi arvoхlar va tushlar singari Jajji xilqat qiyofasi tobora xira tortib so'na boshladi, nihoyat, ortiq bezovta qilmay qo'ydi. Bayron o'zini yetimday g'arib sezal boshladi. Qalbida shiddatli hayot girdobi yana qaynab toshdi, uchrashuvlar va to'qnashuvlar yana bir-biriga zanjirday ulanib ketdi, ular bilan yonma-yon alamzada nafrat ham qora tug'ini baland ko'tarib borardi. Sintradagi sirli lahzalardan keyin bunday qismat yana ham zahmatli va alamli tus oldi, chunki endilikda unga turmushning yovuz qoidalari orzular saltanatiga ham daxl qiladiganday va ulardan qutulib bo'lmaydiganday, najot yo'qday tuyulardi.

*Rus tilidan
Abduhamid PARDAYEV tarjimasi*

Yuxan FALKBERGET

QISMAT

Tun yarimlab borardi. Tog'lik yigit Ber Enason keksa shifokorning uyi oldida g'amga botib turardi. Sovuq qish osmonida yulduzlar ham titrayotgandek tuyulardi. Ayoz chorqirra derazalarni ham billur naqshlar bilan bezagan. Olisdan olis yo'lni bosib kelgan yigit sovqotganini, nihoyat, endi angladi.

Shinam xonadon uni issiq bag'riga oldi. Quruq qoraqarag'ay o'tinlari alanga olib, oftobday isitar, qizigan pechka esa afsonaviy farishta kabi nay chalayotganga o'xshardi. Biroq bu farishta ayni pallada hech qanday yaxshilikni va'da qilmasdi.

Uy haminqadar jihozlangandi. Devorga ilingan bir juft qilich ostidagi suratda, yozuv stoli ustida lipillaryotgan sham nurlari jilva qilardi. Bu qilichlar bir paytlar portretdag'i siymoga tegishli bo'lgan. Aytishlaricha, bu bahodir o'z davrida ko'plab mamlakatlarning qiz-juvonlarini ishq o'tida kuydirgan. Bemorlar halovatini buzmagan kezlarda do'xtir qilichlarga tikilib xayol surishni xush ko'rardi.

Ber Enason o'tirgani botinmadi. Faqat tortinchoq bo'lgani uchun emas. Bug'ularning shoxlariidan ko'z uzmay, po'stak to'shalgan yalang chanda uzoq yo'l bosib kelgan yigitchaga bejirim g'ilofi uch oyoqli stulga o'tirish noqulay tuyuldi. Keksa

do'xtir buni payqamadi, u o'z ishiga shu qadar berilgandiki, yigitga iltifot ko'rsatish xayoliga ham kelmasdi.

Ber imkon boricha tez qaytib ketishi kerak: Sutoxaugen yaqinidagi olis kulbada sevgan ma'shuqasi Kletta og'ir xasta bo'lib yotibdi. Klettani tirik ko'rish nasib etarmikan, degan shubha uning bag'rini o'ttardi. Ko'zyoshlarini arang tutib turardi: Klettaning visoli nasib etadigan munavar ayyom nahotki toabad armon bo'lib qolsa?! Bu nurli ayyomga ularning ikkovi ham juda-juda intiq edi. Alamdan o'kirib yubormasa bas. Chuqur-chuqur nafas olsa...

Shimolda, tog'lar yonbag'rida nima uchundir hamisha shunday bo'lar, qishda kimdir vafot etardi. Bu muqarrar qismat tusini olgandi. Biron kimsaning kuni bitgani hamono, cherkov qo'ng'i-roqlarining sadolari samoga tutash tog'larni ham larzaga solardi. Bu gal, aftidan, ma'shuqasi Klettaning kuni bitadigan ko'rindi.

Do'xtir bemor uchun dori tayyorlay boshladi. Bu juda qo'li yengil do'xtir edi. Hech kimdan yordamini ayamas, shu bois butun o'lka ahlining mehrini qozongan yagona odam edi. Ko'plab odamlarning hayotini saqlab qolgan do'xtir keksaligiga qaramay, hamon yordamga oshiqar, bemarlarni sidqidildan parvarish qilardi. Katta-yu kichikni tug'ishganiday ko'rardi. Aholi ham mehribonchilagini munosib qadrlar, uning portretini istalgan paytda afsonaviy qahramon surati yoniga ilishga tayyor turardi. Do'xtir, eng muhimmi, kasb-u kori orqasidan mo'may daromad qilishni sira o'ylamasdi.

– Bemor xotiningmi, Ber Enason? – so'radi do'xtir.

Savol yigitning bag'rini o'rtab yubordi. Ber boshini quyi soldi.

– Shunday desa ham bo'ladi, – entikib dedi u.

Do'xtir o'ta o'tkir hidli suyuq malhamni tomchilatib shisha idishchaga quyardi. Asta tomayotgan tomchilarni erinmasdan birma-bir sanardi. Nihoyat, do'xtir shisha idishning og'zini yopdi. Malham tez yordam berishi uchun uni bemor-ga qanday ichirish kerakligini yigitga batafsil tu-shuntirdi.

– Umid qilamanki, ma'shuqang tuzalib keta-di, – deb qo'shimcha qildi.

– Rahmat!

Ber shisha idishni tez chontagiga joyladi. So'ng charm hamyonini olib, stol ustiga bitta kumush tanga qo'ydi.

– Tezroq yo'lga tush! – dedi do'xtir va unga tangani qayta uzatdi.

– Roziman, olavering, – dedi Ber. U qirov qop-gan eshik kesakisiga qo'li bilan suyanib turardi.

– Qaytarib ol deyapman senga! Nikoh to'yini o'tkazishning o'zi bo'lmaydi! – dedi do'xtir mehr bilan.

Ber hamon eshikka suyangancha turardi.

– Zora shu dori bilan tuzalib ketsa, – u shunday deb do'xtirga savolomuz tikildi.

Uyda osoyishtalik hukm surardi. Derazalarda oy nurlari shu'lalanar, tashqaridagi sovuq ich-kariga ham asta-sekin kirib kelayotgandek edi.

Do'xtirni xayol olib qochdi. Ayni shunday qish tunida oqimtir-sarg'ish ulovdag'i chavandoz

xotinidan toabad judo qilganini esladi. Ha, ayni shunday kechada...

– Har daqqa g‘animat, bora qol, o‘g‘lim! – deya yigitga samimiy oq yo‘l tiladi ko‘zoynakli keksa do‘xtir.

Va Ber tun qo‘ynida arvoh kabi g‘oyib bo‘ldi.

* * *

U tog‘li voha bo‘ylab chanada yelib borardi. Oyning sovuq shu'lalarida qor kumushday tovlanadi. Yassi darani ayoz kishanlab olgandek. Kletta xastalanib yotgan kulba ayni daraning ponyonida, Sutoxaugenning ortida bo‘lib, Ber Enason yonidagi malham bilan o‘scha tomon oshiqardi. Klettaning o‘pkasi shamollagandi. Yetti kundan buyon xastalik bilan olishardi. Xastalik kuchaygan yettinchi kecha.

Yigit avvaliga shamolday uchdi. Keyin bug‘u holdan toya boshladi. Chana bechora jonivorga ancha og‘irlilik qilardi. Bunday imillab ketisha faqat keyingi kungina manzilga yetib borishi mumkinligini Ber angladi. U qo‘lidagi kaltakni bug‘uga o‘qtalgancha, bor ovozi bilan hayqirdi. Biroq hayqirig‘i osuda tog‘lar bag‘riga sassiz singib ketdi.

Tong bo‘zarganda u faqat Vargfelmannga yetib kela oldi. Nihoyat, qizg‘ish quyosh nurlari tog‘lar uzra yastandi. Kun boshlandi. Xira tortgan oy tog‘lar uzra inganday. Yulduzlar so‘nib, dara ustida ertalabki yorug‘lik o‘ynay boshladi. Vargfelmanndan kulbagacha yarim kunlik yo‘l qolgandi. Biroq bug‘u holdan toydi. U chanani arang tortib borardi. Ber es-hushini tamomila yo‘qotdi. Qo‘li-

dagi kaltakni qahr bilan o'ynatar, bug'uga bor zahrini sochardi. Qo'qqisdan jonivorni ura ketdi. Bug'u har zarbadan hushyor tortar, biroq charchoqni yenga olmasdi.

Ber Enason arslonday na'ra tortib, bor kuchi bilan bug'uga zarba berdi. Uning qichqirig'i qanchalar dahshatli bo'lmasin, tongoldi g"ira-shirada ojizona yangradi. Faqat ro'paradagi tog' qoyasi och qolgan bo'rining uvullashiday sovuq aks-sado qaytardi va yana sukunat cho'kdi.

Kletta esa o'z kulbasida, to'shakda yo'lga ko'z tutar, xastalikning yettinchi kuni boshlangandi. Sutoxaugenda kun boshlanmasdan oldin u bechora o'z kulbasida jon taslim qiladi. Nozik jis-midagi harorat so'nadi. Shundan keyingina oftob chiqadi...

– Hoy jonivor, ildamroq qadam tashlay qolsang-chi! – bug'uga qichqirdi Ber. – Kletta men uchun qanchalar qimmatli ekanini bilasan-ku! Yolvoraman senga! Ma'shuqam o'lmasligi kerak! O'lmasligi kerak, eshityapsanmi?!

U kuchdan qolgan bug'u bilan shunday dardlashardi. Jonivor esa qorga yotib olgan, iztirob to'la ko'zlari bir juft baliq tangasi kabi yaltirardi.

Ber Enason shiddat bilan chanadan tushdi. Bug'uning qoshida tiz cho'kkancha bo'ynidan quchoqlab shivirlay ketdi:

– Toychaday mitti bo'lgan kezlaringda Kletta seni qanday mehr bilan parvarish qilganini unutmagan bo'lsang kerak?

Jonivor boshini mardona ko'tardi, iliq oftob nurlari manglayida jilva qildi. O'rnidan turishga

urindi, biroq katta boshini yana majolsiz yerga qo'ydi.

– Xudo haqqi...

Ber bug'uni shoxlaridan tutgancha ko'tarmoqchi bo'ldi. Befoya. Yigit bug'uning yirik ko'zlariga bir nafas tikildi. Alamdan a'zoyi badani titrar, og'zi burishib ketardi. Ber pichoqni olib, bug'uga po'pisa qila boshladi:

– O'ldiraman, la'nati!

Lekin qo'rquvdan ilkis o'zini orqaga tashladi. Dahshatga tushdi. Yig'lagancha ortiga o'girildi. Bu jonivor xasta qaylig'iga yordam bera qolsa nima qilar kin-a! Qaylig'i hamisha muloyim va mehribon bo'lgan. Ber daf'atan qaylig'ini ko'rdi. U o'rmon chetida turar va siy whole dan nur yog'ilardi. Bir tutam yoz tuni poyoniga yetgan. Daraxtlarning yaproqlarida durday shoda-shoda shabnamlar. Sho'x jilg'alar shovullaydi. Bu shovqin-suronlar ostida qaylig'inining voha uzra yangrayotgan qo'shig'i eshitilmay qoldi.

– Klettani nahotki unutgan bo'lsang? – Ber yana bug'uning bo'yniga chang soldi.

Oftob esa cho'qqilar oralig'idan qilichday joy olib ulgurgandi...

Shunda Ber Enason keskin tizzalab joylashdi, ko'z ochib-yumguncha ham fursat o'tmay bug'uning baxmalday yungiga pichoq sanchildi. Yaralangan jonivor uzundan uzun xirillagancha o'rnidan turishga urinib tipirchiladi. Biroq jarohatdan qon otilar – ortiq hech majoli qolmagandi. Faqat jon taslim qilishgina qolgandi.

Ber qaddini rostladi. U jarohatga yopishgancha issiq bug'u qonini simira boshladi. Oyoq-ko'li

bir nafasda kuch-quvvat bilan to'ldi. Jonivordan nari ketib, tog'larga burgutday tikildi... Bu paytga kelib quyosh o'z manziliga, Sutoxaugen ortiga ham nur socha boshlagandi... U yana jonivorning jarohatiga yopishdi, issiq qonni to'yib-to'yib simirdi. Daf'atan bug'uning so'nggi marta titraganini sezdi. Jonivor o'lgandi...

Ber timdalangan yuzi dokaday oqargan alfozda archa butalari bilan qoplangan o'nqir-cho'nqirlar bo'ylab yugurib borardi.

Nafasi bo'g'ziga tiqilib qolsa ham yugurishdan to'xtamadi. Sutoxaugen hali juda ham olisda! Nazarida, tog'lar har qachongidan ham g'amgin ko'rindi. Qora terga botdi. Biroq hamon chopgani-chopgan edi... U shu tog'larda voyaga yetgandi, lekin ularni birinchi marta ko'rayotgandek edi.

Kun oxirladi. Quyosh ufqqa indi. Ber holdan toyib tiz cho'kkancha jilg'adan tashnaligini qondirdi. Botib borayotgan oftob nurlari suv mavjlarida jilvalandi.

Ber Enason boshini ko'targan edi, dastlabki yulduzga ko'zi tushdi.

Daf'atan qulog'i shuvulladi, oyoqlari chalishib ketdi:

– Tamom!

U cherkov qo'ng'iroq'ining ovozini eshitgandi. Qo'ng'iroq sadosi olis-olislardan kelardi. Bu – zavol sadosi edi. Kimdir vafot etgandagina shu asno qo'ng'iroq chalinardi. Shom ichra alamlı sadolar dara bo'ylab quzg'unday kezar, Ber Enason esa tayoqqa suyangancha tosh qotib tinglardı.

*Rus tilidan
Abduhamid PARDADEV tarjimasi*

MENING ATIRGULIM

- Kim bilan, axir – u?
- Bir yosh yigit. U bilan qizing aeroportda birga edi. – dedi Karteret xonim erini tinchlantirish maqsadida. – Endi damingni ol...
- Xona derazasidan kumushdek tovlanib oy mo'ralardi.
 - Nega o'shandayoq menga aytmadinglar? – janob Karteretning jahli chiqdi.
 - Sen u janobni ko'rgansan. Qizimizni kutib olgani chiqqanimizda o'sha yerda edi-ku?
 - Eslolmayapman, – boshini qashladi ota.
 - Eslab ko'r. O'shanda uning bosh kiyimiga e'tibor bergansan – och yashil shlyapa...
 - E, ha, esladim. Bu haligi... lekin u qizimizga mos emas-ku? Yoshi ancha kattaydi.
 - Yigirma sakkiz yosh, azizim. Endi uxlay qol...
 - Uxlolmayapman, – uf tortdi janob Karteret. – Soat tungi uch, men esa haliyam bedorman.
 - Harakat qil. Ko'zingni yum, hech nimani o'ylamay yot.
- Iyul tuni sehrli edi. Tashqarida daraxt yaproqlari chapak chalardi. Bu tovush mashinaning signalidek eshitildi-yu, janob Karteret shart o'rnidan turdi. Ammo adashganini angladi.
- Qayoqqa? – xotini so'radi.

— Pastki qavatga. Biror nima ichib chiqay. Oy yorug'ida uxlolmayman, bilasan-u... uning ustiga juda issiq.

— Oyog'ingga shippagingni ilvol, — ogohlantirdi ayol.

U oshxonaga kirib suv ichdi, iliq ekan. Keyin orqa eshikdan bog'ga chiqdi. Oy nurida atirgullari oltindek tovlanyapti. Janob Karteret gullarining har biri bilan qadrdon. Ularni juda yaxshi tushunadi, dardlashadi. Mana, qizil, oq, sariq rangdagi jilmayayotgan, shabnamdan ilhom olib kuylayotgan atirgullari...

Ota osmonga tikildi, oy ulkan yorug'lik manbayi. Shu payt aldoqchi yaproqlar yana qarsak chaldilar. Bog'dagi bedor atrofga alangladi. „Eh, Sue... qayerdasan? Nima qilyapsan? Hech bunchalik kechikmasding-ku?“

Syuzi. Otasi uni, odatda, Sue deb chaqirardi. Arazlab qolgan vaqtidagina Syuzi derdi. Uch hafta burun Suening o'n to'qqiz yoshini bayram qilishdi. Syuzi uchun eng katta sovg'a Shveytsariyaga uch haftalik sayohat chiptasi bo'ldi. „Qanday yoqimtoy qiz-a, bizning Syuzi“, dedi yig'ilganlar suyunib. „U juda chiroyli bo'lib ulg'ayibdi. Shveytsariyaga mustaqil ketayotgani-chi? Qanday ajoyib“. Ammo janob Karteret qizining ulg'ayganini tan ololmasdi. U haliyam go'dak-ku, axir? Sayohatga bir o'zi chiqishiga ertamasmidi hali?

Cherkov soati uch yarimni ko'rsatib bong urdi. Mashina signali ham quloqqa chalindi. Ota bu safar adashmagan edi.

„Juda kech, yosh xonim“, o'ziga o'zi gapirdi u. Mashina yeldek uchib ko'chalari tomon burildi.

Ota panaga yashirindi. O'zini ko'rib qolishlari ni istamasdi. U pijamasini tushib ketmasin deb mahkam ushlab (chunki u ancha katta edi), oshxonaga pusib kirdi. Shoshib zinadan chiqmoqchiydi, shippagi toyib ketdi. U yerga o'tirib qoldi. Tashqariga quloq soldi. Jimjitlik. Mashina uy yonda to'xtamadi, shekilli. Otaning yuragiga g'ulg'ula tushdi. Ko'cha boshidagi xavfli burilmani esladi. O'tgan kun o'sha yerda yo'l halokati yuz bergandi. Juda jiddiy to'qnashuv bo'lgandi-da, o'ziyam. „Balki, Syuzi bilan o'sha yigit ham... yo'q, yo'q, ishqilib unday bo'lmasin“. U kallasidan noxush o'ylarni quvmoqchi bolardi. Fikrini chalg'itdi. „Kim bo'ldiykin bu yigit? Uning Suega munosibligini qayerdan bilaman? Ehtimol, u uylangandir ham. Yoki jinoyatchi bo'lsa-chi?“ Janob Karteret notanish bu insonni yomon ko'rib qoldi. Ko'ngilda hadik bilan yana tashqariga chiqdi. Pijamasini ko'targancha yo'lka bo'ylab chopdi. Osmonga qaradi, oy yo'qolibdi. Keyin sal narida yonib turgan ikki chiroqqa ko'zi tushdi. Bu mashinaga tegishli edi. U to'xtab turardi. Ichkarisida qizi o'tiribdi. Balki, yonlariga borib Syuzini chaqirsamikin? Lenkin u Sue emas, boshqa qiz bo'lib chiqsa-chi? Qizi bo'lgan taqdirda ham otasining bu ahvolini ko'rib nima deb o'ylashadi – axir, tungi kiyimi issiqlidan ho'l bo'lib ketibdi-ku? „Qo'shnilarim meni ko'rissa nima deyishadi? Hoziroq uyga kirib uplashim zarur. Nega buncha xavotirlanmasam? Qizimning yoshligida ham bunchalik qo'rqmagandim“. Ota ortga burilib qaytishga chog'landi. Ammo mashina g'iyqillashidan yana ortiga qaradi.

U shoshib yo'lkadagi daraxt panasiga o'tdi. Mashina uni ko'rmay o'tib ketdi. „Bu Syuzi bo'lsa kerak“. Janob Karteret uyi tomon yura boshladi. Uzoqdan Suening mashinadan tushganini ko'rdi. U chiroyli uzun sariq ko'yakda edi. „Qanday ajoyib-a, Sue“. Syuzining nozik ovozi eshitildi.

– Ko'rishguncha. Ha, albatta, yaxshi o'tdi... rahmat.

„Men hozir bildirmay orqa eshikdan kirib olishim kerak. Keyin yaxshiroq kiyinib tushaman“. Shu payt mashina keskin ortga qaytdi, u berkinishga ulgurmay qoldi. „O'zingni qo'lga ol, u seni tanimay o'tib ketadi“. Bir necha soniyada mashina qarshisida to'xtadi.

– Kechirasiz, siz janob Karteretsiz, shundaymi?

– Ha, shunday. – u beparvo gapirishga urindi.

– O, men Bill Jordonman. Kech qolganimiz uchun meni kechiring, iltimos.

– Syuzidan unchalik xavotir olmadingizmi?

– Yo'q, albatta.

– Onam bizni ko'p ushlab qoldi.

– Men sizlarni tomoshaga ketgansiz, deb o'ylagandim.

– Yo'q, janob. Biz onamnikiga kechki ovqatga borgan edik. Soat uchgacha karta o'ynabmiz. Onam karta o'yinini yaxshi ko'radi, vaqt o'tganini sezmay ham qolibmiz.

– Xijolat chekmang. O'ylaymanki, vaqtingiz maroqli o'tgan.

– Juda yaxshi. Yana bir bor uzr.

– O, hechqisi yo'q.

– Rahmat, – yigit otaning nam pijamasiga qaradi. – Ha, bugun juda issiq tun bo'ldi-da, – dedi muloyim.

– Ha, men ham issiqliqdan uxlolmay ko'chaga chiqqandim.

– Endi dam oling, – jilmaydi u. – Xayrli tun.

– Xayrli tun.

Mashina joyidan jildi. Yigit qo'lini silkib xayrashdi. Ota buni aytishni lozim topdi:

– Biznikiga ham kechki ovqatga tashrif buyuring.

– Taklifingiz uchun tashakkur. Albatta, kelaman.

Janob Karteret yo'lka bo'ylab ketarkan o'yaldi. „Qanday ajoyib yigit. U menga juda yoqdi“. So'ng bog'iga ko'z tashladi. Atirgullari hamon jilmayardi. Yangi ochilgan qip-qizil g'uncha hayotga tashna ko'zlarini unga tikardi. Avvaliga uni uzib, xotiniga bermoqchi edi, ammo fikridan qaytdi. Olislarda qayerdadir qushcha sayray boshladi...

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

MOVİY VA YASHIL

Yashil

Barra maysalarning zangor rangga bo'yalgan uchlari baxmal misol yerga bosh egib, ohista-ohista tebranishadi. Ko'zgu yuziga nogoh urilgan nur asta sirg'alar-u yam-yashil hovuz qa'riga singib ketar. Butun kun bo'yi tinib-tinmagan zilol suv atrofini qurshab turgan marmartoshchalar ustiga o'zining tip-tiniq, zangor tomchilarini sho'x-shodon sachratib hech charchamaydi. Shu chog'da baland palma daraxtiga makon qurgan yashil patli to'tiqush ham uzun dumlarini quyosh shu'lasida keng yoygancha, yaltiroq, zangori patlarini oftob tig'ida yanayam yaltiratib, o'zicha sollanadi.

Atrof benihoya go'zal, atrof yam-yashil. Butun tabiat zangorlikka burkangan. Birdan siz qo'lingizga katta toshoyna olib, uni silliq, taroshlan-ganday tep-tekis marmar-toshchalar ustiga solib ko'rgingiz keladi; shunda go'yo yam-yashil hozuzlar yaydoq sahro qumlari ichra muallaq qotib turganday, o'sha qum va suv oralab baland-baland o'rkachli tuyalar lapanglab kelayotganday, tub-tubida sip-silliq toshchalar ko'rinish yotgan zangori hovuz tegrasida uchlari qirrador qamishlar ko'kka bo'y cho'zgancha adl o'sib yotganini

ko'rasiz, bo'liq suv o'tlari orasidan unda-bunda oppoq-oppoq gullar ham yuz ochib qoladi, o'ynoqi qurbaqalar o'sha gullarning yaproqlari ustida sakrab-irg'ishlab o'ynashadi, butun kun bo'yи shu manzara takrorlanib turaveradi, bari yaralmishlar harakatda, ular dono tabiat sehri ila ajoyib va g'aroyib go'zalliklar yaratishadi. Ko'zgu ichidagi tasvirlar sizga ro'yirost so'zlaydi. Go'yo tasavvur va xayol birga kelishgan holda ajib tasvirlar zanjirini ulab boraveradi. Keyin oqshom kirib kela boshlaydi, kechki ko'lankalar hatto behudud mavjlanib yotgan ummon yuzasini-da bir zumda qora tusga bo'yab qo'yadi. Shunda maftunkor zangorlik ham o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi. Poyonsiz ummon sathida na bir kema, na biror qayiq suzib yurmaydi – tun butun hukmronligini bemalol yoyib yuborgan bo'ladi. Bo'm-bo'sh osmon ostida qadrdon sohilari tomon bemaqsad urilgancha kelib-ketayotgan kurashuvchan to'lqinlarning beozor shovqinigina osoyish oqshom tinchini buzib turadi. Tun cho'kadi, butun borliq moviy sukunat qa'riga g'arq bo'la di. Yashillik oromga ketadi.

Moviy

Fazo cheksiz. Fazo benihoya fusunkor. Moviylikka qorishib ketgan besarhad makondir u. Go'yokim behudud ummon bag'ridan ikki shoxli bahaybat mavjudot butun tevarak-atrofga suv purkab chiqqan-u o'sha sachratgan suvi bilan bir nafasda ana shu hududsiz samo ko'ksini moviy rangga bo'yab qo'yganday bo'lib ko'rindi. Qandaydir tilsim yashirinday bu yerda go'yo. Axir,

bu naqadar go'zal, naqadar maftunkor manzara! Moviylilik, moviy makon, moviy manzara... Hatto dengiz quchog'ida suzib yurgan jajji qayiqchaning rangi ham moviy, ajabo, naqadar latif ko'rinish! O'z sohillari tomon urilib-urilib, shoshilib-shoshilib kelib-ketayotgan yuguroq to'lqinlar mavjida-da ajib moviylik jilva etadi. Jami moviy lavhalar atrofida mitti-mitti qo'ng'iroqchalar yangroq jaranglab, misoli bu benazir go'zalliklarni ko'z-ko'z etib jaranglayotganday bo'lib tuyulaveradi. Sho'xchan shamollar moviy liboslarini yengil hilpiratgancha oppoq, momiq bulutlar atrofida aylana-aylana uchib-o'ynaydilar.

Butun ro'yizamin yam-yashillikka burkangan. Musaffo osmon esa tip-tiniq moviylik ila qoplan-gan.

Bu ikki egiz ranglar tabiatning eng a'lo husni, uning bor jilvasini oshiruvchi betakror olmos jilo-laridir.

Yashil ham, moviy ham biday go'zal. Olam go'zal.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

OQSOCH

Soat rappa-raso o'n bir. Eshik taqillayapti... Meni ma'zur tutasiz, bekam, sizni bezovta qilmadimmi? Yo siz uxlayotgan edingizmi, rostdan ham shundaymidi? Ammo men – xizmatkoringiz o'z xonimimga uyquga ketishlaridan avval bir piyola issiq qahva ilinishni ma'qul deb bildim, balki bu ishim sizga unchalik xush kelmagandir, ehtimol...

...Yo'q, yo'q, arzimaydi, sira ham arzimaydi, bekam. Axir, qahva tayyorlash mening eng od-diy va arzimas kundalik yumushim-ku. Bilasizmi, unga ham har doim kechki ibodatidan so'ng ana shunday xizmat ko'rsatardim, keksa bekachimizni aytayotirman sizga hozir. Katta xonim der edim uni. Buvningiz o'ta xudojo'y ayol edi. Har oqshom toat-ibodatini sira kanda qilmas, bot-bot menga ham: „Xudo jonomizni olguniga qadar bizlarga tava ba qilish uchun muqaddas muxlat berib qo'yaniga shukur qilaylik“, deb turardi. Bu kabi so'zlar unga juda xush yoqardi. Ammo birozgina xotirasi faromush, tez-tez parishonxotirroq bo'lib qolardi ham. Shu sababmi, esida saqlash uchun kichkinagina qizil daftar tutib olgan va muttasil shu daftariга o'zi uchrashgan, gaplashgan hamda unga birinchi marta yo'liqqan odamlar ism-sharifini yozib yurardi. Ha, ana shunday erinmagan bekach edi. Har

gal biror-bir notanish kishi bilan yuz ko‘rishib qol-guday bolsa, darhol menga: „Elen, azizim, men-ga boyagi daftaramni berib yubor, zudlik bilan bu odamning kimligini yozib qo‘yay, esimdan chiqib yurmasin tag“in“, deb tayinlar edi. Bunday kezlar-da men o‘zimni juda noxush sezardim, to‘g‘risini aytganda. Ochig‘i, bekach ba’zan bunday qiliqlari bilan biroz yovvoyiroq bo‘lib ko‘rinib ketardi ko‘zga. Bilasiz, buvingiz hech qachon yumshoq yostiq ishlatmas, hamisha qattiq gilam usti-ga mukka tushgancha, tizzalab o‘tirardi. Ammo men keksa xonimni qo‘yarda-qo‘ymay, bir amal-lab par adyol bilan o‘rab qo‘ymoqchi bo‘lardim, biroq birinchi harakatimdayoq, o, u menga qan-chalar dahshat hamda nafrat bilan yozg‘irib qa-raganini siz bir ko‘rsangiz edi o‘shanda! „Bizning Egamiz ham ana shu par matohingda o‘tirgan edi-mi, Elen?!” deya qattiq baqirib bergandi xonim ko‘zlarimga vahshat bilan tikilgancha. Men yosh edim-da, bekach so‘zlariga nima deb javob berib-man deng? Aytibmanki, „Yo‘q, aslo, unday emas, lekin o‘sha Egamiz u paytlar sizning yoshingizda bo‘lmagandir-da“, debman. Rosa qiyomat qo‘pgan-di o‘shanda. Keksa xonim xuddi aqldan ozgan-dek, telbalangancha yuzimga uzoq vaqt tinimsiz o‘shqirib tashlagandi. Ammo bekach baribir ju-da-juda yaxshi edi, buni o‘zingiz ham bilasiz-ku, xonim, shunday emasmi? Har kecha yotog‘iga kirib, ko‘rpasidan chiqib qolgan oyoqlarini yax-shilab o‘rab qo‘yar, menga teskari, yon tomoniga o‘girilib yotgan keksa xonim nigohlarini ko‘rolma-sam ham, negadir u menga shu ishim uchun ham minnatdor qarab turganini ich-ichimdan payqab

qolardim, ko'rpasidan tashqariga chiqib turgan oriq, keksa qo'llari har doim karavotidan pastga osilib yotar, xonim har tun behad darajada holsiz va madorsiz holda pinakka ketardi. Mana, endi esa siz xuddi o'sha buvingizga o'xshab uxlaysiz, vaqt o'tishini qarang-a, yana bir zumda tarix takror bo'lyapti.

...Ha, bekam, albatta, o'tmish voqealarining bari kechagidek esimda qolgan. Keksa xonim biram yoqimtoy ediki, men umrimda shu paytga qadar bunday keksa va ko'r kam ayolni ko'rma-gandim. O'zgacha bir zavq bilan uning siyrak va mayin oq sochlarni tartibga solardim, hatto peshonasi ustiga o'zi yoqtiradigan jingala patlarini ham ataylab tushirib qo'yardim, nimjon va kuchsiz bo'yniga esa bir shoda eng chiroyli to'q qizil kapalakgul dastasidan ilardim, negaki o'sha kapalak-gullar buvingizning jon-u dili edi. Ular hali-hamon o'zimning ham ko'z o'ngimda turibdi.

...Faqatgina eng so'nggi yilga kelib, keksa xonim o'zida bo'lmay, rostakamiga ahvoli xarob bo'lib qoldi. O'zingiz ham eslasangiz kerak buni. Albatta, xonim aslo yovuz xo'jayinga aylanib qolmadni, aksincha, u dunyodagi eng ajoyib beka edi. Lekin qarilik o'z hukmini uning bedor va zaif taniga tobora o'tkazishda davom etardi. Hatto ozgina esdan ham og'ganday edi. Bekach go'yoki o'ta muhim bir narsasini yo'qotib qo'yan kishidek uyning hamma yog'ida kalovlangancha kezib yurardi - zinalarda, tepada, pastda, hattoki, oshxonada ham uni uchratib qolardingiz. U misoli birov bilan jon achchig'ida urishib turgandek qiyofada to'xtovsiz g'udrangancha, tinmay koyingancha u xonadan

bu xonaga beorom ruhdek o'tib, sira tinchimasdi. Ba'zan keksa xonim bu avzoyida ayni yosh boladek bo'lib ko'rinar, „Men uni yo'qotib qo'ydim, uni yo'qotib qo'ydim men“, deya ezgin noligancha atrofga mo'l tirab qarab qo'yardi. „Yura qoling, bekam, o'sha narsangizni sizga men topib bera man hozir“, deya uni tinchlantirmoqchi bo'lardim. Biroq u injiqlik bilan qo'limdan mahkam tutib olardi-da: „Topib ber, Elen, menga o'sha narsam ni topib ber tezroq“, deya zorlangancha yuz-ko'zlaridan miltirab yosh oqizardi. Bekach meni yaxshi ko'rardi. Ammo bu hikoyam siz uchun nihoyatda qayg'uli-a, shunday emasmi, xonim?

...Yo'q, afsuski, yo'q, bekam. Keksa xonim keyin tuzalib ketolmadi, ming afsuslar bo'lsin. Sho'rlik bekachim oxiri miyasiga qon quyilib hayotdan ko'z yumdi. Eng so'nggi aytgan so'zi: „Ko'zlarimga boq, ko'zlarimga...“ degan o'tinch-u zori bo'ldi. Bilolmadim, o'sha damda xonim nimani nazarda tutib shunday dedi ekan? Buni men hech qachon bilolmadim.

...Yo'q, bekam, mening bu dunyoda siz - xonimlarimdan bo'lak boshqa hech kimim yo'q. Ota-onamdan juda yosh, hali hayot ma'nisini anglamagan o'ta g'o'r damlarimda judo bo'lgan man. Butun umri sartaroshlik bilan o'tgan buvam ham arzimas kichik xatoyimni deb meni ammam ning qo'liga topshirib yuborgan. Gap shundaki, men buvamning rozilgisiz o'tkir soch qaychisida u ayricha faxrlanadigan uzun sochlarimni kesib tashlagandim. O, bu adabsizligim uchun buvam ning qanchalar fig'oni falakka chiqqanini siz bir ko'rsangiz edi o'shanda! Aslida esa men buvamga

o'xshagim kelib, unga taqlidan ish qilib ko'rmoqchi bo'lgandim. Har kuni sartaroshxonasiga uzlusiz kirib ketadigan mijozlarning buvamning qo'lidan so'ng boshqacha qiyofaga qanday qilib kirib qolishi men uchun mo'jizaviy maroqning o'zi edi. Biroq sochlaramni unga indamasdan qirqib tashlaganim o'zim ham kutmagan darajada buvamning qonini qaynatib yubordi, u shunday g'azab otiga mindiki, oqibatda men uning uyidan bir umrga qochib ketishga majbur bo'ldim.

...Yo'q, xonim, buvam mening bu qilgan ishimni qaytib kechirolmadni. U hatto meni ko'rishni ham istamay qoldi. Keyin oyog'i doim oqsab yuradigan, yarimjon ammamnikiga borib yashadim. Bekam, endi u kunlarni gapirmay qo'ya qolay. Ular behad qiyonoqli kunlarim edi...

Yo'q-yo'q, bekam, noshukurlik qilayotganim yo'q. Shunchaki, sho'r qismatimning ayrim sahifalarini sizga oz-moz bayon etib berayotirman, xolos. Axir taqdir meni buvingiz kabi mehribon hamda muruvvatli, qolaversa, mana, siz kabi oqila va tanti qizga yo'liqtirdi-ku. Eslasam, rappa-raso o'n uch yoshimda bu xonadonga kirib kelgan ekanman. U paytlar bu uyda sizning jazzi xolavachcha va amakivachchalarining, xullas, rosa ko'p bolakaylor bo'lardi. Keksa xonim esa meni o'sha bolalarga qarab turishga buyurar, ularni sayrga olib chiqib, har kuni aylanitirib kelishimni tayinlardi. Ehhe, bu kichkinalar bilan o'ta qiyinchilik ichida ovora bo'lib yurishni siz bir tasavvur qilib ko'rsangiz edi! Ustiga-ustak, o'zim ham yosh bolaman, biram og'ir ediki! Lekin men nolimasdim, bor kuchim bilan ularni eplashga harakat qillardim.

Bolalar ko'cha boshida turadigan bir qari eshakning ustiga minib ko'rishga oshiqar, biroq bo'yliari hali past bo'lganligi uchun buni sira ham uddalay olmasdi. Istaklari benihoya kuchli bo'lgani uchun men yerga enkayib olardim-da, ularni tepamga chiqarib, o'sha yuksak orzulariga yetkazardim. Aslida bu yumushdan so'ng qattiq holdan toyardim, biroq mening boshqa ilojim ham yo'q edi. Bunday olib qaraganda, bu g'irt telbalikning o'zi, shunday emasmi? Eh, yosh bola qanchalar tentak bo'ladi-ya!..

...Yo'q, biroz adashdingiz, bekam. Men ham sevganman, ha, men ham umrimda birinchi va oxirgi marta sevganman. Shundoqqina pastki yo'lda, biz yashaydigan uydan salgina narida uning gul do'konni bo'lardi. Hozir aniq eslolmayman, biz u bilan qachon va qanday qilib tanishganimizni, ammo qisqa vaqt ichida juda qalin bo'lib, bir-birimizga nihoyatda o'rganib qolgandik. Garri va men muttasil arzimas narsalar ustida bahs qilar va janjallahshar, ammo bu to'polonlarimiz har qanday gina-kuduratdan xoli, shunchaki sevgi mojarolari kabi yoqimli va baxtiyorlik baxsh etardi. Gullar! Garri hamisha do'konidagi eng sara gullardan men uchun alohida-alohida tanlab, katta gulasta qilib olib kelishni bir kun ham unutmasdi. Ular nilufar, binafsha, nargis kabi bir-biridan go'zal gullar bo'lardi. Ha, hech shubhasiz, biz allaqachon turmush qurishga ahd qilib qo'ygandik. To'yimizni negadir aynan shanba kuni bolishini istab, haftaning shu kunini belgilab olgandik. Xonim, ehtimol, siz meni uyqusirayotgan deb xayol qilayotgandirsiz, ammo aslo unday

emas. Men bechoraginaning ham yulg'un umrida ana shunday totli, nihoyatda shirin kechgan damlari ham bo'lgan. Balki siz bunga hozir ishonolmassiz... Kunlarning birida Garri yashaydigan uyimizga jihoz tanlash uchun meni chaqirtirdi, aniq yodimda, seshanba kuni edi. Baxtga qarshi, keksa xonim aynan o'sha kuni o'zini juda yomon his qilayotgandi. Bekach ertalabdan beri tuz totmas, sahardan buyon yotog'idan biron soatga ham chiqmay, mazasi yo'q holatda yotgan edi. Albatta, uni bu ahvolda tashlab ketolmasdim. Boshimda ming xil o'y, andisha, iymanish va sarosima ichida xonasiga kirib kelarkanman, bekach meni ko'rgan zahoti yuzlari yorishib, mayin tabassum qildi. Umenden, bugun havo o'ta sovuq bo'lib ketdimi, deya bemorlarga xos shikoyat aralash so'rab qoldi. Holbuki, kun ajoyib kechardi, derazadan qu-yoshning siniq va sirli nuri to'kilib yotardi. Lekin men keksa xonimning hasratga to'la ko'zlari va og'ir xo'rsiniqlaridan bekamning sog'lig'i o'ta tang holatda ekanligini tuydim. Shu ondayoq o'z vazifamni yodladim, oqsochlik xizmatimga monand bo'ysunuvchanlik bilan o'z taqdirimni o'z qo'llarim-la o'zgartirishga rozi bo'ldim. Bekachning zorli nigohlariga so'zsiz termilgancha uning doimgidek ko'rpidan chiqib turadigansovqotgan oyoqlarini qaytadan issiq ko'rpa tagiga yaxshilab berkitgancha, boshimni quyi soldim.

— O, yo'q, buni qo'ysang-chi, Elen, bor, borib yosh yigitning istagini amalga oshir, menga ahamiyat berma, tentakkinam! Men qariyani deb bekorga sevganining ko'nglini qoldirma.

Bekachim bu so'zlarini ham shunaqangi yay-rab, o'zi xasta yotgan bo'lsa ham zo'rma-zo'raki tetiklik bilan zo'r berib, kuchanib aytdiki, men o'zimni tutib turolmadim.

– Yo'q! – dedim. – Yo'q, xonim. Siz bilan qolaman, hech qayoqqa ketmayman, ketolmayman.

Keksa xonim noxos yerga tushib ketgan ro'mol-chasini olaman deb bazo'r engashdi, shu chog'eski yo'tali xuruj qilib qoldi-yu, yana o'zini yostiqqa tappa tashladi.

– Ahmoqlik qilma, Elen, – dedi u xirillagan-cha, – hech mahal keyin pushaymon bo'ladigan ish qilma, qizaloq.

Ro'molchani yerdan oldim-u, yoniga cho'k tushdim.

– Yo'q, – dedim men qat'iy ovozda, – men tur-mushga chiqmayman, xonim.

– Yo'q! Zinhor-bazinhor bunday deya ko'rma! – endi bu gal bekachning tovushida o'zgacha, ona-larcha qaynoq mehr taftini his etib, birdan ko'zla-rimda yosh qalqidi. Men Garrini yaxshi ko'rardim, biroq ko'z ochib ko'rganim, o'z uyimdek bo'lib qol-gan bu xonadonni shunday osongina, yengillik ichida bevafolik va berahmlik hissi mavj urib tur-ganda, bir umrga tashlab ketolmasdim!

Eshik yonida anchadan beri poylab turgan Gar-ri yana taqillatdi. Shaksiz, u ichkaridagi bor gapni eshitgan va uqqan, ammo qismatimiz nihoyasini unga o'z so'zim bilan tasdiqlashimni kutayotgandi.

Qo'limga u yozgan bir bog'lam xat va tumshug'i uchida kichkinagina zanjiri bor kumush qush – Garri bergen hadyani oldim-u, qarshisiga dadil

chiqib bordim. Unga hatto biror og'iz so'z aytishga ham imkon bermadim.

– Ol, bularning hammasini qaytarib olib ket, – dedim Garriga iloji boricha qaramaslikka urinib. – Bari tamom bo'ldi. Senga turmushga chiqolmayman.

U hayron, benihoya g'amguzorlik ichida ko'zlarimga boqib turardi.

– Men o'z bekamni tashlab ketolmayman.

Tamom, shu so'z bilan eshikni qarsillatib yopdim-u, misoli murdadek hissiz, ne qilarimni bilmay bir muddat shuursiz turib qoldim. Butun a'zoyi badanim zir-zir titrar, yuragim beto'xtov gursullagancha o'tib ketayotgan shu g'animat soniyalarini mahkam tutib qolishni behuda istab yotardi. Ortiq o'zimni ushlab turolmadim, chidaloymasdan shartta eshikni ochdim, biroq men kutgan inson allaqachon ketib bo'lgandi. Ha, bekam, qaysidir ma'noda Garri men kutgan inson edi... Ammo biz – oqsochmiz va bizning burchimiz barcha orzu-umidlarimiz osmonini istasa kengaytirib yoki toraytirib yuborishga har qachon qodir. Lekin ba'zan vujud idrokka itoat etmay qo'yadi. Egnimda oqsochlik libosim, ifloslana boshlagan dog' fartugim bilan, oyoqlarimda esa xonaki shippak, zirillagancha yugurib ko'chaga chiqdim... yo'lga termildim. Meni ko'rgan odamlar jinni deb o'ylab ustimdan kulishdi...

...Voy, Xudoym! Nimalar qilib o'tiribman! Axir soat zang uryapti-ku! Men esa sizni, ardoqli bekam, shu mahalgacha uxlatmasdan olib o'tiribman-a, ahmoqligimni ko'ring! Nega meni keraksiz ming'irlashlarimdan to'xtatib, buning o'rniga maza qilib

uyquga keta qolmadingiz?.. Keling, oyoqlaringizni o'rab qo'yaman. Buvningiz ham hamisha ana shunaqa uxlardi. Bekach menga har gal yonidan chiqishimdan oldin: „Yaxshi dam ol, Elen. Bosinqiramay uxla va barvaqt tur“, deya alohida tayinlardi. Agarda hozir keksa bekach tirik bo'lib, shu so'zlarini aytsa, men nima qilardim ekan, bilmadim, balki yana tuni bilan baribir bosinqirab chiqar va ertalab xonimdan, odatdagidek, yana dakki eshitar edimmi, bilmadim...

...Yo'q, azizam, yo'q. Aslida men bu qadar xayolparast va devona emasman. Shunchaki, gohidha mana shunday o'yga cho'mib qolaman. Ammo bema'ni o'ylarning hech kimga xosiyatli joyi yo'q, to'g'rimi, bekam? O'y o'yni chaqiradi faqat. Umrni quruq xayol bilan o'tkazish g'irt telbalikdan boshqa narsa emas. Lekin, bekam, oqsochingiz ham anoyi qariyalardan emas, u aqlini topa oladi. Hecham adog'i yo'q sarsari o'ylar girdobiga cho'ka boshlaganimni sezgan on o'zimni qo'lga olamanda: „Bas endi, Elen kampir, bunaqa ahmoq qiz bo'lma! Basharti shu gul umringda o'y o'ylashdan ko'ra tuzukroq bir ma'ni topolmay qolsanggina, butun hayotingni shu quruq xayollaringga bag'ishla!“ deyman.

...Sizga xayrli tun tilayman, bekam. Avvaldan ma'zur tuting, lekin men bu kech ham yana bosinqirab chiqadiganga o'xshayman.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

XONADON

Bir vaqtlar eng jonajon do'stim bo'lgan Simon Radevinni yo'qlab, uning uyiga bordim. Biz Simon bilan qariyb o'n besh yil davomida hech yuz ko'risholmagandik. Ilgari menga hammadan ko'ra yaqinroq bo'lgan haqiqiy og'aynim mana shu Simon edi, biz u bilan ehhee, qancha-qancha uzun-dan uzun, osuda va farahbaxsh kechalarni birga o'tkazgandik. Simon, chindanam, bebafo yigit edi, odam bemalol suyansa bo'ladigan, eng ichki sirlarini ham qo'rqlmay ayta oladigan, hamma vaqt ziyrak aql bilan so'zlovchi, butun miyangizni faqat tafakkur bulog'i bilan sug'oradigan tengi yo'q, asl do'st edi.

Vaqt-soati kelib, ikki oshna bir-birimizdan bazo'r ayrilishimizga to'g'ri keldi: shuncha yil birga yashab, birga ishlagan, hatto bir narsadan zavqlanib, bir xil tushunchani baravar anglab yetgan, bir xil hissiyotdan titrab, bir xil ajoyibotlaridan qah-qah otgan yaqin odamingizdan birdaniga ajralib ketish oson emasdi. Biz bir-birimizni birgina ko'z qarash bilan ham tushunib ketaverardik, ha, bu shunday ajoyib do'stlik edi. Ammo na iloj, hayot har birimizni o'zining atab qo'ygan yo'llariga bepisand ravona qildi.

Keyin Simon uylandi, uning uylanishi juda-juda qiziq bo'lgandi. U o'ziga munosib bo'lмаган

landavur bir qizni o'zidan o'zi xotinlikka saylab oldi. Kichkinagina, rangpar bir qiz Parijga er izlab kelib qoldi-yu, bir nima qilib, do'stim Simonni qarmog'iga ilintirdi. Haliyam ishongim kelmaydi, qanday qilib shunday omi, fahm-farosati kalta, bo'shang bir oyimcha o'zining qiltiriq qo'llari-yu, o'rinsiz gaplari bilan aql-hushi joyida bo'lgan binoyiday bir yigitni o'ziga rom qila olgan ekan? Turib-turib, hayron qolasan kishi.

Bechora Simon! Boyoqish albatta o'zini limmolim baxt nuri to'lib-toshgan uyida xayol qilib, bor orzu-umidlarini o'sha ozg'ingina, vafodor va mu-loyimsupurgi xotinining ma'nisiz ko'zlarida ko'rib, durustroq o'ylab o'tirmay, o'sha dumbulsifat qiz bilan bir umrlik yostiqqa birga bosh qo'yib ketaver-gani menga haliyam g'alati ta'sir qilardi.

O'sha paytda u harakatchan va jo'shqin ki-shilarning odmi, ahmoqona turmush tarzi tufayli qo'pollashib, sayozlashib ketishi, tashqi hayot ikir-chikirlarini deb, o'zlarini unutib qo'yishlari tayin ekanligini xayoliga ham keltirmagani aniq.

Qiziq, u hozir qanaqa bo'lib ketgan ekan-a? Haliyam o'sha-o'sha ochiqko'ngil, bir qop yong'oq-day shaldir-shuldur, hammani og'ziga qaratadi-gan Simonmikan yo bo'lmasam antiqa turmushi ta'sirida maydalashib, dag'allashib ketgan quruq erkak qiyofasimikan? Axir, o'n besh yil chakana muddat emas, bu yillar bitta odamni ming ko'yga solishi mumkin!

Men o'tirgan poyezd nihoyat kichikroq bir bekatga kelib to'xtadi. Bo'mamdan chiqib, yerga oyoq qo'yishim bilan ikki yuzi pomidorday qip-qizil, xumday baqaloq bir kishining: „Jorj!“ degan-

cha men tomon quchoq ohib, lapanglab yugurib kelayotganini ko'rib qoldim.

Biz mahkam quchoqlashib tursak ham, men hadeganda bu erkakni daf'atan taniyolmadim. Keyin biroz o'zimga keldim-da, mislsiz hayrat ichida:

– O, Xudoyim-ey! Simon, senmisan?! Buni qara, he-cham ozmabsan-ku-a?! – deb unga boshdan oyoq ko'z yogurtirib chiqdim.

Simon bo'lsa qornini selkillatgancha xaxolab kulardi:

– Sen nima deb o'ylovding-a? Yaxshi yashash, to'kin dasturxon, yoqimli kechalar! It yotish, mirza turish – mening yashashim shu-ku, og'aynichalish!

Qadrdon oshnamning keng, do'mboq yuzlariga yaqinroq tikilib, undan o'tmishda men uchun nechog'liq aziz bo'lgan xislatlarni topishga urinardim. Simonning faqat ko'zlarigina o'zgarmagan edi, biroq ularda ham menga tanish bo'lgan nigohlar ortiq balqimasdi, shunda o'zimga o'zim: „Basharti ko'zlar teran aql ko'zgusi ekan, demak, boshdag'i aql tarozisi ham avvalgiday emas, eh, men bilgan Simondan zig'ircha ham qolmabdi-da!“ deb og'rinib qo'ydim.

Simonning ko'zlarini do'stona shodlikdan porlab, yonib turgan bo'lsa-da, ularda aql nurlari endi chaqnamay qo'ygandi. Bir og'iz so'z bilan butun zakiyligini ayon qilib turguvchi qadrdonim Simon endi qaylarda qolib ketdi ekan-a? Chuqur g'uussaga botib turarkanman, to'satdan uning ovozi xayolimni bo'ldi:

– Jorj, qani bu yoqqa bir qarab qo'y-chi! Bular – mening to'ng'ich bolalarim!

O'n to'rt yoshlar atrofidagi, qomati xuddi xotinlarnikiday bir qiz bilan yoshi o'n uchlar cha-masidagi o'quvchi kiyimidagi bir bola ikkilangan-chá, qo'rqa-pisa yonimizga keldi. Men ko'zlarimga ishonmasdan, arang ovoz chiqardim:

- Rostdanam sening bolalaringmi?
- Bo'lmasam-chil! Meniki-da! Meniki bo'lmay kimniki bo'lsin! Xa-xa-xa! Simon yana xaxolagan-chá bolalarining yelkasiga qoqib qo'ydi.
- Farzandlardan nechta bo'lgan o'zi?
- Naq beshta! Yana uchtasi uyda qolgan!

U bu gaplarni boshqacha g'urur, hatto g'olib bir odam ohangida gapirdi, men bo'lsa u so'zlagan sari ich-ichimdan tushunarsiz og'riq bilan do'stimning dimog'dor va kekkaygan aftiga cheksiz hasrat bilan tikilib turardim. U bamisoli o'z inida faqat bola ko'paytirish bilangina mashg'ul bo'lgan beg'am ayiqday ro'paramda gerdayib qo'r to'karkan, bir-daniga butun qalbim sovib, uni zilday tegirmon toshi bosib qolganday edi.

Birozzdan so'ng biz Simon minib kelgan iz-voshga o'tirdik. U zerikarli, mudroq bosgan shaharcha oralab labi labiga tegmay, tinmay javragancha izvoshini haydab ketdi. Ko'chalarda hech zog' ko'rinas, unda-bunda bir-ikkita it bilan oqsoch xizmatkorlar qorasi ko'zga tashlanib qolardi. Ba'zan-ba'zan do'konlari oldida ko'riniq qolgan sotuvchilar Simonni ko'rib, bosh kiyimlarini ko'tarib, salomlashgan bo'lar, Simon ham o'sha asno-da ularga javoban boshini qimirlatib o'tar, keyin menga darhol o'sha kishining kimligini ayon-bayon qila boshlar, bu bilan u xuddi shaharchadagi

hamma odamni besh qo'limdek bilaman, demoq-chiday bo'lardi.

Tez orada shaharchadan ham chiqib oldik. Endi izvosh baayni parkday kattalikdagi bepoyon bog' qarshisidagi mahobatli uy oldiga kelib to'xtadi.

– Mana shu bizning kulbayi vayronamiz bo'la-di! – soxta kamtarlik bilan xitob qildi Simon, pirovardida u yana tilidan bol tomib, o'zining „kulbayi vayrona“sinii ta'riflab ketdi, men ham noiloj uning gaplarini quvvatlab turdim.

Uyga yaqinlashishimiz bilan ostonada kelgu-chi mehmon uchun ataylab pardoz qilgan, sochini ham maxsus tuzattirib, kutilgan mehmon sharafiga boshdan oyoq yasan-tusan qilgan uy bekasi ko'rindi.

Yo'q, bu ayol men o'n besh yil burun ko'rgan va bilgan oriqqina oyimtila emasdi, qarshimda o'sha rangpar qiz o'rnida yoshini ham aniqlab bo'lmay-digan, faqat qomatigina ayollikdan darak berib turuvchi, aslida xuddi eri kabi xumday semirib ketgan do'mboq bir xonimning aksi turardi. Biroq uning ham xotin va ona degan nomi bor edi; onalik vazifasida misoli tuxum bosib yotadigan bo'lg'usi ona tovuq kabi, xotin o'rnida esa hech nima bilan ishi yo'q, boqibeg'am, biqqi cho'chqadek yashab kelayotgan bir ayol edi u.

Shunday bo'lsa-da, beka meni sertakalluflik bilan kutib oldi, Simon bo'lsa haliyam og'zi qu-log'ida, meni to'g'ri kattagina mehmonxonasi to-mon boshlab ketdi. Eshik oldida xuddi boshlig'i ro'parasida saf tortgan o't o'chiruvchi xizmatchilar singari qator bo'lib tizilib olgan uch nafar bolaga duch keldim.

– Qolgan bolalaringmi bular?

Gapim tugar-tugamas, Simon huzur qilib, bolalarini tanishtirib ketdi:

– Bunisi – Jin, mana bunisi bo'lsa Sofiya, bu esa Gontran. Qalay, ajoyib-a?

Boshim bilan tasdiq ishorasini berib qo'ydim, Simon bir zumda mehmonxona eshigini lang ochdi. U boshqacha mehmonnavozlik ishtiyoqi bilan harakat qilardi. Ichkariga kirgan zahotim xona burchagidagi tebratma kursi ichiga botib ketgan, kursisini ohista likillatib, tebranayotgan qari bir cholga ko'zim tushdi. Aftidan u falaj edi. Yuzimdag'i savol alomatini payqagan chog'i Radevin xonim darhol yonimga kelib, past ovozda:

– Bu kishi bizning buvajonimiz bo'ladi, janob. Ancha qarib qoldi, yoshi ham sakson yettilarga borib qolgan, – dedi. So'ng qaltirab o'tirgan keksa cholning qulog'iga yaqin kelib, baland ovozda shang'lladi: – uyimizga Simonning do'sti kelibdi, buva!

Bechora falaj chol menga nursiz ko'zlarini bir muddat qadab, so'nik tikildi-da, keyin bor kuchi ni og'ziga yig'ib, „Xayrli kun“, demoqchi bo'ldi. Ha, rostdanam, shunday deyishga chirani ko'rди boyoqish. Biroq og'zidan – Ouva, ouva, ou... degan tushuniksiz ovozlar chiqib, keyin nochor qo'llari nigunga silkib qo'ydi.

Joyimga o'tirarkanman, „Sizni ko'rib turganim-dan behad xursand bo'ldim, otajon“, deb unga minnatdorlik bildirgan bo'ldim.

Shu orada tashqaridan mehmondorchilik yugur-yugurlari bilan ovora bo'lib yurgan Simon kira solib, tag'in xaxolagancha gapira ketdi:

— O'ho! Buvamiz bilan darrov oshna bo'lib olib-sizlarmi, deyman! Qoyil-ey! Bu odam tilla odamda, Jorj, tilla! Bolalarimning ovunchog'i desam ham bo'ladi bu kishimni. Bilasanmi, otamiz ovqat desa o'lib qoladi, lekin shunaqangi ochofatki, hoy, ko'rib o'zing hayron qolasan hali! Hali ko'raskan ham, Jorj, ko'raskan! U hatto shirinliklarga ham xuddi qizlarga qaraganday suq bilan qaraydi, dasturxonni ko'zi bilan teshvoray deydi! Senga hali bundan ham qiziqlarini ko'rsatib qo'yaman, og'ayni, hademay hammasini o'z ko'zing bilan ko'raskan! Xa-xa-xa!

Kechki ovqat uchun kiyimlarimni almashtirib olgani ko'rsatilgan xonaga ko'tarilarkanman, zinalar ustida ur-to'polon shovqinini eshitib, beixtiyor o'girilib qaradim, otalarining ketidan bir-birlarini urib-yiqitgancha zinalardan chiqib kelayotgan Simonning bolalariga ko'zim tushdi. Albatta Simon buni mening hurmatim uchun, mehmoniga alohida e'tibor ko'rsatish maqsadida ataylab o'zi uyushtirgan edi.

Xonamning derazalari yam-yashil maysalar bilan qoplanganday tekis, biydek ulkan bug'doyzorlar-u suli ekinzorlari tomon qaragandi. Dala ichida na bir o'sgan dov-daraxt va na boshqa o'simlik butalari ko'zga tashlanardi. Bu manzara uy ichiga negadir g'amgin va yurakni zoriqtiruvchi kayfiyat olib kirardi.

Tushkun holda xomush bo'lib o'tirarkanman, nihoyat, kechki ovqat uchun qo'ng'iroq chalindi. Pastga tushdim. Radevin xonim zinapoya tagida chiqishimni poylab turgan chog'i, ko'rinishim bilan qo'llimdan tutdi-da, tantanali sur'atda meh-

monxonaga boshlab kirdi. Dasturxon atrofida tit-rab-qaqshab o'tirgan boyagi falaj cholga nigohim tushishi bilan nimagadir ko'nglim yana buzilib ketdi. U dasturxondag'i har bir taomga nihoyatda ochko'zlik bilan suqlanib o'tirar, bir ovqatni qo'yib, ikkinchi ovqat idishi atrofida to'xtovsiz ko'zi aylanardi. Ba'zan u sabri chidamay, duch kelgan lagan ichiga kir va qaltiroq qo'llarini tiqib olardi.

Simon dasturxonga o'tirayotib, qo'llarini ishqaladi-da, menga ko'zini qisib qo'ydi:

– Qarab tur, maza qilasan!

Simonning bolalari ham yebto'ymas buvalarining telbanamo qiliqlaridan mening ham kulib o'tirishimni poylashar, ayni chog'da esa o'zlari piq-piq etib, keksa buvalarini ermaklay boshlashgandi. Radevin xonim ham bir chetda odob yuzasidan miyig'ida iljayib o'tirar, go'yo bu tentakka nima deysiz endi, degandek yelkalarini qisib qo'yardi. Shu payt Simon qo'llarini og'ziga karnay qilib oldi-da, otasining qulog'iga qarab qichqirdi:

– Bu oqshom mazali guruchli bo'tqa yeymiz!

Shu topda bechora cholning ahvolini bir ko'r-sangiz edi! Uning bujur yuzlarida go'dakday pok, ma'sum bir quvonch nurlari balqidi, ko'zlari pirpirab, o'zicha bir nimalar deb g'o'ldiradi, butun a'zoyi badani birvarakayiga qaltirab ketdi, bu bilan u o'zining qanchalar suyunib ketganini bildirib qo'ymoqchi edi. Nihoyat, dasturxonga kechki taom tortildi.

– Anavini qara! – bir vaqt shundoqqina qulog'im ostida Simonning qattiq shivirlagani eshitildi. Qariyaga sho'rva yoqmas ekan, u sho'rvani istamay, undan bosh tortar, ammo sog'lig'ini deb, uni ha-

deb yeishiga majbur qilishardi. Cholga qarab turuvchi xizmatkor qariyaning og'ziga sho'rva to'la qoshiqni chunonam tirishtirar, chol bo'lsa ovqatini sovitaman deb, puflamoqchi bolalar va butun dasturxonga qoshiqdagi sho'rvani to'kib sochardi. Cholni boyadan beri kuzatib turgan bolalar bu tomoshadan zavq olib, qiyqirib kulishar, ayni o'sha paytda ularning dadasi ham maza qilib xaxolar va tez-tez menga qarab:

– Umringda shunaqa ajabtovur kimsani ko'r-gannisan, a? – deya miriqib kulgani-kulgan edi.

Butun kechki ovqat davomida bor oila sho'rlik cholni ermaklab o'tirishdi. Qariya esa atrofidagi qiyqiriq, kulgi sadolarini eshitmas va tushunmas, uning xayoli faqat dasturxonada edi. U o'zi yemoqchi bo'lgan kosalarga titroq qo'llarini cho'zar, idishni ushlay deganda barmoqlari qattiq qaltirab, lagan va piyolalarni bir-biriga urishtirib yuborar, o'zi ham dam-badam xirqirab yo'talar edi. Shunda mening a'zoyi badanimga ayovsiz bir dahshat rahna soldi. Nazarimda, butun yer yuzidagi eng ko'p jafo chekkan g'arib va hasratli odam yolg'iz shu cholgina bo'lib ko'rindi!

U hamon qorni g'amida bezovta o'tirardi, bir zumda yonidagi yeguliklarni yeb bitirar, yana qo'shni kursilar oldidagi taomlarga harislik bilan qo'l uzatardi. Simonning xonadoni bo'lsa bu dahshatli hamda g'aroyib manzaradan rohat qilib, tinmay kulishardi.

Bir mahal ular cholning likopchasiga bir tishlam go'sht bo'lagi qo'ydilar, qariya bo'lsa hash-pash deguncha uni ham laqqa yutganday, yeb bitirdi. Oradan hech qancha vaqt o'tmasdan,

kutilgan guruchli bo'tqa ham olib kirildi, falaj chol sevinganidan baland bir tovush chiqarib qo'ydi. Simonning o'rtancha o'g'li Gontran esa buvasining xursandchiliga barham berib, unga: „Juda ko'p ovqat yedingiz, endi yo'q, boshqa bermaymiz!“ deb taqiqlab qo'ydi. Aslini olganda, bu bir hiyla ekan. Ular o'zlarini go'yo cholga ortiq bir burda nonni ham yedirmoqchi emasday qilib tuta boshladilar. Ana shu vaqtida yuraklarim pora-pora bo'lib ketguday bo'ldi: bechora chol xuddi yosh boladay o'krab yig'lashga tushdi, shunaqangi yig'layverdiki, uning yig'isidan Simonning barcha bolalari qotib-qotib kula boshlashdi. Axiri ular rahm qilib, qariyaga bir qoshiqqina bo'tqa ilindilar. Orzulagan totli ovqati og'ziga tegishi bilan chol tomog'ida kul-gili, qiziq bir tovush chiqardi, keyin xuddi o'rdaklar bo'ynini ilkis harakatlantirganday, boshini u yoq-bu yoqqa chaqqon burdi, boshqalar bo'lsa bir qozzon bo'tqani oshar ekanlar, chol bunday shafqatsizlikka chidayolmay, tag'in ko'proq ovqat yeish uchun oyoqlarini polga urib, do'pillata ketdi.

Men o'rnimdan qimir etmay, tamoman shalvirab o'tirardim. Cholning oh-zorlariga ortiq toqat qilolmadim, uning o'rniiga xonadon vakillariga yalinib:

– Iltimos, buvaga yana ozroq bo'tqadan solib beringlar, – dedim.

Ammo Simon o'sha zahoti og'zimga urdi: „Aslo! Aslo, qadrdonim, aslo unday deya ko'rma! Buvamiz qancha ko'p yesa, shu yoshida u yoqqa ketishlari shuncha tezlashadi. Yo'q, ortig'i mumkin emas!“

Men tilimni tishladim. Shu topda xayolimni g'azabnok o'ylar katta kuch bilan parmalar edi.

O, oqibat! O, mehr! O, odamzod! Notavon va miskin chol! Eh, nochorgina chol-a! Hayotining kuzagida, qalbi yetim bo'lib qolgan bir paytida bu qadar bechoravash kimsaga aylanib qolmasa u! Bolalari uning sog'lig'i uchun hatto yaxshi ko'rghan ovqatidan loaqal bir luqmasini ham ravo ko'rishmadi-ya! Sog'liq emish! Shu yoshda, shu ahvolda unda sog'liqdan umid va asar bormikan? Ular qariyaning umri uchun g'am yeyapmiz, deyishdi. Uning umri? Necha kun qolgan ekan bu sho'rlikning umri tugashiga? O'nmi, yigirmami, ellik va yo yuz kunmi? Qancha? Unga rostdanam jonlari achiyaptimikan? Yoki dasturxon ustida xandon otib, mazaxo'raklik qilishlari uchun uning kunlарини cho'zishmoqchimikan?

Yo'q, bu g'arib kimsaning bu dunyoda hech narsasi qolmagan, hech narsasi. Uning atigi birliga tilagi qolgan, u ham bo'lsa guruchli bo'tqa! Nahot shugina istagini ham boyoqishga ko'p ko'rishsa! Nahot o'lgunicha bechoraginani shunday azoblayverishsa!

Allamahalgacha qarta o'yiniga o'zimni chalg'itib, dilgir o'tirdim, vaqt judayam kech bo'lib qolgandan keyin noiloj xonamga chiqib, uxlashga urinib ko'rdim. Biroq ruhim butkul tushkunlikka tushib ketgan, butun yuragim tub-tubidan zirqirab, qayg'uli nola chekardi. Joyimga yotmasdan, allamahalgacha derazam oldida ma'yus o'tirib qoldim. Qulog'imga qayerdadir, qaysidir daraxt shoxida o'tirib, binoyidek sayrayotgan bir qushning mayin ovozidan bo'lak hech narsa kirmasdi. O'sha qush shubhasiz, o'z halovatidan ham voz kechib, ne-ne umidlar bilan tuxum bosib yotgan juftini erka-

lab uxlatish uchun butun tun bo'yи ana shunday kuylab chiqadi.

Shunda ko'zimga do'mboq xotini va tartibsiz bolalari yonida pishillagancha xurrak otib yotgan, bir paytlar jonajon bo'lgan do'stimning beg'am, beparvo basharasi ko'rinish ketdi. Ko'nglim g'ash tortib, derazadan tepaga – baybat, qoramtil ko'kka qaradim. Shu dam osmonda na oqqushmisol oy va na yilt etgan yulduzlar jilosi nur sochar edi.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

PUSHTI RANG UPA

Nihoyat Soufi o'z xonasida dam olib o'tirar edi.

U o'lguday toliqqandi. Kun juda og'ir o'tgan; xuddi kechagi kunday, xuddi kechadan oldin-gi kunday og'ir o'tgandi. Aslida-ku, har bir kun shunday og'ir tarzda o'tar va bu kunlar Soufining yana bir yoshini asta-sekinlik bilan undan uzoq-larga olib ketmoqda edi. Yana ikki yil o'tgach, Soufi ham ellik yoshni urib qo'yadi. U uchun har bir kun borgan sari og'irlashib borardi.

Pastdagi yo'lak bo'ylab taralayotgan beka bilan xo'jayinning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozi oqsochning qulog'iga chalindi. Bekaning g'azab otiga mingani yaqqol sezilib turardi. Eri bilan gaplashganida uning tepe sochi tikka bo'lishi odatiy holga aylanib qolgandi.

Qo'ng'iroq chalinishi bilan Soufi dik etib o'rni-dan turdi-yu, koridor tomon halloslagancha yu-gurib ketdi. Obbo, qo'ng'iroq tag'in chalindi. Beka kutishni yoqtirmasdi.

— O, Xudoyim-ey, Soufi! Qorangni endi umrbod ko'rmas ekanmanmi, deb o'ylagandim!

Soufi miq etmadi. Nima ham desin? Beka eshigi ochiq kiyim javoni oldida kuymalanardi. U qo'liga bir dasta qilib ko'ylaklarini ilib olgan, yana allaqanchasi karavoti ustida yoyilib, sochilib yotardi.

– Ertaga, Soufi, – dedi beka shoshilayotganidan nafasi bo‘g‘ziga tifilib, – bizlar Rimga jo‘nab ketamiz. Ertaga ertalab. Demak, ayni daqiqadanoq tayyorlanishimiz zarur.

– U yoqda qancha vaqt bo‘lasizlar, xonim?

– Bunisini bilmayman. Ehtimol, ikki yoki uch hafta bo‘larmiz.

– U holda kattaroq chamadonni tayyorlaganimiz ma’qul emasmikan? Men hozir borib o’shani olib kelaman.

– Kel, senga qarashib yubora qolay, Soufi, – dedi beka oqsochi zil-zambil chamadonni keltiriши bilan. Odatda, beka atrofida qari ayol uymalanib yurishini jini suymasdi. Ammo Soufi o‘z ishini ko‘ngildagidek ado etardi.

Keksa oqsoch narsalarni joylashtirish bilan band ekan, ko‘ngli negadir cho‘kib borardi.

– Butun kunni divanda, – deya o‘y surardi u, – aynan xonimniki singari kattagina rohatijon karavot ustida o‘tkazish. Faqat uqlash, dam olish, yana xonim to‘g‘risida va uning qaysi topshiriqlarini bajarish haqida zig‘ircha tashvish qilmaslik – shunaqasi ham bo‘larkanmi?

– Uning so‘nggi o‘yinidan keyin, – beka eri haqidagi so‘zlab ketdi, – o‘zining aytishicha, bir tiyini ham qolmagan emish. – „Biror donayam yangi kiyim sotib ololmayman“, dedi u. – Beka derazadan tashqariga bir qarab oldi. – Boz ustiga, – deya gapida davom etdi, – erimning qari otasi ham peshanamga kelib olgan. – „Shunday shoir ering bilan faxrlanishing kerak“, deydi-ya qariya tushmagur. Yuziga qarab xaxolab yuborishdan o‘zimni zo‘rg‘a ushlab qoldim. – Beka qah-qah otib kulib yubor-

di. – O, o'zimning Soufiginam-ey, nechanchi osmonlarda uchib yuribsan-a? Manavi almisoqdan qolgan yashil ko'yakni joylashingga balo bormi?

Soufi indamasdan ko'yakni garderobga ilib qo'ydi.

– Nima uchun bu aynan shu kecha qovoq-tumshug'ini osiltirib olibdi? – deb o'ylardi beka ichida. – Yuzlari ham sarg'ayib, tishlari ko'karib ketibdi. Bunchalik xunuk bo'lmasa. Yaxshisi uxlagani jo'natib yubora qolay. Ammo nima qilib bo'lsa ham ish yakunlanishi kerak-da. Nima qilsam ekan-a? Beka o'z-o'ziga achinib ketdi.

Beka „Hayot og'ir-da, – deya o'y surganicha divani ustiga cho'kdi. – Sarg'aygan yuz va ko'kargan tishlar! Chindan ham o'ta yoqimsiz!“ Soufining afti bekani kasal qilayozdi.

– Hayot og'ir-da, – deya yana takrorladi beka. U oqsochini xonasiga ketkazib yuborsa ham bo'lardi. Biroq lash-lushlarini hozirlashni bir o'zi eplolmaydi. Ustiga-ustak, ertaga saharlab Rimga ketishlari kerak. Beka eriga sayohatga keta olishini aytgani-da, u ishonqiramay miyig'ida kulib qo'ygandi.

– Soufi, – dedi xonim nihoyat bir chora topgandy, – borib, mening pardoz stolim ustini bir qaragin-a. O'sha yerda pushti rang bir upa turibdi. O'shandan yonoqlaringga ozgina surtib ol. Yana o'sha joyda qandaydir lab bo'yog'i ham bor.

Keksa Soufi o'rnidan turib, pardoz stoliga borgunicha va aytilgan topshiriqni adog'iga yetkazgunicha beka ko'zlarini yumib turdi. Obbo, bu xotin buncha ivirsimasa... Nihoyat, Soufi imillagancha joyiga qaytib kelib, narsalarni joylashda davom etdi. Xonim ko'zlarini ochdi. „Voy, shu-

nisi yaxshiroq bo'ldi, sal bo'sa-da odambahara bo'ldi-qoldi".

— Rahmat, Soufi. Tuzukkina odamga aylanding-qo'yding. — Beka o'rnidan turdi. — Qani endi, chaq-qon-chaqqon qimirla, mana bu narsalarni tez joy-lab olaylik.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

TAVBA

Margarita de Terel o'lim to'shagida yotardi. Uning yoshi ellik oltida bo'lsa-da, ko'rinishidan yetmish beshdan kam emasdi. Nafasi qaytib, yuzlari choyshabdek oqarib ketgan, seskanib-seskanib ketar, butun tanasi titrar, ko'zlar esa biror dahshatli narsani ko'rgandek olazarak edi.

Uning opasi Suzanna undan olti yoshga katta bo'lib, yotoq yonida tizzalab o'tirgancha ko'zyosh to'kardi. Kichkina, ustiga dasturxon tashlangan stolda ikkita yonib bitgan sham qoldiqlari esa tezroq ruhoniyl kelib, tavba-tazarru qildirishi lozimligiga ishora qilib turardi.

O'lim yoqasida yotgan ayolning yotog'ida ham xunuk tartibsizlik hukm surar: stol va polkalarda turli dori-darmon ko'piklari, burchaklarda ishlatib tashlangan qo'l sochiqlari sochilib yotardi. Stul va kreslolar esa xuddi qo'rqib ketishgandek har tomonga surilib ketishardi. O'lim sharpasi shu yaqin orada kezinar va egasini kutardi.

Bu opa-singilning taqdiri achinarli. Butun tu'man shu haqda gapirgan, eshitganlar ko'zyosh ham to'kishgan. Kattasi – Suzanna bir vaqtlar yosh bir yigit bilan sevishgan, hatto unashtirilgan edilar. To'y kuni ham belgilangan, biroq to'satdan Andi le Sampyerning bevaqt o'limi ularni ayirgandi. Kuchli qayg'uda qolgan qiz hech qachon tur-

mushga chiqmaslikka ahd qilgan. U so'zida turdi. Bevalik libosini egnidan yechmadi, doimo qora ko'yakda o'tirardi.

Bir kuni ertalab singlisi, o'n ikki yashar Margarita opasini quchdi va dedi:

– Opajon, sizning baxtsiz bo'lishingizni istamayman. Bir umr yig'lab o'tishingizni ham xohlamayman. Hech qachon, sirayam sizni tashlab ketmayman. Menam turmushga chiqmayman. Siz bilan bir umr birga qolaman.

Suzanna singlisining hayajonli gaplaridan ta'sirlanib uni o'pib qo'ysa-da, biroq gaplariga ishonmagandi. Ammo singlisi gapida turdi. Ota-onasining nasihatlari, opasining iltijolari kor qilmadi: erga tegmadi. U juda go'zal edi, ko'pchilik yosh yigitlarning aqlini olgandi, lekin qiz barini rad etar, opasini tashlab ketmasdi.

Opa-singil bir umr birga yashashdi, ayrilishmadidi. Tutashgan yo'llaridan birma-bir qadam bosib o'tdilar. Margarita opasiga nisbatan doim g'amgin yurar, biroz qattiqqa'l edi. Shuning uchunmi opasidan ko'ra tez qaridi, o'ttiz yil davomida dilini ezib kelgan bir sir tufayli ham shunday kechdi uning taqdiri.

Mana, u dunyoni bиринчи bo'lib tark etyapti.

Bir sutkadan beri Margarita gapirmsasdi. Tongda u nihoyat tilga kirdi:

– Ruhoniyni chaqiringlar, vaqt bo'ldi, – dedi u quruqshagan lablarini bazo'r qimirlatib. Uning ko'zlarida allaqanday qo'rqinch bor edi.

Opasi choyshabning bir chetiga o'tirib, yuragi ezilib yig'lar, bir so'zni takrorlardi:

– Margo, jigarim mening, mittiginam!

Opasi uni doim mittiginam deb erkalardi. Singlisi esa opajon derdi.

Zinadan qadam tovushlari eshitildi. Eshik ochilib, xizmatchi bolakay ko'rindi. Uning ortidan esa kimxob kiyimdagi ruhoniy kirib keldi. Ruhoniyni ko'rib, Margarita amallab qo'zg'aldi, gapirishga bazo'r shaylandi, oyog'ini o'rab turgan choyshabni irg'itdi.

Abbat Simon uning yoniga kelib, qo'llaridan tutdi, peshonasidan o'pib mayin so'zladi:

– Egam seni afv etgay, bo'tam. To'g'riso'z bo'ling, gapirishingiz mumkin.

Shu payt Margarita haqiqatni aytishga chog'lanib o'rnidan jildi. Butun yotoq qimirlab ketdi go'yo. U tilga kirdi:

– Opajon, yonimga o'tiring va tinglang...

Ruhoniy Suzanna tomon o'girildi va unga joy ajratdi. O'zi esa kresloga cho'kib, ikki ayolning ham qo'llaridan tutdi:

– E Yaratgan egam! Ularga kuch-quvvat ber, marhamatingni ayama.

Margarita xirillagan tovushda gapirar, xuddi ovozi hozir o'chib qoladigandek edi.

– Meni kechiring, kechiring, opajon! O, agar bilsaydingiz, bu paytning kelishidan naqadar qo'rqib yashaganimni...

Suzanna ko'zidagi yoshni artib so'radi:

– Seni nega kechiray, mittiginam? Sen menga o'zingni baxsh etding, baridan kechding. Sen farrishtasan...

Margarita uni to'xtatdi:

– Jim! Aytishimga imkon bering... gapimni bo'l-mang. Qo'rqinchli... hammasini aytib olay. Oxi-

rigacha... shoshmang... tinglang... siz eslaysiz...
Anrini eslaysiz-a?..

Suzanna hayron bo'lib singlisiga tikildi.

— Eshiting, shunda tushunib olasiz. Men o'shanda atigi o'n ikki yoshda edim. Esingizda-ku, to'g'rimi? Meni rosa erkalatishardi. U uyimizga birinchi marta kelganida, loklangan etikda edi; tulporidan sakrab tushdi, kiyimi uchun uzr so'rab, otamga bir xabar yetkazishi lozimligini aytdi. Bular esingizda, to'g'rimi? Jim... tinglang. Uni ilk bor ko'rganimda ko'rksamligidan toshdek qotgandim. U otam bilan gaplashib bo'lguncha xonaning bir burchida turib undan ko'zimni uzolmay qolganman. Bolalar juda g'alati xalq, hatto qo'rinchli... O, uni qanchalar orzulardim! U yana keldi. Uni bor nigohlarim, bor qalbim bilan kuzatardim... Yoshimdan ko'ra tez ulg'ayib qolgandim. Ko'ringanimdan ko'ra esa ancha ayyor ham edim. U tez-tez kela boshladи. Faqat u haqda o'ylardim. O'zimga o'zim shivirlardim: „Anri... Anri de Sampyer!¹“

Keyin esa uning sizga uylanmoqchiligin aytilshdi. Oh, opajon, bu so'zlar menga tig'dek qadal-di! Yondirdi! Uch kecha uxmlamay yig'lab chiqdim. U har kuni nonushtadan so'ng uyimizga kelardi, esingizdam? Gapimni bo'lman, eshiting... Siz Anriga atab u yoqtiradigan pirojnyylarni tayyorlar-dingiz: un, yog' va sutdan. O, men ham pishirishni bilardim buni. Kerak bo'lsa, hozir ham pishira olaman. Anri pirojnyylardan tatib ko'rarkan, qo'li-dagi vinodan ho'plab, „A'lo darajada!“, deb maqtardi. Esingizdam shu gaplari? Rashk qilardim,

¹ „Anri... Sampyerlik! Anri!“. (fra.)

rashk! To'y kuni ham yaqinlashib qolgandi. Ikki haftagini qoluvdi. Men aqldan ozdim. „U Suzannaga uylanmaydi, yo'q, buni istamayman. Katta bo'ssam, u faqatgina menga uylanadi. Hayotimda undan boshqasini bu qadar qattiq sevolmayman...“, derdim xayolan.

Ammo bir kuni kechasi, to'yga o'n kun qolganda, siz oy yog'dusida u bilan sayr qilishga chiqib ketdingiz... u yerda katta qoraqarag'ay bor edi... U sizni daraxt tagida quchib qo'llaringizdan tutdi va uzoq bo'sa oldi. Buni yaxshi eslaysiz. Axir, bu sizlarning ilk bo'sangiz edi... Ha, uyga qaytganningizda hayajondan oqarib ketgandingiz! Sizlarni bog'da kuzatib turgandim. Quturgancha ortga qaytdim. Qo'lidan kelsa, sizlarni o'dirishga ham tayyor edim! O'zimga dedim: „U Suzannaga uylanmaydi. Ular oila qurisholmaydi. Bu baxtsizlikni ko'tara olmayman“. Qalbimda chuqur hasad uyg'ondi. Keyin, bilasizmi nima qildim? Tinglang... Bog'bonimiz quturgan itlar uchun zahar tayyorlashini ko'rib qolgandim. U shisha butilkani sindirib, maydalab, go'shtli qiymaga qo'shardi. Onamning dori shishasini oldim va uni maydaladim. Zarrali, yaltiroq kukun hosil bo'ldi. Ertasiga esa siz pirojniy tayyorlayotganingizda, men bildirmay kukunni xamirga qo'shib yubordim. U pirojniydan uch dona yedi... siz esa bitta. Qolgan oltitasini esa hovuzga tashlab yubordim... O'shanda ikkita oqqushimiz o'lib qolgandi, esingizdami? Jim bo'ling... faqat tinglang. O'shanda mengina qotil pirojniylardan yemadim, ammo bir umrlik azobni orttirib oldim. U o'ldi... bilasiz. Tinglang... bu hali hammasi emas... keyin... har doim... qo'rqinch-

li edi. Butun hayotim buzilib ketdi. O'zimga so'z berdim: „Bir umr opamning yonida bo'laman va so'nggi ondagina haqiqatni so'zlab beraman.“ Ha, bu daqiqalarni doim o'ylab yashardim. Qarshingizda aybimni tan olish onlarini... Vaqt bo'ldi. Qo'rqib ketyapman... opajon!

Erta-yu kech, tun va tongda shu haqda o'ylardim: vaqt kelsa, unga iqror bo'lishim kerak... Kutdim. Oh, bu azob iskanjas! Mana, endi bari ni bilasiz. Jim! Gapirmang. Men qo'rqib ketyapman! Narigi dunyoda u bilan yuzlashsam, o'ylab ko'ring-a? Axir, uni sizdan avval men ko'raman. Istamasam-da shunday bo'ladi. Olyapman... Kechiring meni, kechiring!... Siz afv etmasangiz, uning ko'zlariga qaray olmayman. Ayting unga, janob ruhoni, meni kechirsin... iltimos. Bo'lmasa, o'lolmayman...

U og'ir nafas olib titradi va oyoqlari bilan choyshabni timdalay boshladi.

Suzanna esa qo'llari bilan yuzini yopib olgan, qimir etmasdi. U Anri haqida, uzoq davom etishi mumkin bo'lgan muhabbat haqida o'ylardi. Qanday go'zal hayot kechirishlari mumkin edi-ya? Eh, qadrdon marhumlar! Ular qalbimizni naqadar qiy-naydilar. Ilk va yagona bo'sa-chil! Ayol buni yuragida asrab keldi. Bu bo'sa so'nggisi bo'lib qoldi.

Birdan ruhoni baland ovozda hayqirdi:

– Suzanna xonim, singlingiz jon beryapti!

Shunda Suzanna qo'lini yuzidan tushirib, singlisini quchib o'pdi va shivirladi:

– Seni kechiraman, mittiginam...

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

YAXSHI ODAM

Pyotrning qaytishini orziqib kutdik. Chunki yaqin orada hech birimiz yorug'likka chiqib ko'rma-gan edik. Pyotrning omadi bor ekan. Hujjatla-ridagi chalkash joylarga aniqlik kiritish uchun hakamning o'zi uni yo'qlabdi. Unga havasimiz kel-di. Qamoqxonadan bir qadam bo'ssa-da tashqa-riга chiqish, qo'l-oyog'iga kishan urilmagan ozod odamlarni ko'rish, quyosh nuriga to'yish – bar-chamizning necha yillik orzuyimiz edi. Bu baxtga Pyotr musharraf bo'ldi.

Baxtiyor hamxonamiz peshinga yaqin qaytdi. Og'ir eshikni yopishlari bilan uni o'rtaga oldik.

– Qani, nimalarni ko'rding? – deb uning hikoyasiga ilhaq bo'ldik.

Pyotr yog'och karovotiga o'tirdi-da, zax devorga suyanib, jilmaydi.

– Avval oyog'imga og'ir kishan urishdi, – deya hikoyasini boshladи Pyotr. – Keyin bu „marvarid shodalari“ni sudrab, boshliqning xonasi tomon yurdi. Shu yerda soqchi almashishi kerak ekan. Bir mahal ichkaridan boshliqning ovozini eshitib qoldim. U mening farishta mulozimlarimga yo'l-yo'riq ko'rsatayotgan ekan:

– Kiprik qoqmay kuzatlaring. U o'lim jazosi-ga loyiq, nihoyatda xavfli jinoyatchi. Ko'zlariningni

shamg‘alat qilib qochib ketmasin, ziyrak bo’llaring. Mutlaqo gaplashmalaring. Agar qochguday bo’lsa, o’rniga o’zlariningni qamab qo’yaman. Uqdi-laringmi?

Boshliq bu bilan kifoyalanmay, yana mening o’zimga ham ma’lum bo’lmagan bir qator fazilat-larimni aytib berdi. Xullas, uning tasvirida men saltkam yovuz, qonxo’r maxluqqa aylandim-qoldim. Lekin qosh qo’yaman deb ko’z chiqarib qo’ydim. Soqchilar ko’zimga qarashga botina olishmadi.

Qamoqxonadan chiqib ozgina yurgach, orqam-ga qaradim. Soqchilar miltiqlarini shay qilib, boshliq aytganday kiprik qoqmasdan kelishayot-gan ekan.

– To‘g’riga qara, bo’lmasa otib tashlaymiz! – deb po’pisa qilishdi.

Soqchilarning bu ahvoldidan kulib, hazillashgim keldi.

– Yaxshi, – dedim men, – odamga o’xshab muo-mala qilishni bilmasalaring, o’zlarindan ko’rla-ring. Yana oltmis bir qadam qo’yanimdan so’ng izimni qidirib qolasanlar.

Gapim og’zimda qoldi. So’zim tugamay ikkala miltiq ham kuragimga tiraldi. Ko’chadagi odamlar hayron bo’lib qarashadi. Yigirma qadamcha bosdim. Birdan yuragimga g’ulg’ula tushdi. „Juda bema’ni hazil qildim-da. Vasvasaga tushib tepkini bosib yuborsami, tamom...“ – dedim o’zimga o’zim. Baxtimga soqchilarning biri horg‘in tovushda ga-pirib qoldi:

– Sen-ku, joningni huzurini ko’zlab qochib ketarsan. Senga balo ham urmaydi. Ammo biz be-choralarga kim rahm qiladi? Bolalarimiz tirik ye-

tim bo'lib qolishadi-ku! Biz bir omi odamlarmiz. Boshliqlar aytgan ishni qilamiz.

– Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqarkan. Agar odamga o'xshab muomala qilganlaringda shuncha qiynalmasdilaring. Bo'pti, endi xavotirga tushmalaring. Qochmayman.

Shunday deb to'xtadim-da, ularga qarab kuldim. Soqchilar gapimga bir ishonib, bir ishonmay turib qolishdi. Keyin ularning biri miltig'ini yelkasiga osdi-da, jilmayib qo'ydi. Ikkinchisi ham kuragimga tirab turgan miltig'ini oldi. Qolgan yo'lda hangomalashib ketdik. Ular g'arbiy muzofotdan kelishgan ekan. Bilim yurtini tugatishga qo'yishmabdi. Politsiya xizmatiga olishibdi. Ikkovi ham dilkash yigitlar ekan. Men ularga bisotimdag'i latifalarning hammasini aytib berdim.

Hakam bor-yo'g'i otamning ismini aniqlamoqchi ekan. Bir nafasda qaytib chiqdim. Soqchilar bilan eski qadrdonlar kabi yonma-yon yurib borayotganimizni ko'rib ko'chadagi odamlar hayron qolishadi. Soqchilar menga hatto aroq ham quyib bermoqchi bo'lishdi. Ko'nmadim. Keyin qo'yarda-qo'y may yemakxonaga boshlashdi. Tamaddi qilib, bo'za ichdik.

– Shaharda qarindosh-urug'laring bo'lsa, kirib chiqmaymizmi? – deb qoldi soqchilardan biri.

Qarindosh-urug'larim borlikka bor-a, lekin kishanlarni sharaqlatib kirib borish to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun hech kimim yo'q deb qo'ya qoldim.

Qamoqxonaga yaqinlashganimizda ular yana qoidaga binoan miltiqlarini o'qtalib orqaroqqa o'tishdi. Boshliqning xonasiga kirib ketishayotganda ularning biri ikkinchisiga dedi:

– Boshliq aldabdi, bu yaxshi odam ekan...

Pyotrning hikoyasini eshitib, unga „Yaxshi odam“, deb nom berishga qaror qildik.

– Marhamatlaring uchun minnatdorman, – dedi u o'rnidan turib, – ammo bir narsani aytib qo'yay: keyingi kunlarda tushimga qiziq bir odam kiradigan bo'lib qoldi. U ro'paramga o'tirib olib, ko'zimga tik qaraydi. „Pyotr, agar sen bir o'zingni yaxshi odam deb bilsang, yanglishasan, – dedi u. – Bu dunyodagi odamlarning barchasi yaxshi. Lekin ba'zilar qachondir, qaydadir, qandaydir baloga yo'liqib qoladilar. Bunday bedavo baloga duch kelganlar yomon odamga aylanadilar. Men ularning ko'pini ko'rdim. Siz ularning yuragiga yo'l topsangiz, topganingiz, bo'lmasa holingizga voy“.

*Bolgar tilidan
Tohir MALIK tarjimasi*

DUSHMAN

Sinfdosh do'stim leytenant Lyudvig Brayerdan „Urushda o'z ko'zing bilan ko'rgan qaysi voqea xotirangda jonli saqlanib qolgan“, deb so'ranganimda Verden, Somma yoki Flandriyadagi janglar haqida eshitaman deb o'ylagandim, zotan, u bu frontlarning hammasida bo'lgan, eng og'ir janglarda qatnashgan edi. Biroq u meni ajablantirib, tamoman boshqa voqeani so'zlay ketdi:

„Eng jonli saqlangani emas, balki xotiramga sira o'chmas bo'lib o'rnashgan voqea bizni front ortiga, oldingi chiziqdan olis fransuz qishloq-chasiga jo'natishganida boshlangan edi. Jangda biz juda qaltis joyda himoyani saqlab, artilleriya dovuli ostida qolib ketdik, shu bois bizni frontdan ancha uzoq joyga jo'natishdi, chunki katta talofotlar bergandik, qaytadan kuch toplashimiz kerak edi.

Avgustning ajib haftasi edi, Injilda tasvirlanganidek, go'zal yoz kunlari, xuddi bir paytlar Shampandagi yerto'lalardan birida o'lja organizmiz ko'hna sharob kabi sarxush qilardi bizni. Ust-boshimizni bitdan tozalab oldik: ba'zilarimizga yap-yangi ichkiyim tarqatishdi, boshqalar esa ko'yaklarini qozonga solib, obdan qaynatdilar; hamma yerda ozodalik hukmron ediki, buning

fusunkor go'zalligini kir-chirga botib yuradigan askargina teran his qila oladi. Bolaligimda onam kattakon vannada cho'miltirgach, kraxmal, tiriklik va shirinkulcha hidi taralib turgan top-toza kiyimlarni kiydirgan osuda kunlardagi kabi yoqimli his edi bu.

Askar bo'lgach, tabiatga boshqalardan ko'ra o'zgacha ko'z bilan qaraydi kishi. O'sha avgust kunlari shafqatsiz, o'lim yoqasidagi dahshatli turmush sharoitlarida oyog'imizga tushov bo'lgan minglab taqiq va majburiyatlardan xalos bo'ldik; dam olish daqiqalari va soatlarida shunchaki hayotning o'zi haqida, tirikligimizni, to'rt muchamiz butligini; ko'ra olishimizni, nafas olayotganimizni va erkinligimizni o'ylab quvonchimiz ichimizga sig'may ketdi.

Botayotgan quyosh shu'lalaridan charog'on dala, o'rmonning ko'kintir ko'lankasi, terak barglarining shitir-shitiri, shaffof suvli soyning yugrib oqishi – bari ta'riflab bo'lmas quvonch baxsh etardi; biroq ich-ichimizda qamchi yoxud tikanak singari azob berayotgan bozillagan og'riq bor edi baribir: chunki bilardikki, talay soatlardan so'ng, talay kunlardan keyin bular bari o'tib ketajak va o'limning do'zaxmonand manzaralari bilan muqarrar almashinajak. Baxt, dard, dilgirlik, qayg'u, zerkish va umidsizlik omuxtasi bo'lgan bu his dam olayotgan har bir askarga begona emasdi.

Kechki ovqatdan so'ng bir necha o'rtog'im bilan qishloqdan tashqariga chiqdim. Uzoq yurdik, deyarli gaplashmadik; ko'p oylardan so'ng birinchi marta kayfimiz chog' edi va ko'zimizga tushayotgan shom quyoshi taftida isinardik. Ha-

demay tevaragiga soqchilar qo'yilgan, to'siq bilan o'ralgan keng maydonning o'rtasidagi chog'roq, ko'rimsiz fabrika binosining ro'parasidan chiqdik. Bino hovlisi Germaniyaga jo'natishlarini kutayotgan asirlarga to'la edi.

Soqchilar yo'limizni to'sishmadi, biz bemalol tomosha qila boshladik. Bu yerda bir necha yuz fransuz asiri joylashtirilgan edi. Ular o'tirishar yoki yotishar, chekishar, o'zaro so'zlashishar yoki boshlarini osiltirgan ko'yi mizg'ishardi. Xuddi shu manzara menga katta saboq bo'ldi.

Endi esa ilk bor asirlarni, asir bo'lganda ham – o'tirgan, cho'zilib yotgan, chekayotgan asirlarni – qurolsiz fransuzlarni ko'rib turardim.

Qo'qqisdan karaxt bo'lib qoldim. Meni oddiygina bir fikr esankiratib qo'ygandi: ular ham bizga o'xshagan odamlar ekan-ku!? Biroq fakt faktligicha qoladi – Xudo shohid, juda g'alati fakt – ilgari hech qachon aqlimga kelmagandi bu fikr. Fransuzlarmi? Dushmanimiz-ku ular! Bitta qo'ymay qirib tashlash kerak ularni, chunki Germaniyani mahv etishmoqchi! Ammo o'sha avgust oqshomida men bir mudhish sirni angladim – qurol jodusi sirini. Qurol odamlarni o'zgartirarkan. Atrofimizza xotirjam, tinchgina o'tirgan bu yuvosh kishilar, bu fabrika ishchilari, qora mehnatkashlar, yuqori sinf o'quvchilari, agar birdan qo'llarida qurol paydo bo'lsa, darhol yana bizning dushmanimizga aylangan bo'lur edilar.

Boshida bizga yov emasdi ular: qurol olganlaridan so'ng dushmaniga aylanishgandi. Xuddi shu narsa meni tafakkur qilishga majbur etdi, biroq mantig'im noto'g'ri bo'lishi mumkinligini

tan olardim. Ammo „Aynan quroq-yarog“ urush olovini yoqadi“, degan fikr mudom ta’qib etardi meni. Dunyoda shu qadar ko’p quroq to’plangan-ki, oxir-oqibat ular odamlardan ustun kelib, ularni o’zaro dushman qilgandi...

Anchadan keyin, Flandriyada yana shunaqa holatni kuzatganman: temir va porox urushi qutursa, insonning qadr-qimmati qolmas ekan. Quroldan jazavaga tushib, telbalarcha bir-birlari-ga tashlanishadi. Ba’zan o’ylab qolasan kishi: bordi-yu ikki yovlashgan tomondagi barcha tiriik jon qirilib bitgan taqdirda ham, quroq-yarog’lar, to butun jahonni yo’q qilmaguncha urushni bas qilmasa kerak, deb... Biroq bu yerda, fabrika hovlisida sen-u menga o’xshagan odamlarni uchratgandim. Va birinchi bor anglab yetdim: men odamlar bilan jang qilayotgan ekanman! O’zim singari, jarangdor shiorlar-u quroq sehriga laqqa tushgan, xotini va bolalari, ota-onasi va kasb-kori bor odamlar bilan. Ular sabab bo’lib mening fikrim ravshanlashgan ekan, balki, ularning ham ko’zlari ochilar, men kabi yon-atrofga alanglab, bir-birlariga savol berishar: „Birodarlar, biz nima qilmoqdamiz?! Buning nima zarurati bor?!” deya.

Bir necha haftadan so’ng biz yana frontda edik, bu safar – picha tinchroq yerda. Fransuzlarning oldingi marrasi xiyla yaqin edi bizga, lekin pozitsiyalari pishiq-puxta himoyalangan edi, xullas, u yerda yolchitib urushmadik. Har kuni ertalab, rappo-raso yettida ikki tomon artilleriyachilari salomlashgan kabi bir-birlariga o’q yog’dirishardi, keyin, choshgohda tag’in kichikroq salyut tashkil qilinar, kechga yaqin oxirgi marta shu yo’sin

„salom-alik“ qilishardi. Biz istehkomlarimiz yonda quyosh nurlariga cho‘milardik, kechalari esa hatto etiklarimizni yechib, bafurja uxlardik.

Kunlarning birida betaraf maydonning narigi tomonida, brustver ustida qo‘qqisdan „Attention!“ deb yozilgan bir bo‘lak faner ko‘tarildi. Hayratdan fanerga qanchalar chaqchayganimizni tasavvur qilaver. O‘ylay-o‘ylay, hozir zo‘r, odatdagidan va himaliroq artilleriya hamlasi bo‘lsa kerak, degan fikrga keldik, ko‘pchilik snaryadlarning dastlabki hushtaklari eshitilgani hamon handaq qa’riga singib ketishga shaylana boshladi.

Biroq atrof tinch edi. Faner bo‘lagi g‘oyib bo‘ldi, bir necha soniyadan so‘ng esa uchiga bir cuti sigaret bog‘langan kurakchani ko‘rdik. Fransuzchani chala-chulpa biladigan o‘rtoqlarimizdan biri topografiya xaritalari solinadigan katta planshetga gutalin bilan yozdi: „Compris“. Planshetni dushmanga ko‘rinadigan qilib ko‘tardik. Shunda narigi tarafda sigaret bog‘langan kurakchani u yoqdan bu yoqqa silkita boshlashdi. Biz ham planshetni silkitdik va bir parcha oq matoni namoyish etdik – u shu pallada bitini terib o‘tirgan ober-yefreytor Byulerning ko‘ylagi edi.

Picha vaqt o‘tgach u yoqdagilar ham oq mato ko‘tarishdi, kamiga – kaskani ham qo‘sishdi. Biz kuchimiz boricha ko‘ylakni silkitib signal berdik, undagi hamma bitlar yomg‘ir va shamolda to‘kilib ketgandir-ov. Nihoyat, u tomonda paket tutgan qo‘l ko‘rinib, allaqanday fransuz ehtiyojkorlik bilan tikanli sim orasiga suqildi; u sekin-asta biz tomonga emaklar va ahyon-ahyonda dastro‘molini silkitgancha asabiy kulardi. Oraliqdagi may-

donning taxminan o'rtasiga yetganida u to'xtadi, paketni yerga qo'ydi, besh-olti marta unga bar-mog'ini nuqdi, yana kuldi, bosh irg'adi va emak-lagancha iziga qaytdi.

Bular bari haddan ziyod hayajonga soldi bizni. Hayajonga bolalarga xos, taqiqlangan ishni qilish ishtiyoqi ham qo'shildi, biz kimgadir hazil qilm-oqchiga o'xshardik, go'yo; qolaversa, shunchaki tezroq paket yoniga borib, undagi shirinliklarnimi yoki bir quti sigaretnimi qo'lga kiritgimiz kelardi.

Bizga biroz erkinlik, mustaqillik va barcha o'lim mexanizmlari ustidan tantana ruhi ufurdi. Shunaqa hisni men ho' o'shanda, asir fransuzlar qarshisida turganimda chuqur insoniy bir tuyg'u qalbimga muzaffarona yorib kirib, „dushman“ haqidagi ibtidoiy tushunchalarimni yanchib tash-lagan damda ham tuygandim, endi esa bu zafar-ga o'z hissamni qo'shishni xohlamoqda edim.

Biz shosha-pisha bir nechta sovg'a-salom hozirladik, umuman olganda, mayda-chuyda nar-salar edi bari, chunki neytral hududning narigi yog'idagi o'rtoqlarimizdan farqli o'laroq, surobimiz to'g'ri bo'lib qolgandi bizning. Shundan so'ng tag'in ko'ylak bilan signal yo'lladik, darrov javob qaytarishdi. Men ohista yuqoriga o'rmalay bosh-ladim. Boshim va yelkam qariyb handaqqdan chiqdi. Senga ochig'ini aytaman, juda behuzur bo'ldim: himoyasiz, mana men degandek brust-verdan chiqib turibman – tap-tayyor nishon!

Keyin to'ppa-to'g'riga emakladim, shundagina fikrlarim butkul o'zgardi, go'yo ularni birov mi-yamdan so'rib olgandek edi. Juda g'alati va maroqli vaziyat edi: ichimda misliko'rilmagan shod-

lik ko'pirib-toshayotganini his qilardim; xursand edim, kula-kula, dadil emaklardim.

Tugunchani qo'ydim va ular qoldirgan tugunchani olib, izimga burildim. Shu mahal tinchlik zavqi bir lahzada kunpayakun bo'ldi. Ortidan yuzlab miltiqlarning og'zi menga qaratilgan bo'lishi mumkinligini tushunardim. Bu meni qattiq qo'rquvga soldi, a'zoyi badanim jiqla terga botdi. Lekin o'zimiznikilar yoniga sog'-salomat yetib bordim va o'pkam og'zimga tiqilgudek bo'lib handaq ichiga ag'anadim.

Ertasi kuni men bu ishga ancha ko'nikib qolgandim; bora-bora „oldi-berdi“ni xiyla soddashtirdik va handaqlarimizdan galma-gal emas, balki baravariga o'rmalab chiqadigan bo'ldik. Zanjirdan bo'shatilgan ikki it kabi bir-birimizga tomon emaklar va sovg'a almashib qaytardik.

Ilk bora bir-birimizning ko'zlarimizga boqqanimizda parishon jilmaydik, xolos. Anov fransuz askari menga o'xshab yoshgina yigit ekan, yigirmalarda bordir, ortiq emas. Bu o'yin unga juda yoqayotgani yuzidan sezilib turardi. „Bonjour, camarade“, dedi u; men butkul esankirab qoldim va ikki marta takrorladim: „Bonjour, bonjour“, so'ng uchinchi marta ham aytdim va bosh irg'ab qo'yib, shoshilgancha ortga qaytdim. Biz muayyan vaqtarda uchrasha boshladik va avval signal berib ogohlantirish taomilidan voz kechdik – bu yozilmagan tinchlik sulhi shartlariga ikki tomon ham bekam-u ko'st amal qilardi. Bir soatdan so'ng esa burungidek yana bir-birimizni o'qqa tutardik. Bir kuni men bilan sovg'a ayirboshlagan fransuz yigit qo'rqa-pisa qo'lini uzat-

di va biz salomlashdik. Turgan-bitgani hangoma, o'lay agar.

Bunaqa voqealar frontning boshqa uchastkalarida ham yuz berarkan. Yuqori qo'mondonlik xabar topib, „Bunaqa ishlar qat'yan man etiladi, zotan, alohida hollarda shuni deb harbiy harakatlar rejimi buzilmoqda“, degan mazmunda buyruq chiqaribdi. Biroq biz parvo ham qilganimiz yo'q.

Ajoyib kunlarning birida frontimizga allaqanday mayor kelib, shu to'g'rida rotamizga uzundan uzoq va'z o'qidi. Jonkuyar va serg'ayrat zabit ekan, qurg'ur, frontning oldingi marrasida kechgacha qolmoqchiliginи aytdi. Taassufki, u biz sovg'a al-mashishga chiqadigan joy yaqiniga o'rashib oldi va bu ham yetmagandek, miltiq berishlarini talab qildi. Juda yosh, jasorat ko'rsatishga ishqiboz ekan mayor.

Nima qilishni bilmasdik. Narigi tomondagи о'rtoqlarimizga belgi berishning imkoni yo'q edi; qolaversa, dushman bilan bunaqa o'yin qilayotganimiz uchun joyimizda otib tashlashlaridan xavfsirardik. Soatimning daqiqani ko'rsatuvchi kafgiri sekin-asta aylanishda davom etardi. Qimirlagan jon yo'q edi va biz hammasi xayrli tugaydi, deb umidlandik.

Mayor, shubhasiz, front chizig'i bo'ylab davom etayotgan birodarlik munosabatlaridan xabardor edi-yu, biroq biz bu yerda nimalar bilan shug'ullanayotganimiz to'g'risida aniq ma'lumotga ega emasdi; jin urgurning aynan bizga, yana tag'in shunday topshiriq bilan kelganini qara. Omad yuz burgani shu-da!

Men unga: „Besh daqiqadan keyin u yoqdan kimdir keladi. Unga o'q uzmaslik kerak – bizga ishonadi“, desammikan deb og'iz juftladim. Biroq jur'atim yetmadi, baribir bundan naf chiqmasdi. Deganimda, u handaqqa biqinib atay uni poylagan bo'lardi, indamasak, balki, bir iloji topilib qolar, ehtimol, o'zi ketar. Qolaversa, Byuler qulog'im-ga shipshib, narigi brustverga borib, miltiq bilan „tegmadi!“ (merganlik mashqida o'q nishonga tegmagan paytlarda miltiq bilan havoda chiziq tortib signal beriladi) ishorasini qilganini va ular javob berishganini, xullas, chiqish mumkin emasligini tushunishganini aytdi.

Baxtga qarshi, kun sovuq edi, maydalab yomg'ir yog'ardi. Qosh qoraya boshladi. Tayinlangan uchrashuv vaqtidan chorak soatcha o'tdi. Xavotirimiz sal bosildi va biz erkin nafas oldik. Bir mahal nigohim muallaq qotdi; tilim shishib, og'zimni to'ldirgandek edi, go'yo; qichqirmoqchi bo'lardim-u, og'iz ocholmasdim; umidsizlikdan qo'l-oyog'im shol bo'lgancha betaraf hudud osha qararkanman, ohista ko'tarilgan qo'lni va kimningdir sharpasini ilg'adim. Byuler brustver yonidan zir yugurar va ogohlantiruvchi belgi bermoqchi bo'lib payt poylardi. Biroq g'isht qolipdan ko'chgandi – mayor o'q uzishga ulgurdi. Kimdir ingichka ovozda qichqirdi, sharpa g'oyib bo'ldi. Bir zum dahshatli sukunat cho'kdi. Yana bir-ikki soniyadan keyin yuzlab tovushdan iborat hayqiriqni eshitdik. Qaqshatqich jang boshlandi. „Otinglar! Ular hujumga o'tishyapti!“, baqirdi mayor.

Shunda biz ham o't ochdik. Telbalardek, miltiqlarimizni peshma-pesh o'qlar va otardik, bu

mudhish onlar tezroq o'tib ketsa bas, deb o'ylardik. Butun front jonlandi, artilleriya yeng shi mardi, kechasi bilan otishdik. Ertalab o'n ikkita jasadni sanadik, ular orasida mayor va Byuler ham bor edi.

Harbiy harakatlar, turgan gapki, qaytadan boshlandi; dushman tomon bilan sigaret almashishni bas qildik; qurbanlar soni soat sayin ortardi...

O'shandan keyin ham ko'p balolarni ko'rdim. Ko'p odamlar ko'z o'ngimda halok bo'lishdi; men o'dirganlar ham oz emasdi; toshbag'ir, hissiz bo'lib qoldim. Yillar o'tdi. O'tgan shu uzoq vaqt mobaynida men – qo'limdan kelgancha – yomg'ir shivalab turgandagi o'sha ingichka ovozdagi qich-qiriqni eslamaslikka urinib yashadim".

*Rus tilidan
Jamshid MATYOQUBOV tarjimasi*

OMONMISAN, ZOYA?!

Zoya Aleksandrovna tuni bilan uyqusizlikdan to'lg'onib chiqdi. So'nggi oylarda yüzinchi marotaba bo'lsa kerak, qirq besh yosh – asalga esh yosh ekanligini o'yladi. Lekin Zoya xonimda hammasi chappasiga aylandi. Qirq beshgacha hech qanaqangi dard-pard yuqmadi, keyin esa ko'z tegdi: yuragi o'ynoqlab ketadimi-yey, oshqozoni bezovta qiladimi-yey, u ovqatni yema, bu ovqatni yema, tag'in uyqusizlik dardini orttirib olgani yetmay turgandi.

Alla-pallada Zoya Aleksandrovnaning ko'zi ilinibdi. Olis bolalikdagi bir kun ikir-chikirigacha takrorlangan tush ko'ribdi. Go'yo kimdir o'sha kunni tasmaga muhrlagan-u, hozir unga ko'rsatmoqda edi... Mana, u sinfga kirdi, yozuv taxtasiga aji-buji qilib „Zoyka – ahmoq!“ deb yozib qo'yilibdi. Zoya o'ylab o'tirmay bo'rni oldi-da, sal pastroqqa „Petka Degtaryov esa – uch karra jinni“ deb yozadi. Petka Degtaryov – ko'kko'z, sochlari andak jingalak, yanog'i keng yigitcha to'rtinchi sinfdan beri Zoyaga unda-bunda e'tibor qilib turadigan odad chiqardi. Qolgani – ilk bo'sa, dil izhori, hech qachon ayro bo'imaslik haqidagi ahd-paymon keyinroq, bir necha yil o'tib sodir bo'ldi... U vaqtida esa...

Birinchi tanaffusdayoq yozuv taxtasida javob tayyor bo'ldi: „Zoyka – ahmoqning uchinchi derajası“. Ikkinci tanaffusda Zoyka ham qo'l qovushtirib o'tirmadi: „Petka Degtaryovning telbaligi cheksizlikka teng“. Keyin esa... Shu joyida Zoya Aleksandrovna uyg'onib ketdi – soat qo'ng'irog'i chinqirayotgandi. Birmuncha vaqt tushini eslab qilt etmay yotdi.

Eng qizig'i, bedorlikdan so'ng Zoya Aleksandrovnaning darmoni qurib yurardi, bugun esa tongotardagi tushi, xuddi olis bolalikdagi qayta jonlangan bir kun kuch bag'ishlagandek – bardam-baquvvat, yoshargandek o'rnidan turib ketdi.

Keyin nima qilmasin – yuvindi, qahva ichdi – yuzidan tabassum arimadi. Xonadon yo'lagidan ham kulimsirab chiqdi.

Ko'chada ketarkan, hamma-hammasini xotirлади... Petkaning telbaligi cheksizlikka tengligini yozuv taxtasiga bitgach, bolapaqir uni maktab yonida kutib, yo'lini to'sdi. Yoqalashadi deb o'yladi va har ehtimolga qarshi Petkaning boshiga tushirish uchun portfelinı o'ng'ayroq ushladi. Lekin kutilmaganda Petka:

– O'zi, umuman, qizlarni ko'rishga ko'zim yo'q, hammasi chaqimchi, yig'loqi bo'lishadi, ammolokin sen boshqachasan. Kel, do'st bo'lamiz.

Albatta, shunday yigit unga do'stlashishni taklif qilib turgandan keyin bu gaplar Zoyaga halim-dek yoqib tushdi, ammo qiz bolaligini qildi (qiz bola nozi bilan shirin!), shu bois burnini jiyirib javob berdi:

– Ho-o, yana nima xohlaydilar?!

Shunday dedi-yu, indamay ketaverdi. Biroq Petka unga yetib olib, yana yo'lini to'sdi.

— Yo'liga shunday demayapman-ku, chinaka-miga do'st bo'lishni taklif qilyapman, keyinroq, katta bo'lganimizda turmush quramiz.

— O'rgildim sendaqa kuyovdan! Balki, men kosmonavtga erga tegarman.

— Demak, men kosmonavt bo'laman, — dedi Petka dadillanib.

— Xo'p, mayli. Faqat menga xat-pat yozib yur-magin, darsdan keyin ham kuzatma. Do'st tutin-ganimizni birov bilmasin.

— Roziman. Yanayam qiziqroq bo'ladi. Lekin aytib qo'yay, bitta-yarimta senga shilqimlik qilsa, basharasini bejab qo'yaman!

Shu tariqa ularning ajab do'stligi boshlandi...

Shu on ishtonini tizzasigacha shimarib ol-gan bolakay Zoya Aleksandrovnaning xayollarini to'zg'itib yubordi. Taqqa to'xtadi. O'ziyam ishtonini tizzasiga shimarib olgan bolani o'ttiz yildan beri ko'rмаган edi. Jinqarcha bo'r bilan devorga allanimalarni yozardi. Yonida katta yoshli ayol turganini ko'rib, bo'rni tashladi-da, ura qochdi, devorda esa: „*Katka – ahmoq!*“ degan yozuv. Zoya Aleksandrovna bo'rni olib, qo'lida o'ynatgancha ketmoqchi bo'ldi-yu, shartta ortiga burilib, devor-ga tezgina yozdi: „*Petka Degtaryov – uch karra jinni*“. So'ngra bo'rni devor yorig'iga ehtiyotlab joyladi va baxtiyor tabassum-la nari ketdi.

Ishda uning baxtiyorligi e'tibordan chetda qol-madi:

— Voy o'zim o'rgilay, Zoya Aleksandrovna, bu-gun namuncha kuydirmajon bo'lmasangiz?!

Bunisi-ku bo'limda, yo'lakda ketayotganda burunlari befarqqina o'tib ketgan erkaklarga – ayollar o'zlariga qanday nigoh bilan tikilishlarini sezishadi – jonlantiradigan nish tekkandek, xuddi Zoya Aleksandrovnadan taralayotgan ko'rinas nur nayzasi ularni mahv etgandek g'imirlab qolishdi.

Ishdan keyin ham shunday bo'ldi. Ilgarilari Zoya Aleksandrovna ishdan kela solib istar-istamas ovqat cho'qilar, televizorni yoqib, oyoqlarini chiqarib olgancha oromkursida yarim tungacha o'tiraverardi. Lekin bu kecha ruhi tetik, tek tur-gisi kelmasdi – kvartirasini o'ta shinam holatga keltirdi. Binobarin, kayfiyati shu darajada ediki, eri bilan ajrashganidan beri ilk bor hali hammasi oldinda ekanini o'yldi. Qolaversa, qirq besh yosh – asalga esh yosh ekanini ham.

Eri bilan o'n yilcha oldin ajrashgan – dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan, ichkilikdan boshqasini nazariga ilmaydigan erining xurma-chacha qiliqlariga ortiq dosh berolmadi. Qizi bilan qolaverdi. Avvalboshda o'zini bardam tutdi, qizi erga tegib, hayyo-huyt degancha mashriq tomonlarga survorgach, cho'kib qoldi. Mana, yana unda hayotga muhabbat paydo bo'ldi, ajablanarlisi, uyunusizlikka chek qo'yildi. Hatto qotib uxlaganidan ishga kech qolay dedi.

Ertalab o'zi bitgan yozuv yonidan shoshib o'tib ketayotib, „Hozir qayerda ekan-a Petka Degtaryov?“ deb o'yldi. To'qqizinchi sinfdan keyin Petkaning otasini – u harbiy edi – g'arbiy chegaralarga o'tkazishdi va Degtaryovlar jo'nab ketishdi. Xayr-xo'shlashayotib o'ninchini bitirganlari-

dan so'ng Moskvada, albatta, uchrashishga va'dalashishdi – bitta institutga kirmoqchi bo'ldilar. Ammo hayot o'zani boshqa tomonga burilib ketdi. Mehnat ta'tilidan qaytayotgan Zoykaning ota-onasi uchoqda halokatga uchradi, yetim qolgan qizni Vera xolasi boshqa shaharga olib ketdi. Institutni qo'yib, ishlashga to'g'ri keldi. Keyinroq sirtqi bo'limda o'qidi. Turmushga chiqdi. Endi Petka Degtaryov xotirasini ko'p ham band etavermasdi, lekin shunaqa paytlar bo'lardiki... u bilan bir marta ko'rishish uchun bor-budini berishga tayyor edi.

Zoya Aleksandrovna Petkani qirchillama erkak qiyofasida tasavvur qilishga urindi, bo'lmadi.

Kunlar bir-birini quvlab o'taverdi, devordagi yozuv Zoya Aleksandrovnni olg'a undayverdi. Lekin yog'ingarchilik o'z ishini qildi – yozuv xiralaшиб qoldi...

Hammasi shu bilan tugaydigandek edi. Xulosa ham paydo bo'ldi – bolalikni xotirlash uyqusizlikni yengish uchun yaxshigina chora.

Biroq shunday bo'ldiki – „shunday bo'ldi“ deyapmiz-u, taqdirning o'zi oldindan hammasini tayyorlab qo'ygandi – Petka Degtaryov aynan shu shaharda yashardi.

Bir kuni „yarimta“ izlab yurib – qayoqqa qarama, yetti yuz grammlı shishalar, unda esa faqat yarimtaga yetadigan aqcha bor – Degtaryov Zoya Aleksandrovna ishga qaytnaydigan ko'chaga kirib qoldi. Devordagi nim o'chgan yozuvni ko'rib, avvaliga shunchaki o'tib ketmoqchi bo'ldi, dunyoda Degtaryovlar kammi, boz ustiga, nega bitta-yarimta yigitchaning ismi Petka bo'lmasisin ekan. Ammo

„jinnining ikkilanmasi“ unga nimalarnidir eslatib yubordi... Degtaryov atrofga alang-jalang boqib, devorga yaqin keldi. Peshanasini qashib, uzoq o‘yga cho‘mdi, keyin devor yorig‘idagi bo‘rni olib, qo‘llari qaltirab pastga: „Zoyka – ahmoqning uchinchi darajasi“, deb yozdi. Bo‘rni joyiga qo‘yib, oyog‘ini qo‘lga oldi: shuncha yildan beri ilk bor mijg‘aloq shimi, kir-chir ko‘ylagidan uyalib ketgandi... Endi yarimta deganlari uni umuman qiziqtirmay qo‘ygandi. Degtaryov xoli qolib, o‘ylab olish uchun uyiga shoshdi.

Eshikni quflab, ko‘zgu oldiga turib oldi, soqoli olinmagan, qarimsiq, salqi basharasiga uzoq termildi.

Nahotki, Zoyka shu yerda, shu shaharda bo‘lsa? Qaytib ko‘rmasam kerak deb o‘ylagandi-ya... Nahotki, Zoyka shu yerda bo‘lsa?

Kimlardir eshikni gurs-gurs urib taqillatar, baqir-chaqir qilardi – aftidan, shishadoshlari boshog‘riq qilgani chaqirishyapti, lekin Degtaryovning qulog‘i tom bitgandi. U dog‘-dug‘ uvada matras-u eski paxmoq adyoldan bo‘lak hech vaqosi yo‘q karavotda o‘tirardi, bolish o‘rniga paxtalik nimchani ikki buklab olgan. Barmoqlarini chirmashtirgancha o‘y-xayollar sahosida kezinardi...

Agar Zoyka shu yerda bo‘lsa... O‘zlarining bolaligi o‘tgan shaharga borib keldi, ota-onasi rixlatga ketganini, qizgina xolasi bilan ketib qolganini bildi. Lekin qayoqqa ketdi, yolg‘iz O‘ziga ayon.

Endi bilsa, Zoyka yonginasida ekan – devordagi yozuv faqat ungagina tegishli. Devor yongiga chopib borib, tun-u kun Zoykani kutish ista-

gi kuchayib boraverdi. Ammo uning ko'ziga shu ahvolida ko'rinish... Hatto stol-stuliyam sotilgan kvartiraga odam chaqirib bo'ladimi? Oxirgi paytlarda ishyoqmasligi uchun tiqib qo'yishmagan bo'lsa-da, baribir ikki yildan beri ishsiz – avvaliga televizor, magnitofon,sovutkichni pulladi, so'ng qolganini ham arzon-garovga o'tkazdi.

O'ylab-o'ylab, oxiri birinchi galda ish topishga ahd qildi. Bir zamonlar tappa-tuzuk muhandis edi, har xil teploxdidlarda yurardi, qirg'oqda guruh muhandisi bo'lib ishlardi. Qirg'oqqa xotini tufayli tushgandi, lekin baribir foydasi bo'lma-di – etagidan ushlab turolmaydi-ku, ajrashishdi. Keyin boshqasini uchratdi, shishaga ruju qo'ydi, ming martalab ishini alishtirdi, ishdan bo'shadi...

Ertasiga ertalab bir tanishining oldiga bordi. U bilan bir vaqlar bitta teploxdoda suzishgandi, hozir o'sha tanishi portda bosh muhandis. Petka Xudoning zorini qilib ichishni tashlaganini aytdi. Eski qadrdoni esa:

– Senga ishonaman. Xodimlar bo'limi bilan gaplashib ko'raman, guruh muhandisligiga olishar. Haytovur, dizel nima ekanligi esingdadir. Faqat ikki kundan keyin kelasan. Turqingga bir qara, kimlarga o'xshab qolibsan...

Zoya Aleksandrovna yangi paydo bo'lgan yozuvni ko'rib taxta bo'lib qoldi... Yo'q, bo'lishi mumkin emas... Nahotki, Yaratganning o'zi rahm etgan bo'lsa, axir, buni faqat birgina odam yoishi mumkin... Petka Degtaryov shu yerda, shaharda... Yo Qodir Egam!

Zoya Aleksandrovna bo'rni olib yozdi: „Petka Degtaryovning telbaligi cheksizlikka teng“.

Zoyka go'yo kar va ko'rday bir-bir odimlab ketardi. U shu yerda... yonginasida... shu ko'chadan yurgan... Yo Rabbim... qanday baxt! Umid tugul ilinji ham qolmagandi-ya.

Oqshom mahali portlab ketay dedi, yana bir bor borib, yozuvga tikildi, hatto ushlab ko'rdi.

Ertasiga ishga taraddudlanayotib hamma ko'yaklarini ko'zdan kechirdi. Zoya Aleksandrovna negadir Degtaryov uni, albatta, devor yonida kutib turishiga ishonchi komil edi. Bo'lajak uchrashuvga oshiqsa-da, yuragini vahm bosardi, axir, shuncha suvlar oqib o'tdi, birdan Petkanning ko'ngli qolsa-ya. Benihoya hayajon ich-ichidan toshib kelaverdi, uchragan erkak Degtaryov bo'lib ko'rinaraverdi, yuragi qinidan chiqib ketay deydi-ya...

Degtaryov ikki kun davomida qolgan-qutgan kiyimlarini yuvdi, qusqi, oyoq izi bo'lgan polni yog'tushsa yalaguday qilib tozaladi, isqoti sachragan gulqog'ozlarni esa qoldirishga to'g'ri keldi.

Avtobuslar qatnamasidan oldinroq saharmardonlab ishga bordi, keyin to'g'ri Zoyaning ko'chasi-ga, „Petka Degtaryovning telbaligi cheksizlikka teng“ga qarab turib ishonch hosil qildi: Zoyka shu yerda, shaharda. Bo'rni olib yozdi: „Omonmisan, Zoya?!“ Chakalakzorda adashib qolib, tarvuzi qo'lltig'idan tushgach, tuyqus jonajon maskaniga kelib qolgandek kayfiyatda edi hozir...

Eski tanishi aldamabdi, Degtaryovni bosh mu-handis kafilligi bilan ishga olishdi, picha bo'nak ham berishdi.

Ertasiga yana barvaqt uyg'onib, badantarbiya qildi va Zoyaning ko'chasiga yo'l oldi. Uzundan

uzoq maktubni o'qiganday anchagacha turib qoldi, devorga esa bor-yo'g'i ikkita so'z yozilgandi: „*Bormisan, Petya?!*“ Shodligidan qo'lida yurmoqchi bo'ldi, ammo yerga gursullab yiqildi, jismi-tani o'ziga bo'ysunmasdi... baribir, shunchaki ketishni ep ko'rmadi. Bo'rni olib, qo'lida aylantiraverdi-aylantiraverdi, birorta so'z kelmadi.

Degtryov o'zini kuzatib turganlaridan bexabar edi. Zoya Aleksandrovna yaqin-atrofdagi podyezdga yashiringancha, Degtryovdan ko'z uzmasdi. U ketgach, Zoya Aleksandrovna ham bir ahvolga tushib bitta-bitta qadam tashlab uzoqlashdi.

Zoya Aleksandrovna Petka Degtryovni o'zi-chá har tusda tasavvur qilardi, ammo bu ahvolda emas. Ozib-to'zgan, qarimsiq, g'ijimlangan shim, yengi kalta pidjak, sochlari hurpayib to'zg'igan. Eski hammom, eski tos. Birdaniga sobiq erini eslab ketdi, ichib olib janjal ko'tarar, ajrashgalaridan keyin ham Zoya Aleksandrovnni poylab, aroqqa pul so'rardi...

Yo'q, bu o'zi kutgan, uchrashishni iltijo qilib so'ragan Petka Degtryov emas. O'zing kechir... nimalarni orzulabdi-ya... umidlari-chi...

Ishda Zoya Aleksandrovnni ko'rgan ayollar uchib tushishdi:

– Zoya Aleksandrovna, sizga nima bo'ldi? Tобингиз qochdimi?

Zoya Aleksandrovna uzzukun bu yog'iga nima qilmoq kerakligini o'ylab yurdi.

Kechasi ko'zyoshi qilib oldi. Lekin qarori qat'iy – ishga boshqa ko'chadan qatnaydi.

Tag'in bir-biriga ikki tomchi suvday o'xshash tunlar cho'zilgandan cho'zildi. Zoya Aleksandrov-

na ishdan kela solib istar-istamas ovqat cho'qilar, televizorni yoqardi... Yana tinkaqrutar bedorlik boshlandi, uyqudori ichishga to'g'ri keldi.

Oradan bir oycha vaqt o'tib devorda yangi yozuv paydo bo'ldi: „Zoya, ketma!“ Allakim shumlik ham qilibdi: „*Hammasini kechirdim*“.

Kuzak yomg'irlari hammasini yuvib ketdi, faqat bir-ikkita yakkam-dukkam harflar qoldi, xolos.

Sentabr oxirlaganda devor yonida mast kishi paydo bo'ldi – soch-soqoli o'sib ketgan, olqinding o'zginasi. Yig'lamoqdan beri bo'lib ko'kragiga mushtlar va o'kirardi:

– Menkim, Petka Degtaryov – telbaligim cheksizlik qadar! Menkim, Petka Degtaryov – telbaligim cheksizlik qadar!

*Rus tilidan
Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi*

NIMADIR SODIR BO'LISHI KERAK!

Alfred Vunzidelning fabrikasida xizmatchi sifatida o'tkazgan kunlarimni hayotimning shubhasiz muhim davri, deb bilaman. Tabiatan anchagina xayolparast va bekorchixo'ja bo'sam ham, moliyaviy qiyinchilik – axir bekorchilik kabi xayolparastlik ham deyarli hech qanday naf kel-tirmaydi – ba'zi-ba'zida biron-bir lavozim egasi sifatida ishlashga majbur qilardi. Xullas, bir safar hamyonimda sariq chaqa ham qolmagach, inon-ixtiyorimni ish topib beradigan allaqanday idoraga topshirib, o'zim kabi kulfatzada kimsalar bilan birga Vunzidelning fabrikasiga yo'llanma oldim-da, shu yerda qattiq sinovdan o'tdim.

Fabrika binosining ko'rinishiyoq menda shuba uyg'otdi – uning tashqi devorlari yirik-yirik oynalar bilan qoplangandi, men esa ishlashga sira bo'ynim yor bermaganday yarqiraydigan binolar-u o'ta yorug' xonalarni yoqtirmasdim. Bizni to'g'ridan-to'g'ri yop-yorug', yorqin ranglar bilan bo'yal-gan fabrika oshxonasiga boshlab kirishganda esa yana ham hushyor tortdim – oshxonada biz uchun nonushta tayyorlab qo'yilgandi. Farishtaday of-siant qizlar tuxum, qahva va qovurilgan non bo'lakchalarini oldimizga keltirib qo'yishdi. Bejirim finjonlarga apelsin sharbati to'latib qo'yilgan,

tilla baliqchalar do'ng peshonalarini akvariumning yashil oynasiga xotirjam tiragancha dumlarini li-killatishardi. Ofitsiant qizlarning og'zi qulog'ida, quvonchi ichiga sig'mayotganday, bor shodligini qo'shiq qilib kuylashdan o'zini arang tutib tur-ganday tuyulardi. Serpusht tovuqlar singari ular-ning qalbida ham go'yo shavqu zavq ummoni jo'sh urardi.

Bu nonushta ham imtihonning bir qismi ekanini o'zim kabi ish izlab yurgan birodarlarim hatto xayoliga ham keltirmayotganini daf'atan payqa-dim. Shu bois go'yo omonat tanasini qanday foy-dali ozuqalar bilan ta'minlanayotganini teran anglaydigan kimsa kabi har bir luqmani shoshil-masdan chaynardim. Men, hatto odatiy holatda dunyodagi biron-bir kuch majburlay olmaydigan ishni ham qildim – och qoringa apelsin sharba-tini ichdim, likopchadagi non bo'lakchalariga qo'l urmadim, tuxum bilan qahvaga esa qiyo ham boqmadim. So'ng o'rnimdan turib, darhol ishga kirishishga tashna odam singari oshxona bo'y lab oshkora odimlay boshladim.

Bu naf berdi – imtihon bo'ladigan xonaga dast-lab meni taklif qilishdi. Did bilan bezatilgan stollar ustida oldindan tayyorlab qo'yilgan savolnomalar yotardi. Xona devorlari och moviy rangga bo'yal-gan, uning ohanrabosi o'ta befarq kimsalarni ham hayratga solgan bo'lardi. Xonada hech kim yo'q, bundan qat'i nazar kimdir qaysidir tirqish-dan meni kuzatayotganini sezib turardim. Dar-hol cho'ntagimdag'i ruchkani oldim, ro'paramdag'i stolga o'tirib, uy egasidan hisob-kitob varaqasini

olgan ijaradagi hovliqma kabi so'rovnomaqa qo'l uzatdim.

Birinchi savol: **odamzod faqat ikkita qo'l, ikkita oyoq, bir juft ko'z va qulooqqa ega ekanini siz adolatli hol deb hisoblaysizmi?**

Xayolparast, mulohazakor ekanimning samarasini birinchi bor tatib ko'rish nasib etadigan bo'ldi! O'ylab ham o'tirmay shunday deb yozdim: „Mening ishchanligimni qondirish uchun hatto to'rtta qo'l, to'rtta oyoq va to'rtta qulooq ham kifoya qilmagan bo'lardi! Afsuski, odamzod nochor-u notavon yaratilgan!“

Ikkinchi savol: **bir vaqtning o'zida siz nechta telefonga xizmat ko'rsata olasiz?**

Oddiy tenglamani yechish singari bu savol javobi ham oson edi: „Agar ro'paramda yettita telefon bo'lsa, – deb yozdim men, – o'zimni qo'ygani joy topa olmay qolaman, yonimda to'qqizta telefon bo'lsagina risoladagiday g'ayrat bilan ishlayman“.

Uchinchi savol: **bo'sh vaqtingizda nima bilan shug'ullanasisiz?**

So'nggi savolga javob quyidagicha bo'ldi: „Bo'sh vaqt“ nima ekani allaqachon yodimdan ko'tarilgan. O'n besh yoshga to'lganimda 'bu iborani o'z lug'at boyligimdan tamomila o'chirib tashlagaman, zotan, allomalar: „Mehnatning tagi – rohat“, deb bilib aytishgan.

Ishga olishdi. Menday serg'ayrat odam uchun to'qqizta telefon ham kamlik qilardi. Go'shakni qo'lga olib qichqirardim: „Darhol kirishinglar! Bo'la qolinglar, deyapman!“ yoki: „Biron chorasi ni topinglar!“, „Nimadir qilinglar, axir!“, „Albatta, nimadir qilish kerak!“, „Albatta, nimadir qilamiz!“,

„Allaqachon uddalab qo'yanmiz!“, „Haqiqatan ham nimadir qilish kerak!“ Lekin aksariyat holatlarda korxonadagi umumiy muhitga ko'ra, buyruq ohangida hayqirardim.

Korxonada tushlik paytidagi tanaffus maroqli o'tardi, ishchi-xizmatchilar sassiz hamjihatlik og'ushida darmondorilar bilan boy to'yimli yeguliklarni ishtaha bilan tanovul qillardik. Vunzidelning fabrikasi qiyomat izdihomidan qolishmas, ishchi-xizmatchilarning har biri barcha buyuk zotlar singari o'z o'tmishi haqida to'lib-toshib jon deb hikoya qilishni istardi. Ularning umr yo'llari hayotning o'zidan ham muhimroq ahamiyatga ega edi-da. Bir og'iz shama qilsangiz bas, ko'nglidagi barcha gaplarni oqizmay-tomizmay gapirib berar, kamiga, bularning barchasi haqiqat, deb qasam ichishdan ham toymasdi.

Broshek degan g'ayrioddiy zot Vunzidelning o'rribosari vazifasini bajarardi. U talabalik kezlaridayoq yetti bola bilan shol bo'lib qolgan onasini ta'minlashdek vazifani uddalab, nom chiqargandi. Buning uchun tun bo'yi ishlar, to'rtta savdo firma-sining vakili vazifasini qoyillatib ado etar, shunga qaramasdan ikki yil mobaynida ikkita davlat imtihonini ham „a'llo“ baholarga topshira olgandi. Reportyorlar bir gal undan: „Nahotki tunda ham uxlamasangiz?“ – deb so'rashganda, Broshek: „Uyqu – gunohi azim!“ – deb javob bergen.

Vunzidelning kotibasi esa Broshekdan ham oshib tushardi. Kotibalik qilish bilan bir paytning o'zida qo'li to'qishdan bo'shamas, shuning evaziga to'rt bola bilan to'shakka mixlanib qolgan erini ta'minlar, ayni paytda ruhshunos va tarixchi il-

miy unvoniga ega bo'lib, kamiga zotdor kuchuklar boqar hamda tungi qahvaxonada „Bamn 7“ nomi bilan mashhur xonanda ham edi.

Vunzidelning o'zi esa ertalab o'rnidan turib ul-gurmasdan nimadir qilishga oshiqadigan o'pkasi-ni qo'ltilqlaganlar toifasidan edi. Ular, hatto tungi pijamasining bog'ichini shoshilib bog'lash asno-sida ham: „Men g'ayrat qilishim kerak!“ – deya pishillarydi. Hattoki yonoqlarini qirtishlayotgan-da ham ustara tig'ida omonat turgan, bir lahzadan keyin dastjo'yak ichiga sho'ng'iydigan soqoli-ning tuklariga g'olibona nazar solgancha: „Men harakat qilishim darkor!“ – deb o'ylaydi. Beshafqat qirib tashlangan soqol tuklari ularning tiyiqsiz ishchanliklarining dastlabki qurban ni bo'ladi. Ni-masini aytasiz, kichik va katta zaruriyat ham bunday kimsalarga huzur baxsh etadi – oq chin-ni o'tirg'ichdag'i suv shovullaydi, hojatxona qog'ozi mayin shitirlaydi... nimadir ro'y berayotir-da! Non ishtaha bilan chaynaladi, nonushta uchun qay-natilgan tuxum po'choqlari pachoqlanadi...

Har qanday mayda-chuyda ham, Vunzidelning nazdida, buyuk a'mol tusini olardi: shlyapa kiya-dimi, g'ayrati taniga sig'may paltosining tugmasi-ni qadaydimi, ishga otlanishdan oldin xotinining yuzidan bo'sa oladimi – hamma-hammasi buyuk faoliyat! Tengi yo'q g'alaba!

Vunzidel ishga keliboq kotibasi bilan salom-lashish o'rniga: „Nimadir sodir bo'lishi kerak!“ – deb qichqirar, kotiba ham, o'z navbatida, g'ayra-ti ichiga sig'may: „Albatta, sodir bo'ladi!“ – deya azbaroyi hayajon bilan sado berardi. Vunzidel shundan keyin bo'limlarga birma-bir bosh suqib

chiqar, hamma joyda uning: „Nimadir sodir bo'lishi kerak!“ – degan xitobi yangrar, hamma xodimlar o'rnatilgan tartibga rioya qilgan holda bor ovozi bilan baravariga: „Albata, nimadir sodir bo'ladi!“ – deya mardonavor javob berishardi. Xo'jayin xonamga kirib kelganda men ham o'rnimdan sapchib turgancha, quvonchim ichimga sig'masdan: „Albatta, nimadir sodir bo'ladi!“ – deb javob qaytarardim.

Men ish boshlagan dastlabki haftadayoq o'zim xizmat ko'rsatadigan telefonlar sonini o'n ikkitaga yetkazdim, keyingi haftada telefonlar o'n uchta bo'ldi. Ertalab tramvayda ishga borarkanman, „sodir bo'ladi“ fe'lini buyruq ohangida yoki barcha zamonlar va fe'l bog'lanishlarida, shartli va aniqlik mayllarida xilma-xil tarzda tuslash-u ifoda qilishdan huzur topardim. Jumladan, bir safar menga juda-juda yoqib tushgan bitta iborani, ya'ni „Nimadir bo'lishi kerak edi-ku, axir!“ – deya telefon go'shagiga qatorasiga ikki kun qichqirdim. Keyingi ikki kun mobaynida esa: „Hech narsa sodir bo'lmasligi kerak edi-ku!“ – degan xitobim yangradi.

Shu asno ishga sho'ng'ib ketdim, biroq kutilmaganda haqiqatan ham nimadir sodir bo'ldi. Seshamba ertalab ishxonadagi oromkursiga joylashib ulgurmasimdan janob Vunzidel xonamga bostirib kirdi-da, odatdagidek: „Nimadir sodir bo'lishi kerak!“ – deya hayqirdi. Lekin uning qiyofasidagi g'alati ifodani ko'rganim hamono tilim kalimaga kelmay qoldi. Menden hadeganda javob chiqmaganidan g'azablangan Vunzidel janoblari kamdan-kam holatlarda xodimlarga baqirishiga

qaramasdan, o'shqira ketdi: „Javob bering! Belgilangan tartibda darhol javob bering!“ „Men – yaramas bolakayman!“ – deya tan olishga majbur qilingan norasida boladay astagina: „Albatta, sodir bo'ladi“, deb shivirladim... Shunday deyishimni bilaman, ko'z o'ngimda rostdan ham kutilmagan voqeа ro'y berdi: Vunzidel yuztuban quladi, yonboshiga o'grildi va ostona oldida ko'ndalang tushgancha tarashaday qotib qoldi. Stolni aylanib o'tib, yaqinlashmasdan oldinoq uning jon taslim qilganini payqadim.

Afsus bilan boshimni sarak-sarak qilgancha, uzala tushib yotgan jasad ustidan hatlab, keng bo'lmadan o'tib, eshigini taqillatib ham o'tirmay, Broshekning huzuriga kirdim. Broshek yozuv stoliga engashgancha o'tirardi. Ikkala qo'lida ikkita telefon go'shami, og'zida esa sharikli ruchka, u bilan daftarchaga nimalarnidir qayd qilardi, ayni paytda yalang oyoqlarining barmoqlari bilan stol ostidagi to'quv mashinasini ishlatalardи – Broshek shu tariqa oilasining kiyim-kechaklari mo'l bo'lishiga o'z hissasini qo'shardi.

– Bugun kutilmagan voqeа sodir bo'ldi! – sirli tarzda shivirladim men.

Broshekning og'zidan sharikli ruchka tushib ketdi, telefon go'shaklarini joyiga qo'ydi, to'quv mashinasining pedalidan oyoqlarini oldi.

– Yana nima balo sodir bo'ldi? – so'radi u.
– Janob Vunzidel omonatini topshirdi, – dedim men.

– Bo'lishi mumkin emas, – ishonmadi Broshek.
– Rostdan ham o'ldi, – e'tiroz bildirdim men. – Yuring, o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz.

– Yo‘g‘-e. Nahotki?! – dedi Broshek, lekin shunga qaramasdan uyda kiyadigan boshmog‘ini kiydi va ortimdan ergashdi.

– Yo‘q! – qichqirib yubordi Broshek marhumning jasadiga ko‘zi tushgani hamono. – Yo‘q! Yo‘q! Yo‘q!..

Unga qanday taskin berishni bilmasdim, engashib Vunzidelni chalqancha yotqizdim va ko‘zlari ni yopdim-da, marhumga o‘ychan tikilib qoldim.

Ayni shu kezda unga nisbatan birinchi marta mehrim tovlanib ketdi, nihoyat rostini aytganda, unga hech qachon nafrat bilan qaramaganim ko‘nglimdan kechdi. Uning qiyofasi shunday tusga ega ediki, odatda, o‘rtoqlarining vaj-karsonlari qanchalar asosli bo‘lmasin, Qorbobo borligiga oid ishonchidan voz kechishni sira istamayotgan bolaning yuzida shunday ifoda bo‘ladi.

– Yo‘q! – deya qat‘iy baqirdi Broshek. – Yo‘q!

– Nihoyat, mana endi nimadir sodir bo‘ladi, – dedim sekingina unga.

– Ha, – deya fikrimga qo‘sildi u ham, – endi rostdan ham nimadir bo‘lishi kerak.

Haqiqatan ham antiqa voqeа ro‘y berdi. Vunzidelni dafn qilish chog‘ida menga uning tobuti ortidan sun‘iy atirgullar gulchambarini ko‘tarib borish topshirildi, chunki kamina nafaqat mulohazakorlik va bekorchilikka moyilman, shuningdek, qora kostyum-shim quyib qo‘ygandek yara-shadigan qaddi qomat-u qiyofaga ham egaman. Sun‘iy atirgullar gulchambarini, aftidan, o‘zgacha viqor bilan ko‘tarib bordim. Zotan, ko‘p o‘tmasdan qandaydir juda ham obro‘li dafn idorasidan dafn marosimlarida malakali xodim sifatida ishtirok

etishga oid taklif oldim. „Siz ayni shu kasb uchun tug‘ilgansiz, – dedi menga idora boshlig‘i. – Zar-u kiyim-kechaklar tashvishini qilmang, hammasi bizning hisobimizdan. Sizning qiyofangiz – biz uchun ayni muddao!“

Men Broshekka ishdan bo‘shash haqida ariza berdim. Bu korxonada, hatto o’n uchta telefon bilan ishslash ham meni qoniqtirmayotganini, qobiliyatlarimning talay qismi behuda sovrilayotganini bahona qilib ko’rsatdim. Dastlabki dafn marosimida mutaxassis sifatida ishtirok etganimdan keyinoq qat’iy ishonch hosil qildim: mana mening peshonamga bitilgan hunar, mana, aynan men uchun atalgan lavozim!

Motam orkestri Gendelning yurakni ezib yuboradigan ma'yus „Largo“ musiqasini ijro etar ekan, odmi guldastani mahkam ushlagancha tobut ortida chuqur o‘yga tolib turaveraman. Qabriston yonidagi qahvaxona – doimiy qo‘nimgohim. Xizmat vazifamni bajarish orasidagi tanaffuslarни ayni shu yerda o’tkazaman. Lekin ba’zida kuzatishim shart bo‘lmagan tobutlar ortidan ham ergashaman. Bunday paytlarda o‘zimning hisobimdan bir siqim gullarni xarid qilib, o‘z kasbiy vazifasiga ko‘ra yolg‘iz ketib borayotgan mahkama xizmatchisi bilan birga biron-bir daydining tobuti ortidan ohista qadam tashlay boshlayman.

Vunzidelning qabrini o‘qtin-o‘qtin ziyorat qilaman – axir, manglayimga bitilgan kasbga aynan uning sharofati bilan ega bo‘ldim, bunda xayolparastlik, ya’ni jiddiy o‘ychanlik zaruriy xislat, bekorchilik esa xizmat burchi sanaladi.

17 Vunzidelning fabrikasida aynan nima ishlab chiqarilishi bilan qiziqmaganim, nihoyat, bir kuni esimga tushib qoldi... Yanglishmasam, sovun ishlab chiqarilardi.

Abduhamid PARDAYEV tarjimasi

MAOSHGA QO'SHIMCHA

Jovanni Batistella kuni kecha ishga olingan yosh hamkasabasi unga nisbatan 20 ming lira ko'p maosh olishidan xabar topdi-yu, halovatini yo'qotdi. Shunchalar g'azablandiki, xotirjam paytida hech qachon qilmaydigan ishga jur'at qildi, barcha alamini to'kib solish uchun bosh direktor huzuriga otlandi.

Ulug'vor xonaning eshigini ochishi bilan uning to'rida o'tirgan boshliqqa ko'zi tushdi.

- Kiravering, kiravering, marhamat...
- Kechirasiz, janobi boshliq, biroq...
- Muhtaram Batistella, sira tortinmay kiravering. Nihoyat, meni yo'qlab kelganingizdan juda minnatdorman...
- Minnatdormisiz?
- Bo'lmasam-chi! Sizni ko'rganimdan boshim osmonga yetdi. Marhamat, bemalol joylashib olavering. Juda qimmatli va qadrdon kishilari-mizga kam e'tibor beramiz. Afsuski, bu achchiq haqiqat. Muhtaram Batistella, tez-tez ko'rishib, xotirjam dardlashganga nima yetsin. Lekin haftalab ko'rishmaymiz. Hattoki oylab... Balki, ko'rishganimizdan buyon bir necha yil o'tgandir.
- Rappa-raso ikki yarim yil oldin ko'rishgandik.

– Ikki yarim yil! Aytsam ishonmaysiz, muhtaram Batistella. Mana shu ikki yarim yil mobaynida har oqshom, uyquga yotishdan oldin, ya’ni o’z vijdonim bilan yuzma-yuz qolganda, o’zimga o’zim dakki berib keldim: „Batistella! Bebaho Batistella! Men uni tamomila unutib qo’ydim. Uni xoliso na xizmatiga munosib lavozimga o’tkazishim kerak. Juda jonkuyar xizmatchi. Axir, firmamizning ishongan bog‘i-yu suyangan tog‘i“. Sizga yolg‘on, Xudoga chin: har kecha shunday fikrlar sira tinchlik bermaydi, o’zimni oqlay olmay vijdonim oldida qiynalaman.

– Demak, janob boshliq, siz...

– Albatta, albatta! Sizning niyatizingizni sezib turibman. Nima demoqchi ekaningizni ham bila man. Haqiqatan ham tirnog‘ingizga ham arzimaydigan ayrim no‘noq xodimlar sizdan ko‘p maosh oladi. Buadolatsizlik! Sizning sabr-toqatingiz tugadi. Shunday demoqchimisiz?

– Ha, haqiqatan ham...

– Bunday ahvol, muhtaram Batistella, sizning hafsalangizni haqli ravishda pir qilgan. O‘rinli e’tiroz. Fikringizga men ham qo’shilaman. Adolatsizlik – shunday illatki, eng muloyim odamni ham yirtqichga aylantiradi. Yo gapim noto‘g‘rimi?

– Umuman, to‘g‘ri...

– Mana ko‘rdingizmi. Siz bolsa meni sal bo‘lmasa hech vaqoni tushunmaydigan, hech kimning qismati bilan qiziqmaydigan bag‘ritoshga chiqarib qo‘yardingiz. Odam degan bunaqa shuhagar bo‘lishi kerak emas. Mayli, loaqlal bugungi kun siz uchun omadli bo‘lsin. Bugun ikkalamiz

ham bir-birimizdan rozi bo'lishimiz kerak. Sizga 150 ming oylik maosh tayinlasam, nima deysiz?

– Nima dedingiz?

– Yanglishmasam, hozir 95 yoki 98 ming lira olasiz?

– 97 ming.

– Juda soz, nihoyat, oldinga dadil qadam tashlaymiz. 150 ming lira maosh sizga yetadimi?

– Kechirasiz-u, biroq bu hatto xayolimga ham kelmagandi.

– Mana, o'zingiz guvoh boldingiz. Men kimlарdir orqamdan g'iybat qilgandek, ayyor tulki ham, qonxo'r ham, odamxo'r ham emasman.

– Rahmat, janob boshliq.

– Arzimaydi. Xolisona xizmatingiz uchun men sizga rahmat aytishim kerak. Chekasizmi?

– Rahmat, men chekmayman.

– Otangizga balli! Bamisolli farishtasiz, farista! Men esa qarg'ish urganday chekkanim-chekkan... Shunday... shunday... Nihoyat, masala hal bo'ldi.

– Vaqtinezni olganim uchun meni...

– Bemalol, bemalol, muhtaram Batistella. Omad yor bo'ssin! – Bosh direktor chuqr entiddi: – Afsus...

– Nimaga pushaymon bo'lyapsiz?

– O'zim, shunchaki... Sizning masalangizda boshqa rejalarim bor edi, endi gapirgandan nima foyda...

– Gapiravering, jon deb eshitaman.

– Siz, yoshlarni juda yaxshi bilaman. Hamisha hovliqasiz, yaxshilikni bilmaysiz.

– Juda unchalik emas.

– Men siz bilan yaqin birodar kabi gaplashib olsam degandim. Lekin siz boshqacha tushuningiz hech gap emas.

– Nima uchun?

– Gap shundaki, bu juda nozik masala...

– Nahotki menga ishonmasangiz?

Bosh direktor asta o'rnidan turdi, xona bo'ylab o'g'rincha qadam tashlab eshik oldiga keldi-da, uni qulfladi, yo'lak bo'ylab hech kim kelmayotganmikan, deganday biroz qulqoq soldi va bar-mog'ini lablariga bosib, shivirlab dedi:

– Batistella, gaplarimga yaxshilab qulqoq soling. Mening to'rimdan go'rim yaqin...

– Qo'rqtigmang, janob boshliq...

– Qaridim... qarib qoldim... O'qtin-o'qtin yuragim pand berayotir. Bu ketishda...

– Janob boshliq, yaxshi niyat qiling.

– Mendan keyin bu mansabni kim egallaydi?..

Eshityapsizmi, Batistella?

– Albatta, albatta.

– Hech kimga churq etmang, bu gaplarni sizga ishonganimdan aytyapman. Anchadan buyon jiddiy o'zgarishlar bo'lishini bashorat qilishmoqda.

– Nahotki?

– Gapimga ishonavering. Yangi xo'jayinlar, boshqa moliyaviy guruh keladi. Keyin nima bo'ladi?

– Nahotki hozirgi boshliqlar o'rnini yangilari egallaydi?

– Buning oqibatida nimalar bo'lishini bilsizmi?

– Biron narsa deyishim qiyin.

– Birinchi galda tejamkorlikka zo'r berishadi.

Nazarimda, sanoqli kunlardan keyin rahbarlar

o'zgaradi, chunki inqiroz bizlarni ham chetlab o'tgani yo'q. Ishlar ko'ngildagidek emas, Batistella. Men ishdan ketamanmi, qolamanmi, bundan qat'i nazar, mening o'rninga keladigan odam mablag'larni tejash choralarini qidira boshlaydi. Qanday choralar deysizmi? Juda oddiy... Bilsizmi, odatda, bunday holatlarda nima qilinadi?

– Yo'q.

– Ish qayta tashkil qilinadi. Qaytadan tashkil qilish! Ajoyib ibora-a?! Bu nima degani? Ortiqcha daxmazadan xalos bo'lish degani. Saralash boshlanadi. Yirik maosh oladigan barcha xodimlar elakdan o'tkaziladi. Kamina ham. Ularning pat-tasini qo'liga tutqazishadi. Qayta-qayta elakdan o'tkazishadi. Kim omon qoladi? Bunday holatda, odatda, hech kim nazarga ilmaydigan oddiy xodimlarga jin ham urmaydi.

– Demak?..

– Sizday sadoqatli xodimni ishdan bo'shatish men uchun azob! Vijdonan, odam sifatida, muhtaram Batistella, sizni ogohlantirishim ham qarz, ham farz. Qolaversa, sizni bu balodan saqlab qolishim kerak.

– Qanday qilib?

– Sizni maoshingiz keskin ortishidan asrashim, niqoblab, ishonarli joyga berkitishim zarur. Biroq har qancha jon kuydirganimdan nima naf? Siz, yoshlar, buni hech qachon qadriga...

– Yo'q, yo'q, janob boshliq, gapingizni davom ettiravering...

– Sizga o'z o'g'limday hammasini ochiq aytaymi? Yaxshi. Bunday vaziyatda sizning o'rningizda bo'lsam bilasizmi nima qillardim?

- Nima qilardingiz?
- Mana, nima qirlardim, jon bolam! Boshimni ikki yelkamni orasiga olib, faqir kishi panada deganlariday, boshliqlarning ko'ziga tashlanmaslikka, qancha berishsa ham...
- Qancha maosh olsam ham?
- Albatta. Shunday xulosa kelib chiqayotir: sizning moddiy ahvolingizni yaxshilash maqsadi da, aslida, do'stning emas, dushmanning ishini qilayotirman. Xolisona aytganda, sizni boshi berk ko'chaga kiritib qo'ymoqdamani.
- Demak, sizning fikringizcha?..
- Muhtaram Batistella, bir kun kelib mendan norozi bo'lishingizni sira ham istamayman. Gaplarimga xo'p deyavering. O'z vaqtida meni ogohlantirmagan ekansiz, deb gina qilishingiz aniq. Vaqt esa, azizim, biz bilan hisoblashmaydi. Xo'jayinlar o'zgaradami, o'zgarmaydimi, baribir jiddiy choralar talab qiladigan fursat keladi. Shuni bilgan holda, nima uchun o'zingizni baloga giriftor qilishingiz kerak?
- Hech narsani tushuna olmayapman... Bularning hammasiga maoshim ortgani sabab bo'ladi mi? Hozircha sabr qilganim ma'qul, demoqchimisiz?
- Shunchaki sabr qilish emas? Oldini olish kerak! G'anim to'xtovsiz o'qqa tutganda askarlar nima qilishini bilasizmi? Yerga yuztuban yotib oladi. Siz ham o'zingizni chetga oling, Batistella.
- Qanday chetga olaman?
- Ko'chma ma'noda aytyapman. Uzoq maqsadni ko'zlagan holda zARBALARGA chap berish kerak. Bu borada har qancha g'ayrat qilsangiz ham - oz. Tushundingizmi, Batistella?
- Unchalik emas...

- Maoshingiz biroz kamaysa, sizday bo'ydoq odam nima ham zarar ko'rardi? Deylik, 97 ming o'rniga 80 ming lira olasiz. Ochingizdan o'lib qolmaysiz-ku. 90 ming liradan ortiq maosh oladigan xodimlar esa yaqqol ko'zga tashlanadi. Siz esa hech narsa bo'lmaganday xotirjam ishlayverasiz.
- Demak, maoshim kamaygani ma'qul?
- Mana, sizga nima degandim, yaxshisi bu haqda gap ochmasligim kerak edi. Mening so'zlarimni noto'g'ri talqin qila boshladingiz.
- Menga oyiga 80 ming lira taklif qilyapsizmi?..
- 70 mingga qanoat qilsangiz yana ham yaxshi bo'lardi, lekin o'ylashimcha, 80 ming lira maosh ham bo'laveradi.
- Janob boshliq...
- Yaxshi otga bir qamchi deb bilib aytishgan. Sizday tushungan odamning sadag'asi ketsang arziydi. Bir tasavvur qiling-a: sizning maoshingizni ko'paytirishdi! Oyiga 150 ming lira? Keyin-chi? Dastlabki qisqartirish paytidayoq kovushingizni to'g'rilib qo'yishardi. Sizni o'z bolamday ko'rganim uchun Xudoga shukur qiling.
- Sizningcha, qo'shimcha maosh...
- Hech shubhasiz, bolaginam. Hozirgi paytda maoshni oshirish – o'z boshingni dorga tutib berishday gap.
- Nima ham derdim, janob boshliq. Meni bir balodan asrab qoldingiz, katta rahmat.
- Rahmat aytishning sira ham hojati yo'q. Eng muhimi ko'nglingiz tinchidi, xotirjam ishlayvering. Menga ishonavering: siz uchun jonimni ham ayamayman, qimmatli Batistella!

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Nashriyotdan | 3 |
| Anton Chekov. Savdogar | |
| <i>Shahzoda Hakimova tarjimasi</i> | 5 |
| Nikolay Kaytov. To'y. Jo'ra Mahmud tarjimasi | 11 |
| Vasiliy Shukshin. Judolik | |
| <i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i> | 22 |
| Ivo Andrich. Bayron Sintra sohilida | |
| <i>Abduhamid Pardayev tarjimasi</i> | 31 |
| Yuxan Falkberget. Qismat | |
| <i>Abduhamid Pardayev tarjimasi</i> | 37 |
| Herbert Ernest Bates. Mening atirgulim | |
| <i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> | 44 |
| Virjiniya Vulf. Moviy va yashil | |
| <i>Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 49 |
| Ketrin Mensfild. Oqsoch | |
| <i>Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 52 |
| Gi de Mopassan. Xonadon | |
| <i>Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 62 |
| Oldes Xaksli. Pushti rang upa | |
| <i>Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 74 |
| Gi de Mopassan. Tavba | |
| <i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> | 78 |
| Dobri Jotev. Yaxshi odam. <i>Tohir Malik tarjimasi</i> | 84 |
| Erix Mariya Remark. Dushman | |
| <i>Jamshid Matyoqubov tarjimasi</i> | 88 |
| Vladislav Avdeyev. Omonmisan, Zoya?! | |
| <i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i> | 98 |
| Genrix Byoll. Nimadir sodir bo'lishi kerak! | |
| <i>Abduhamid Pardayev tarjimasi</i> | 108 |
| Dino Butssati. Maoshga qo'shimcha | |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> | 118 |

Adabiy-badiiy nashr

BAYRON SITA SOHILIDA

Hikoyalar

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

*Abdurahmon Jo'rayev
Bahodir Ibragimov
Zikrilla Mamatov
O'g'iloy Qurbonova*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
09.09.2022 da bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 84x108¹/32.

Ofset qog'ozи. „Bookman“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 6,72. Adadi 1000 nusxa.
Shartnoma № 41-22. Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“

Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodi“ bosmaxonalarida
chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho'ponota ko'chasi,
28-a uy.

„Yangi asr avlodi“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko'chasi, 60-uy.

Andrich, Ivo.

A 63 **Bayron Sintra sohilida.** [Matn]: hikoyalar / Ivo Andrich; tarjimonlar: Abduhamid Pardayev va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 128 b.

ISBN 978-9943-8577-4-2

UO'K 821(497.1)-32
KBK 84-445

BAYRON SINTRA SOHILIDA

Hikayeler Toplumu



ZIYO NASHR



fb.com/zionashr



zionashr@mail.ru



ISBN 978-9943-8577-4-2



9 789943 857742